ISSN 2181 – 2100

TURKOLOGIYA
TURKOLOGY

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

3 - 4

2024

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ro‘yxatidan o‘tgan
(№ 1129, 11.11.2020-y.) **ISSN 2181 – 2101**

Bosh muharrir – **Rixsiyeva Gulchehra Shovkatovna**
filologiya fanlari nomzodi, professor

TAHRIR HAY’ATI

Q. Omonov	*filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
P. Kenjayeva	*filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul kotib)*
B. To‘xliyev	*filologiya fanlari doktori, professor*
Q. Sodiqov	*filologiya fanlari doktori, professor*
Sh. Usmonova	*filologiya fanlari doktori, professor*
H. Dadaboyev	*filologiya fanlari doktori, professor*
N. Rahmonov	*filologiya fanlari doktori, professor*
B. Karimov	*filologiya fanlari doktori, professor*
X. Islamjanova	*filologiya fanlari doktori, professor*
X. Hamidov	*filologiya fanlari doktori, professor*
A. Alimbekov	*filologiya fanlari nomzodi, professor*
Dj. Shabanov	*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*
Sh. Sodiqova	*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*
N. Abdullayev	*siyosiy fanlar doktori, professor*
M. Is’hoqov	*tarix fanlari doktori, professor*
D. Sayfullayev	*tarix fanlari doktori, professor*
X. Fayziyev	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
Z. Alimov	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
N. Xolmatov	*iqtisod fanlari nomzodi, dotsent*
Z. Qodirova	*iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
M. Vohidova	*iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
R. Bahodirov	*falsafa fanlari doktori, professor*
A. Shonazarova	*AQSHning Kolumbiya universiteti professori*
O. Mert	*Turkiyaning Anqara universiteti professori*
H. Baydemir	*Turkiyaning Otaturk universiteti professori*
V. S. Yelok	*Turkiyaning Anqara Hoji Bayram Vali universiteti dotsenti*
N. Telitsin	*SPbDU Turkologiya kafedrasi mudiri, professor*

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, G. Hushnazarova, H. Sulaymonova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024

2024-yil 27-29-noyabr kunlari Buxoro shahrida Xalqaro ziyorat turizmi doirasida o‘tkazilgan “Alp Er To‘nga – ulug‘ xoqon” mavzuidagi anjuman maqolalari to‘plangan “Turkologiya” jurnalining maxsus soni

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

Rixsiyeva G. Ulug‘ xoqon xotirasini mangulashtirish yo‘lida 4

Azimov M. Alp Er To‘nga – Turon davlatchiligi asoschisi 6

Sodiqov Q. Eski turkiy kitoblarda Alp Er To‘nga to‘g‘risida keltirilgan xabarlar va ularning talqini 8

To‘xliyev B. Alp Er To‘nga obrazining arxaik qatlamlari haqida..... 20

Rajabov Q. Alp Er To‘nga – turkiy xalqlar bobokaloni 26

Boboyorov G‘. Afrosiyob – Turkiy ellar davlatchiligining ko‘p ming yillik bosh g‘oyasi..... 37

Omonov Q. Alp Er To‘nga Turkiy dunyo birligining ramzi sifatida 52

Djumaniyazova F. Alp Er To‘nga masalasining Turkiyada o‘rganilishi 58

Xatamova M. Turon va Eron tasavvurlarida Afrosiyob timsoli 68

Sattorova Z. “Alp Er To‘nga” marsiyasining matni xususida 90

Alp Er To‘ngaga bag‘ishlanayotgan bitiktosh matni 87

TANGRINING INOYATIGA ERISHGAN, EL TUZGAN ALP ER TO‘NGA ULUG‘ XOQON..... 93

XALQARO ZIYORAT TURIZMI DOIRASIDA O‘TKAZILGAN “ALP ER TO‘NGA – ULUG‘ XOQON” MAVZUIDAGI ANJUMAN

ULUG‘ XOQON XOTIRASINI MANGULASHTIRISH YO‘LIDA

Gulchehra Rixsiyeva

Professor, filologiya fanlari nomzodi,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan «Tabarruk ziyorat» turizm loyihasini amalga oshirish doirasida Turkiy davlatlar tashkiloti kotibiyati, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi va Buxoro viloyat hokimiyati hamkorligida 2024-yilning 27-29-noyabr kunlari Buxoro shahrida «Xalqaro turizm haftaligi» o‘tkazildi. Ushbu yig‘inda Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘izistondan hamda O‘zbekistonning turli shaharlaridan turizm sohasi egalari, manbashunos va tarixchi olimlar qatnashdilar.

Yig‘ilish majlislari ikki kun davomida Buxorodagi mashhur Mir Arob oliy madrasasida bo‘lib o‘tdi. Unda chet ellik va yurtimiz mutaxassislari turizm sohasida tabarruk yerlarga ziyoratlarni uyushtirish, ziyoratchilarga barcha sharoitlarni yaratish bo‘yicha o‘z tajribalari, bilimlari bilan o‘rtoqlashdilar. Ular tadbir dasturi doirasida Buxoro va uning tevaragidagi qutlug‘ qadamjolarni ham borib ko‘rdilar.

Eng muhimi, ushbu haftalik doirasida turkiy, xususan, o‘zbek davlatchiligi asoschisi, ko‘hna Turon xoqonlaridan biri, ulug‘ sarkarda va donishmand Alp Er To‘nga (Afrosiyob)ning saltanatni mustahkamlash yo‘lidagi faoliyatiga bag‘ishlangan anjuman ham uyushtirildi. Unda Turkiya va O‘zbekiston olimlari o‘z ilmiy ma’ruzalari bilan qatnashdilar.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida o‘zbek tomoni bilan hamkorlikda o‘tkazilgan qator tadbirlarda, shu jumladan, 2023-yil may oyida Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan ilmiy seminarda Alp Er To‘nga timsolini turizm brendiga aylantirish

hamda Buxoro shahrida unga bag‘ishlangan bitigtosh o‘rnatish boyicha takliflar aytilgan edi.

Ilmiy ma’ruzalar Alp Er Tonga haqida yozma manbalarda keltirilgan tarixiy xabarlar va ularning talqini, o‘sha davrlarga tegishli arxeologik topilmalar, ulug‘ xoqon bilan bog‘liq xalq og‘zaki materiallariga yondashuv masalalariga bag‘ishlandi.

Olimlar o‘z ma’ruzalarida Alp Er Tonga otini mangulashtirish, uning bilan bog‘liq yerlarni ziyorat turizmi tizimiga kiritish masalasini ham ilgari surdilar. Xususan, Buxorodagi Hazrati Imom qabristoni yonida uning bilan bog‘liq tepalik saqlangani, Narshahiy kitobida uning qabri ana shu yerda ekani yozilganiga tayanib, shu qutlug‘ tuproqqa bitigtosh o‘rnatish taklifi o‘rtaga tashlandi. Olimlarimizdan bir guruhi qabrtosh matnini ham tuzib chiqdilar.

Anjumanda Alp Er Tonga faoliyatini unga bag‘ishlangan bitigtoshda aks ettirish, u qurgan davlat xaritasini yaratish maqsadida yozma manbalarga asoslangan holda tarixiy ma’lumotlarni Turkiy davlatlar tashkiloti kotibiyati va Buxoro viloyat hokimiyatiga taqdim etishga kilishib olindi.

Turkologiya jurnalining ushbu sonida anjumandagi ilmiy ma’ruzalar matni jamlandi.

ALP ER TO‘NGA – TURON DAVLATCHILIGI ASOSCHISI

Mirvohid Azimov
Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi o‘rinbosari



Siz azizlar bilan qadimiy va navqiron Buxoro shahrida “Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi”ga bag‘ishlangan muhim tadbirning ishtirokchisi bo‘lib turganimiz be’jiz emas.

Ma’lumki, 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Turkiy davlatlar tashkilotining Turkiston Sammitida “Tabarruk ziyorat” turistik loyihasini amalga oshirish tashabbusi ilgari surilgan edi.

Shundan keyin, Tashkilotning 2022-2023-yillarda Samarqand va Ostona shaharlarida o‘tkazilgan Sammitlarida Prezidentimizning ushbu tashabbusi boshqa turkiy davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi hamda davlat rahbarlari tomonidan uni yanada rivojlantirish va keng targ‘ib qilish bo‘yicha qator topshiriqlar berildi. Mazkur loyihadan asosiy maqsad umumiy tariximizni, madaniy merosimizni o‘rganish, dunyoga tarannum etish va uni kelgusi avlodlarga etkazish bilan bir qatorda, bu loyihadan turistik maqsadlar yo‘lida foydalangan holda davlatlar o‘rtasidagi sayyohlar oqimini ko‘paytirish vazifasi ham yotadi.

Shuningdek, biz o‘tgan yili may oyida Samarqand shahrida Turkiy davlatlar tashkiloti va Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bilan hamkorlikda Alp Er To‘nga (Afrosiyob) siymosiga bag‘ishlangan seminar o‘tkazgan edik. Barchamizga tarixdan yaxshi ma’lumki, turkiy xalqlar va Turon davlatchiligiga, ayni paytda o‘zbek xalqi va O‘zbekiston davlatchiligi poydevoriga asos solgan buyuk davlat arbobi va mohir sarkarda Alp Er To‘nga siymosiga murojaat qilish tabiiy hol hamda tarixiy va ilmiy zaruriyatdir. Alp Er To‘nga nafaqat Turon tarixidan, balki O‘zbekistonning eng yangi tarixidan ham o‘zining munosib o‘rnini egallashga haqli siymo hisoblanadi.

Shu maqsadda, bugungi tadbir davomida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va turkiy davlatlardan tashrif buyurgan tarixchi olimlar va turistik kompaniyalar vakillari ishtirokida Alp Er To‘nga to‘g‘risida alohida panel sessiyasini tashkil etdik. Ushbu panel sessiyaning yakunlari bo‘yicha barcha ishtirokchilar Alp Er To‘nga siymosini abadiylashtirish, turkiy xalqlar orasida keng tanitish va undan turistik brend sifatida foydalanish taklifini bir ovozdan ma’qullashdi.

Mazkur taklifni hayotga tatbiq etish bo‘yicha ishtirokchilar tomonidan Alp Er To‘nga xotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik toshini Buxorodagi Hazrati Imom majmuasida o‘rnatish yuzasidan ilmiy asoslangan fikrlarning bayon qilinganligi va yodgorlikka yoziladigan bitikning tayorlanganligi muhim tarixiy voqeadir.

ESKI TURKIY KITOBLARDA ALP ER TO‘NGA TO‘G‘RISIDA KELTIRILGAN XABARLAR VA ULARNING TALQINI

Qosimjon Sodiqov
Professor, filologiya fanlari doktori, TDSHU

Qisqa mazmuni: *Alp Er To‘nga (Alp Er Toŋa = Afrāsiyāb) Turonning tarixda dovrug‘ qozongan xoqonlaridan biri edi. Uning haqidagi tarixiy xabarlar ancha qorong‘ulashib, ayrim qarashlarga ko‘ra, u hatto afsonaviy qahramonga aylanib ketgan. Shunga qaramay, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy singari ulug‘ ijodkorlar o‘z asarlarida uning haqida muhim habarlarni yozib qoldirganlar. Ushbu xabarlar ulug‘ pahlavon va yurt egasining hayoti, uning xalq farovonligi, mamlakat ravnaqi yo‘lida qilgan ishlari haqidagi bilimlarimizni boyitishga, fandagi chigal fikrlarni izga solishga xizmat qiladi. Ushbu maqola ana shu masalalar yechimiga bag‘ishlangan.*

Tayanch so‘zlar va birikmalar: *turkiy yozma manbalar, turkiy xalqlar tarixi, tarix kitoblari; xalq dostoni, marsiya, turkiy she’riyat ildizlari.*

Краткое содержание: *Алп Эр Тонга (Alp Er Toŋa = Afrāsiyāb) был одним из известных каганов древнего Турана. Исторические сведения о нем стали гораздо размыто, а по некоторым взглядам, он даже стал легендарным героем. Тем не менее, такие великие ученые, как Юсуф Хас Хаджиб, Махмуд Кошгари, Алишер Навои, написали о нем важные сведения в своих произведениях. Эти данные служат обогащению наших знаний о жизни великого полководца и правителя, о его деятельности на благополучия своего народа, развитии страны, а также дают возможность уточнить размытые информации о нем в науке. Данная статья посвящена решению этих вопросов.*

Ключевые слова и словосочетания: *тюркские письменные источники, история тюркских народов, книги по истории; народный эпос, панихида, корни тюркской поэзии.*

Summary: *Alp Er Tonga (Alp Er Toŋa = Afrāsiyāb) was one of Turan's most famous khagans. Historical information about him have become much darker, and according to some views, he has even become a legendary hero. Nevertheless, great artists such as Yusuf Khos Hajib, Mahmud Koshgari, Alisher Navoi wrote down important messages about him in their works. These messages serve to enrich our knowledge about the life and activities of the great wrestler and the owner of the country, and to trace complex thoughts in science. This article is devoted to the solution of these issues.*

Keywords and phrases: *Turkic written sources, history of the Turkic peoples, history books; folk epic, requiem, poetology.*

Kirish

Alp Er To‘nga (*Alp Er Toŋa ~ Toŋa Alp Er ~ Toγa Alp Er = Afrāsiyāb*) ko‘hna Turonning ilk ulug‘ xoqoni, turkiy dunyoning milliy va tarixiy qahramoni, dovyurak alplaridan edi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» masnaviysida uning oti ikki xil: asarning arab yozuvli Namangan nusxasida *Toγa Alp Er* (QBN.17a,9), uyg‘ur yozuvli Hirot nusxasida esa *Toŋa Alp Er* shaklida kelgan (QBH.10a,28).

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining «Devonu lig‘ati-t-turk» asarida uni *Alp Er Toŋa* (ТСД.56) hamda *Toŋa Alp Er* deb atagan (ТСД.597; 714). Muhimi shundaki, asar davomida keltirilgan u bilan bog‘liq arab tilidagi izoh va ma’lumotlarda esa uni *Afrāsiyāb* degan.

Yusuf Xos Hojibning yozishicha, turklarning o‘tmishda o‘tgan ulug‘ xoqoni *Toγa Alp Er* ni forslar [ya’ni *täžiklär*] *Afrāsiyāb* deganlar (QBN.17a,11).

Shu o‘rinda qiziq bir dalilda e’tibor qarataylik. Mahmud Koshg‘ariyga ko‘ra: *täžik* (تژک) – «forsiy» (الفارسی); ikki jag‘ orasida talaffuz qilinadigan *zā* bilan aytilgan (ТСД.249).

«Qutadg‘u bilig»ning she’riy muqaddimasida *täžikčä* so‘zi «forscha» anglamida keladi: *’arabča, täžikčä kitāblar öküš* – «arabcha, forscha kitoblar ko‘p» (QBQ.4a,13).

Qizig‘i shundaki, Qur’oni karimning eski turkiy tildagi o‘girmasida «arab tili»ni *tāzîča* deyilgan. «Yusuf alayhi-s-salom» surasining turkiy o‘girmasida shunday keladi: *Biz indürdimiz Oqïγu<ni> tāzîča; bolγay-kim, silär uqqay-silär* (Ok.12/2). – «Biz sizlar (to‘g‘ri) uqishlaringiz uchun O‘qig‘uni [ya’ni Qur’onni] arabchada indirdik» (ushbu oyatning arabchasi shunday: إِنَّا أَنزَلْنَاهُ قُرْآنًا عَرَبِيًّا لَّعَلَّكُمْ تَعْقِلُونَ).

Yoki «Zumar» surasining eski turkiy o‘girmasida: *Oqïγü Qur’ān tāzîča egriliksiz; bolγay-kim, anlar saqlanγaylar* (Ok.39/28). – «(Biz uni) egriliksiz arabcha O‘qig‘u – Qur’on holida (indirdik). Shoyad ular saqlansalar».

Toŋa Alp er to‘g‘risidagi xabarlarda davom etamiz. Mahmud Koshg‘ariy o‘z kitobida *Qaz* otli malika haqida so‘zlar ekan, «*Qaz* ning otasi *Toŋa Alp Er* – *Afrāsiyāb* dir», deb yozadi (ТСД.597).

Alp Er Toŋa ~ Toŋa Alp er otining kelib chiqishi va lug‘aviy ma’nosini Mahmud Koshg‘ariy juda yaxshi ochib bergan. U *toŋa* so‘zining ma’nosini ochiqlar ekan, yozadi: *toŋa* – yo‘lbars jinsidan bo‘lgan bir turli hayvon. U filning kushandasidir. Bu so‘zning asosiy ma’nosi shudir. Lekin bu s‘oz turklarda ma’nosi o‘zgargan holda qo‘llanadi. Bu so‘z ko‘pincha kishilarga laqab o‘rnida ishlatiladi. Chunonchi, *Toŋaxan, Toŋa tigin* va shuning kabilar. Turklarning ulug‘ xoni *Afrāsiyāb* ni *Toŋa Alp Er* deb atar edilar; «yo‘lbars singari kuchli bahodir kishi» demakdir (ТСД.714).

«Qutadg‘u bilig»da *toŋa* so‘zi «bahodir, pahlavon» ma’nosida ham keladi:

Qačan söz qatar ersä beglär seŋä,
Uzatma sözüŋnï, ey ersig toŋa.

«Beglar sendan qachon so‘z so‘raydigan bo‘lsa,
So‘zingni cho‘zma, ey javonmard bahodir» (QBQ.126a,8).

Alp Er To‘nga yurtga egaligi chog‘ida el erki, tinchligi, uning yuksalishi yo‘lida ezgu ishlarni yuzaga chiqardi; u uzun yillar buyuk va qudratli davlatni tutib turdi. Yurtni qanday boshqarish kerakligi, qutlug‘ yer-suv, ona ulusni yovlar bosqinidan asrash yo‘llarini bilgalariga, alp erlarga o‘rgatdi. Uning yetakchiligida bobolarimiz shu tuproqlarda o‘zining kuchli va yeri keng davlatiga ega bo‘ldi.

Uning ezgu ishlari, janglarda ko‘rsatgan yovqirliqlari ming yillar osha kelgusi avlodlar, u tuzgan yurtning o‘g‘il-qizlari uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qildi. Turkiy ulusning yengilmas alpi va yetakchisi haqidagi yaxshi xotiralari xalq doston va qo‘shiqlarida saqlanib qolgan. Shuningdek, o‘tmishda o‘tgan ulug‘ allomalarning asarlarida Alp Er To‘nganing Turon davlatini qurish yo‘lidagi buyuk qahramonliklari, elni boshqarish bilan bog‘liq to‘ru-tuzuklari hurmat bilan tilga olingan.

Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig» muqaddimasidagi ezgu kishilarga aralashishning ezguliklari («*Eδgülärkä qatïlmaq eδgüsin ayur*») bobida ulug‘ hukmdorlarning tarixda qilgan yaxshi ishlari to‘g‘risida so‘z yuritib, *Toγa Alp Er,* ya’ni *Afrāsiyāb* ni tilga oladi. Uning o‘tmishda o‘tgan turk xoqonlarining eng sarasi ekani, oti va qudrati, bilimi va hunari bilan dovrug‘ qozonganini ta’kidlaydi. Elni tutish uchun kishi ana shunday jasur, bilimli va qobiliyatli bo‘lmog‘i kerakligini o‘z zamonining beglariga ibrat qilib ko‘rsatadi (QBN.17a,8–13).


Alp Er To‘nga xoqon unvonining tarixiy-lingvistik transformatsiyasi

Alp Er Toŋa darajasiga ko‘ra xoqondir. Mahmud Koshg‘ariy *xan* so‘zining ma’nosini ochiqlar ekan, yozadi: *xan* (خان) – turklarning eng katta boshliqlari. *Afrāsiyāb* ning bolalari ham *xan* deb yuritilar edi; *Afrāsiyāb – xaqan* (خاقان) dir (ТСД.601).

Ikkinchi turk xoqonlig‘i davrida yaratilgan Kul tigin va Bilga xoqon bitiglarining muallifi tarixchi va yozuvchi Yo‘llug‘ tigin esa-da, matnlarning yirik bo‘lagi Bilga xoqon tilidan bitilgan. Ikkala bitig xoqonning quyidagi so‘zlari bilan boshlanadi:

Teŋri-teg teŋridä bulmïš türk Bilgä qaγan bu ödkä olurtïm (Ka.1; Xb.1).

Bu jumla bitigdagi xoqon so‘zining boshlamasi bo‘lib, unda hukmdorning oti unvonlari bilan berilgan.

Shu choqqacha turkologiyada ushbu boshlamadagi  ni *bolmïš* deb o‘qib, turk hukmdorini «Tangridan bo‘lgan Bilga xoqon» deya anglar edilar.

Bunday o‘qilsa, Bilga xoqon Tangrining o‘g‘li bo‘lib chiqadi. Bu fikrga qo‘shilmayman.

Muhimi shundaki, Kul tigin va Bilga xoqon ulug‘ bitiglari shunday jumlalar bilan boshlanadi:

Üzä kök teŋri, asra yaγïz yer qïlïntuqda, ekin ara kisi oγlï qïlïnmïs. Kisi oγlïnta üzä ečüm-apam Bumïn qaγan, İstämi qaγan olurmïš. Olurupan, türk bodunuŋ elin-tör[ü]sin tuta birmis, iti bermis. – «Uzra ko‘k osmon, ostda qo‘ng‘ir yer yaratilganda, ikkisining orasida kishi o‘g‘illari yaratilgan. Kishi o‘g‘illari ustidan ota-bobom Bumin xoqon, Istami xoqon bo‘lib (taxtga) o‘ltirgan. (Taxtda) turib turk xalqining elini-hukumatini tutib turganlar, tartibga keltirganlar» (K.1; X.2–3).

E’tibor qilinsa, bu jumlalarda Bumin va Istami xoqonlar Tangridan bo‘lgan deb ta’riflanayotgani yo‘q. Uzra ko‘k osmon, ostda qo‘ng‘ir yer yaratilganda, ularning o‘rtasida inson yaratilgan, kishilar ustidan (Tangrining inoyati bilan) Bumin va Istami taxtga o‘ltirganlari urg‘ulanmoqda. Bu fikr «osmon o‘g‘li» tushunchasiga teskaridir.

Ikkinchidan, Bilga xoqon ulug‘ bitigi, Kul tigin bitigidan farqli o‘laroq, xoqonning quyidagi unvoni bilan ochiladi: *Teŋri-teg Teŋri yaratmïš türk Bilgä [qaγan sabïm]* (X.1).

Bu unvon bitigning yakuniy bo‘limida ham qaytalaydi. Biroq, ikkinchisi xoqonning o‘g‘liga tegishli. Xoqon o‘g‘li otasining o‘limidan keyin, yorliq bitib bitigga kiritgan; qizig‘i shundaki, u o‘z yorlig‘ini ham otasining unvoni bilan boshlagan. Uning o‘qilishi ham yuqoridagiday: *Teŋri-teg Teŋri yar[at]mïš türk Bilgä [qaγan] sabïm* (Xa.13).

Ko‘rinadiki, bu unvonda hukmdor o‘zini *Teŋri-teg Teŋri yaratmïš türk Bilgä [qaγan]* («Buyuk Tangri yaratgan jasur Bilga xoqon») atamoqda.

Yana bir kerakli misol. Uyg‘ur xoqonlig‘i davriga tegishli 1- Qorabalg‘asun bitigida ko‘k turk harflari bilan dona-dona qilib, besh qatorli turkiy matn bitilgan. Unda shunday jumla yozilgan: *[B]u teŋrikän, teŋridä q[u]t bulmuš Al[p] Bilgä teŋ[r]i uyγur q[aγan]* … (MTA.214–218).

Anglami shunday bo‘ladi: «Bu xudojo‘y, tangridan qut topgan [tangrining inoyatiga erishgan] Alp Bilga qudrarli uyg‘ur xoqoni... ».

Shularga ko‘ra, yuqorida keltirilgan boshlamadagi *bolmiš* so‘zini boshqaca o‘qishga to‘g‘ri keladi. Agar bu so‘zdagi ⟩ harfini [*u*] deb o‘qisak, *bulmiš* bo‘ladi: *Teŋrida bulmïš* – «Tangridan inoyat topgan / Tangrining inoyatiga erishgan» degan ma’noni beradi (*bu fikrlar bo‘yicha qarang:* Содиков 2004,66–72).

Yana boshlamadagi *türk* so‘zi «ulus, halq» degani emas, u xoqonning sifati bo‘lib, «jasur, kuchli» anglamidadir

«Ko‘kdek ulug‘ [ya’ni buyuk] Tangridan inoyat topgan [Tangrining inoyatiga erishgan / Tangrining inoyati bilan] jasur Bilga xoqon bu taxtga o‘ltirdim».

Shunday qilib, *Teŋri-teg teŋridä bulmïš* unvoni o‘tmishda xoqonlarning ta’rifi keltirilganda qo‘shib aytiladigan yuksak unvonlardan edi. Bu an’ana uyg‘ur xoqonlig‘i davrida ham aks etdi.

Jumladan, uyg‘ur xoqoni Mo‘yun-cho‘r xotirasiga tiklangan bitigda xoqonning unvoni: *Teŋridä bulmïš, el etmiš Bilgä qaγan* («Tangrining inoyatiga erishgan, elni tiklagan / el qurgan Bilga xoqon») deb atalgan (MCh.1).

Uyg‘ur xoqonining zafarli ishlari va yovqirlig‘i Tariat yodgorligida ham aks etgan. Unda xoqon o‘zi va xotini ulug‘ martabalarga erishib, katta ishlarga bosh bo‘lgani haqida shunday deydi: *Teŋridä bulmïš, el etmiš Bilgä qaγan; El Bilgä qatun, qaγan atïγ, qatun atïγ atanïp, Ötükän kedin učïnta, Tez bašïnta örgin ... anta yaratïtdïm* (TarC.1).

Ma’nosi: «Tangrining inoyatiga yetishgan, el tuzgan / el qurgan Bilga xoqon; El Bilga xotun, xoqon otini olib, xotun atanib, O‘tukan g‘arbida, Tez (o‘zani) boshida (hukmdorlik) o‘tovini [ya’ni o‘rdasini] … o‘sha yerda qurdirdim».

Muhimi shundaki, ko‘kturk xoqonlari ham, uyg‘ur xoqonlari ham, qolaversa, keyingi davrdagi ulug‘ davlatlarning egalari o‘zlarini Alp Er To‘nganing vorislari, davomchilari deb bilganlar; yengilmas alp ularning idealiga aylangan. Yurt egalari doim Alp Er To‘ngaday qudratli va jasur bo‘lishga intilib yashaganlar.

Ikkinchi ko‘k turk xoqonlaridan biri Bilga xoqonning rasmiy unvonida kechgan *Teŋri-teg teŋridä bulmïš türk*, uyg‘ur xoqoni Moyun-cho‘r unvonidagi *Teŋridä bulmïš, el etmiš,* 1- Qorabalg‘asun bitigidagi *teŋridä q[u]t bulmuš* singari jumlalar Ikkinchi ko‘k turk yoki Uyg‘ur xoqonlig‘i davrida o‘ylab topilgan emas. Ushbu rasmiy unvonlar turk xoqonliqlari tarixiy diplomatikasida uzoq an’analarga ega. Buning tarixiy ildizlarini ko‘hna Turon davri, xususan, Alp Er To‘nga davriga bog‘lansa, to‘g‘ri bo‘ladi.

Demak, Turon hukmdorning oti unvonlari bilan birga shunday ataladi:

Täŋridä bulmïš, el etmish Alp Er Toŋa uluγ qaγan.

Ko‘k turkcha harflarda yozilishi:



Bu unvonning ma’nosi: **«Tangrining inoyatiga erishgan, el tuzgan / el qurgan Alp Er To‘nga ulug‘ xoqon»** deganidir.

«Alp Er To‘nga» dostonining uzundilari

Alp Er To‘nga haqida turkiy og‘zaki adabiyot tarixida qo‘shiqlar aytilgan, unga bag‘ishlab doston to‘qilgan. Turkiy xalq og‘zaki ijodining eng ko‘hna dostonlaridan biri ham ana shu xalq qahramoniga bag‘ishlangan. Biroq, bu doston to‘liq holda saqlangan emas, undan ayrim uzindilar qolgan, xolos. Bu ham bo‘lsa, ulug‘ tilshunos, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg‘ariy tufayli kunimizgacha yetib keldi.

Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘ati-t-turk» asarida «alp, qahramon» anglamidagi *alp* so‘zini izohlar ekan, Alp Er To‘nganing o‘limiga bag‘ishlab aytilgan bir to‘rtlikni keltiradi; ma’nosiga ko‘ra uni yirik bir marsiyaning uzindisi deyish mumkin. Uning keltirgan to‘rtligi shunday:

Alp Er Toŋa öldimü?	7=2+2+3
Esiz, ažun qaldïmu?	7=2+2+3
Öδläk öčin aldïmu?	7=2+2+3
Emdi yüräk yïrtïlur	7=2+2+3

Ma’nosi: «Xoqon *Afrāsiyāb* [=*Alp Er Toŋa*] o‘ldimi? Esiz, dunyo (undan ayrilib) qoldimi? Falak undan o‘chini oldimi? Endi yuraklar (uni eslab) chok bo‘lmoqda» (ТСД.56).

Keltirilgan to‘rtlik qanday marsiyaning uzindisi ekanligi bilan ko‘pchilik olimlar qiziqqan. Buning yechimini topishga unnaganlardan biri Abdurauf Fitrat bo‘ldi. U o‘zining «Eng eski turk adabiyoti namunalari» asarida «Devonu lug‘ati-t-turk»dagi she’riy uzindilarni turkumlashtirib, har biriga ot qo‘yib chiqdi. Shulardan birinchisini «Alp Er To‘nga marsiyasi» deb atab, unga kitob bo‘ylab sochilib yotgan o‘nta se’riy uzundini kiritdi (*qarang:* Фитрат 2008,14–20).

Fitrat tiklagan marsiyaning ilk bandi yuqorida keltirilgan to‘rtlikdir.

«Alp Er To‘nga marsiyasi»ga taalluqli deb keltirilgan to‘rtinchi to‘rtlik shunday:

Ögräyüki mundaγ-oq,	7=4+3
Munda aδïn tïldaγ-oq,	7=2+2+3
Atsa ažun oγrap oq,	7=2+2+2+1
Taγlar bašï kertilür.	7=2+2+3

Aytmoqdaki: «Zamonaning o‘rgangan odati shunday, bundan boshqa halokatlari ham bor. Agar dunyo chog‘lanib o‘q otsa bormi, tog‘larning boshi (ham) kertiladi [parcha-parcha bo‘lib ketadi]» (ТСД.128).

«Alp Er To‘nga marsiyasi»ga nisbat berilgan sakkizinchi to‘rtlik esa shunday:

Ulïšïp erän börläyü,	8=3+2+3
Yïrtïn yaqa urlayu.	7=2+2+3
Sïqrïp üni yurlayu,	7=2+2+3
Sïγtap közi örtülür.	7=2+2+3

Aytmoqdaki: «*Afrāsiyāb* ning o‘limiga achinib, kishilar bo‘rilardek uvlashdi, yoqa yirtib baqirishdi. Cholg‘u tovushi singari ovozlarda nola qilishdi, siqtayverib (ko‘z yoshidan) ularning ko‘zi qoplandi» (ТСД.144–145).

Fitratning fikrida jon bor, ushbu marsiyaga tegishli deb chamalanayotgan to‘rtliklar mazmunan ham o‘zaro yaqin bo‘lib, ularni bir-biriga bog‘lasa bo‘ladi.

Ikkinchidan, har qaysi to‘rtlikning oxirgi satri o‘zaro qofiyadosh bo‘lib keladi: ... *yïrtïlur, ... kertilür, ... örtülür* singari.

Yana bir jihati, she’rlarning arabcha talqinlarida bu yerda so‘z *Afrāsiyāb* to‘g‘risida borayotgani urg‘ulangan.

Chamasi, ushbu marsiya Alp Er To‘ngaga bag‘ishlangan halq eposidan olingan ko‘rinadi. Mahmud Koshg‘ariy ushbu marsiyani kishilar og‘zidan yozib olgan. Devonda keltirilgan so‘zlar ma’nosini ochiqlash uchun uning to‘rtliklaridan foydalangan.

Muhimi shundaki, «Devonu lug‘ati-t-turk»da Afrosiyob bilan bog‘lab keltirilgan she’riy uzindilarning hammasi faqat muayyan marsiyadangina olingan emas. Ular orasida zamonning vavosizligi, qahramonlik, jang manzaralariga bag‘ishlangan sherlar ham bor. Bular ham ushbu to‘rtliklar bir marsiyadan emas, yirik dostondan olinayotganini dalillaydi. Buni bir qancha o‘rnaklarda ko‘rib chiqaylik.

Devonda «zamon, vaqt» anglamidagi *öδläk* so‘zining badiiy matnda ishlatilishiga o‘rnak qilib, shunday to‘rtlik keltirilgan:

Öδläk qamuγ küwrädi,
Erdäm arïγ sewrädi.
Yunčïγ yawuz tawradï,
Erdäm begi čertilür.

Aytmoqdaki: «Zamon butunlay ozdi [айниди], ilm-hikmat, poklik kamaydi. Tuban, yovuzlar kuchaydi. Fazilatli beg *Afrāsiyāb* o‘lgani uchun shunday bo‘ldi» (ТСД.92–93).

Bu to‘rtlik yana «notavon, zaif, holi xarob kishi» anglamidagi *yunčïγ er* so‘zining talqinida ham, biroz o‘zgargan ko‘rinishda keltirilgan. Mana uning o‘qilishi:

Öδläk arïγ kewrädi,
Yunčïγ yawuz tawradï.
Erdäm yemä sewrädi,
Ažun begi čertilür.

Aytmoqdaki: «Zamona ozdi, zaif, tuban kimsalar kuchaydi. Zamon ahli [ya’ni kishilar] *Afrāsiyāb* ning vafot etishi bilan fazilatdan mahrum bo‘ldilar» (ТСД.538–539).

Birinchi she’rning 1-qatoridagi *qamuγ* so‘zining o‘rnida ikkinchi variantida *arïγ* deyilgan.

Ikkinchi qator bilan uchinchi qator o‘rin almashgan. Yana so‘zlari ham farqli.

Birinchi sherning 4-qatoridagi *erdäm begi* o‘rnida keyingi variantda *ažun begi* deyilgan.

Aftidan, lug‘at tuzuvchi ushbu to‘rtlikning ikkala variantini ham yozib olib, o‘rni bilan, ikkalasidan ham foydalangan ko‘rinadi.

Endi boshqa bir she’r:

Beglär atïn arγurup,
Qaδγu anï turγurup.
Meŋzi yüzi sarγarïp,
Kürküm aŋar türtülür.

Afrāsiyāb ning o‘limiga achinib aytmoqda: «Beglar otlarini charchatib keldilar. Qayg‘u beglarni ozdirdi, yuzlari za’faron surtgandek sarg‘ayib ketdi» (ТСД.306).

Öδläk yaraγ küzätti,
Oγrï tuzaq uzuttï.
Beglär begin azïttï,
Qačsa qalï urtulur.

Aytmoqdaki: «Zamona fursat kutdi, beglar begini xo‘rlash uchun yashirin tuzoq qo‘ydi, undan beg qanday qilib qochib qutiladi? Bu yerda «beglar begi» deganda *Afrāsiyāb* nazarda tutiladi» (ТСД.445).

Öδläk küni tawratur,
Yalïŋuq küčin kewrätür.
Erdin ažun sewrätür,
Qačsa taqï ertilür.

Aytmoqdaki: «Zamona kuni aylanur, inson kuchini zaiflatur. U erdan, ya’ni *Afrāsiyāb* dan dunyoni bo‘shatishga shoshilayotir. U o‘limdan qochganni ham izlab topadi va u o‘ladi» (ТСД.501).

Men «Alp Er To‘nga» dostonidan olingan she’rlar deganda, ularning arabcha talqinlarida so‘z *Afrāsiyāb* to‘g‘risida borayotgani urg‘ulangan to‘rtliklarnigina keltirdim. «Devonu lug‘ati-t-turk»da keltirilgan qahramonlik mavzuidagi she’rlarning mazmuni, ular bir emas, bir qancha asardan olinganini ko‘rsatadi. Chamasi, Koshg‘ariy yiqqan materiallar orasida yana boshqa epik asarlar ham bo‘lgan, lug‘atchi ulardan ham o‘rnaklar keltirgan.

Alp Er To‘nga bilan bog‘liq tarixiy xabarlar

Alisher Navoiy o‘zining «Tarixi muluk-i Ajam» asarida Afrosiyobni burung‘i tabaqa peshdodiylar, ya’ni Ajamning eng burung‘i xoqonlari sirasida keltirgan. Uning to‘g‘risida: «*Afrāsiyāb* (افراسیاب) – A*nï baḍi deptürlär-kim, Pušaŋ binni Tur*

binni Faridūn oγlïdur. Va baḍi anïŋ nisbatïn Kayūmarsqa yetkärüpdürlär. Ammā burunγï durustraqdur», deb yozadi (TMA/KN.720a,11–12).

Navoiy Afrosiyobning Eron mulkiga qilgan bosqini, u yurtdagi buzg‘unliq ishlarini qoralaydi. Uning yurtni necha yil boshqarganiga to‘xtalib, *Afrāsiyāb pādšāhlïγï on ikki yïl erdi*, deb yozadi muallif (TMA/KN.720a,16).

Ora-orada *baḍi deptürlär-kim,* deya ta’kidlab turishiga qaraganda, Navoiy tarix kitoblaridan anchasini ko‘rgan.

Navoiy asar davomida Manuchehr, Navdar, Zob binni Tahmasp, Girshasp, shuningdek, ikkinchi tabaqa kayoniylardan bo‘lmish Kaykovus, uning o‘g‘li Siyovush, so‘ng Kayxisrav, Luhrasp tarixida ham Afrosiyobni ko‘p eslaydi. Navoiyning yozishicha, Kaykovus o‘g‘li Siyovush o‘gay onasi Sudobaning tuhmatidan qochib, Afrosiyob yurtiga bordi. Asardan o‘qiymiz: (*Siyāvuš*) *Turānγa Afrāsiyāb qašïγa bardï. Afrāsiyāb aŋa e’zāz-u ikrām qïlïp, qïzïn berip, Türkistān vilāyatïn berdi. Ammā Girsiyuznïŋ ḥasaddïn si’āyat qïlγanï bilä taḥqīq qïlmay, anï begunāh öltürdi* (TMA/KN.720b,24–26).

Mahmud Koshg‘ariy ham «Devonu lug‘ati-t-turk»da ora-ora Afrosiyob bilan bog‘liq shaharlar, tarixiy voqealardan keltirgan. Mahmud Koshg‘ariy keltirgan xabarlarga qunt bilan e’tibor qilinsa, Alp Er To‘nga davridagi Turon davlatining ilmiy xaritasini tiklash mumkin.

Masalan, *kend* so‘ziga izoh berar ekan, shunday yozadi: *kend* (~ *känd*) – «shahar». Bundan olinib, *Kāšγar* ni *Ordukend* – «xon turadigan shahar, markaz» ma’nosida qo‘llanadi. Chunki bu shaharning havosi yaxshi bo‘lgani uchun *Afrāsiyāb* shu yerda yashar edi. U quyi *Ṣīn* dir (ТСД.224).

Yoki *Barčuq* shahri va uning tarixi to‘g‘risida so‘zlaganda, uni Afrosiyob qurdirganini ta’kidlaydi. U shunday yozadi:

Barčuq (برجق) – *Afrāsiyāb* bino qilgan shahar. U *Buxta Naṣṣar* o‘g‘li *Bayzan* ni shu shaharga qamagan edi (ТСД.295).

Qadimgi turklarning *čaruq* toifasi haqida so‘z ketganda ham, ayni ma’lumot qaytariladi:

čaruq (جرق) – *Afrāsiyāb* shahrida turuvchi *barčuq* otli bir toifa turklar oti. *Bayzan ibn-Baxtu Naṣṣar* ni *Afrāsiyāb* shu shaharga qamagan edi (ТСД.245).

Eng muhimi, Mahmud Koshg‘ariy o‘z kitobida Afrosiyobning o‘g‘il-qizlari to‘g‘risida ham so‘z yuritgan:

qatun (قاتون) – *Afrāsiyāb* urug‘idan bo‘lgan qizlarning unvoni. Maqolda (shunday kelgan): *Xan išï bolsa, qatun išï qalïr.* – «Xonning ishi chiqsa, xotunning ishi qoldiriladi» (ТСД.262).

Yoki *tigin* so‘zining ma’nosi, qo‘llanish ko‘lami xususida so‘zlar ekan, Afrosiyobning o‘g‘illari ham shu unvon bilan atalganini urg‘ulaydi. U yozadi:

tigin (تكين) – aslida bu so‘z «qul» demakdir: *kümüš tigin* – «kumishday toza rangli qul» demakdir; *alp tigin* – «bahodir qul»; *qutluγ tigin* – «muborak qul». So‘ng bu so‘zni xoqoniya bolalarigagina moslab atadilar. Keyin bu so‘z birorta yirtqich qush oti bilan juft holda ishlatiladigan bo‘ldi: *čaγrï tigin* – «hujumda

lochindek qul»; *küč tigin* – «kuchli, quvvatli qul». So‘ng bu ot *Afrāsiyāb* bolalariga ham qo‘llana boshladi. *Afrāsiyāb* ning bolalari biror ish, voqea, xabarni aytganda yoki yozganda otlariga hurmat yuzasidan o‘zlarini kamsitib, «qulingiz falon qildi» deb, «qulingiz» o‘rnida *tigin* so‘zini ishlatar edilar. So‘ng bu s‘oz ularga ot bo‘lib qoldi. Boshqa qullardan ajratish uchun bu so‘zning yoniga yana bir narsa [ya’ni uning otini yoki laqabini ham] qo‘shib ishlatiladi (ТСД.265).

tigin so‘zi «oliy nasab; shahzodalarga beriladigan unvon» anglamida «Qutadg‘u bilig»da ham ishlatilgan:

Oγul-qïz törüsä seniŋ, ey tigin,
Ewiŋdä igiδgil, igiδmä öŋin.

«Sening o‘g‘il-qizing bunyodga kelsa, ey oliy nasab,
Uyingda tarbiyalagin, boshqa yerda tarbiyalama» (QBN.163a,12).

Koshg‘ariy *Qaz* otli malika to‘g‘risida so‘z yuritib, u Afrosiyobning qizi ekanini aytadi. Olimning yozishicha, *Qaz* ning eri *Sïyavuš* edi. Asarda uning o‘limi va xotirasi bilan bog‘liq qiziq xabarlar ham bor. Yana bir jihati, Mahmud Koshg‘ariy shu o‘rinda turk ellarining tarixiy chegaralari, turk shaharlari otlarining etimologiyasi haqida ham ma’lumot bergan. Bu ma’lumotlar tarixnavislik va til tarixi uchun ahamiyatlidir. U yozadi:

Qaz (قاز) – *Afrāsiyāb* qizining oti; *Qazvïn* shahrini u qurgan. Bu so‘zning asli *qaz oynï* – «g‘oz o‘ynaladigan joy» demakdir. Chunki u shu yerda turar va shu yerda o‘ynar edi. Shuning uchun ba’zi turklar *Qazvïn* ni turk shaharlaridan hisoblaganlar. Shuningdek, *Qum* shahri ham chegara hisoblanadi, chunki *qum* turkcha so‘zdir. *Afrāsiyāb* ning qizi bu yerda ov qilar va o‘ynar edi. Ba’zilar turk o‘lkalarining chegarasi *Marvaš-šāhijān* dan boshlanishini so‘zlaydilar. Chunki *Qaz* ning otasi *Toŋa Alp er – Afrāsiyāb* dir. U Tahmurasdan uch yuz yil keyin *Marv* ni bino qilgan.

Ba’zilar butun *Māvarāu-n-nahr* ni turk o‘lkalaridan deb hisoblaganlar. U *Yenkänd* dan boshlanadi. Uning yana bir oti *Dïzrutïn* dir. Ya’ni sariqligiga ko‘ra, «Mis shahri» deyishgan. Bu *Buxārā* ga yaqindir. Bu yerda *Afrāsiyāb* ning qizi – *Qaz* ning eri *Sïyavuš* o‘ldirilgan. Ma’jusiy-otashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib, *Sïyavuš* bo‘lgan joy tevaragida yig‘laydilar. Mollar so‘yib, qurbonlik qiladilar. So‘yilgan mol qonini uning mozori tepasiga to‘kadilar. Ularning odati shunday. Butun *Māvarāu-n-nahr, Yenkänd* dan Sharqqacha bo‘lgan o‘lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, *Samarqand* aslida *Semizkänd, Taškänd,* bu – *Šaš* dir, *Özkänd, Tunkänd* otlarining hammasi turkchadir; *känd* turkcha «shahar» demakdir. Ular bu shaharlarni qurishgan va shunday otlar bilan atashgan. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko‘paygach, so‘ng ular Ajam shaharlari kabi bo‘lgan. Hozir turk o‘lkalarining chegarasi *Äbisgün* dengizi bilan o‘ralgan. *Rūm* o‘lkasidan va *Özjänd* dan *Ṣīn* gacha

cho‘ziladi. Uzunligi besh ming farsax, eni uch ming farsax, hammasi sakkiz ming farsaxdir (ТСД.596–597).

Devonda bitilishicha, *Qaz suwï* ning oti ham Afrosiyob qizining otiga bog‘lanadi:

Qaz suwï (قاز سڤی) – *Ïla* daryosiga quyiladigan katta bir suvning oti. Shunday atalishining sababi *Afrāsiyāb* ning qizi uning qirg‘og‘iga bir shahar qurishi va bu ot unga nisbat berilishi bilan bog‘liq (ТСД.597).

«Devonu lug‘ati-t-turk»da Afrosiyobning ikki o‘g‘li – *Barman* va *Barsγan* ham tilga olingan: ular o‘zlari qurdirgan shaharlarning otlari bahonasida eslab o‘tiladi.

Yuŋu (ینکو) – *Barman* shaharchasiga oqadigan katta bir daryoning oti. Bu daryo bo‘yiga *Afrāsiyāb* ning *Barman* degan o‘g‘li shahar qurgan edi. Shahar ham unga nisbat berilib, uning oti bilan atalgan (ТСД.715).

Barsγan (برسغان) – *Afrāsiyāb* o‘g‘lining oti. *Barsγan* shahrini u bino qilgan. *Maḥmūd* ning otasi shu shahardandir (ТСД.744).

Bu yerda urg‘ulanishicha, Mahmud Koshg‘ariyning otasi *Barsγan* da tug‘ilgan edi.

Tuganchi

Alp Er To‘nga ko‘hna Turonning dovrug‘ qozongan ulug‘ xoqoni, yengilmas alplaridan biri edi. Turkiy davlatchilik tarixida uning xizmati o‘ta buyuk. Uning bilan bog‘liq tarix sahifalari ancha qorong‘ulashib ketgan. Ayrim tadqiqotchilar uni afsonaviy qahramon deb biladilar. Shunday esa-da, uning tarixda aniq yashab o‘tgani, ulug‘ ishlari, hayoti to‘g‘risida xabar beruvchi tarixiy va ilmiy kitoblar ham bor. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy singari olim va ijodkorlar o‘z asarlarida Alp Er To‘nga (*Afrāsiyāb*) haqida muhim xabarlarni yozib qoldirganlar. Ularning yozishicha, Alp Er To‘nga turklarning tarixda o‘tgan ulug‘ xoqoni, mashhur alplaridan edi.

Qadimgi turk xalq og‘zaki adabiyotida Alp Er To‘nga ideal xoqon sifatida ulug‘lanib, unga atab doston va qo‘shiqlar ham to‘qilgan. Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘ati-t-turk»da keltirgan she’riy uzindilarning ayrimlari ana shu xalq eposiga tegishli. «Alp Er To‘nga» dostoni turkiy og‘zaki adabiyotning eng eski, qadimgi turkiy dunyoda keng yoyilgan asar edi.

Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy singari olim va ijodkorlar o‘z asarlarida Alp Er To‘nga to‘g‘risida xabarlar keltirgani keyingi turkiy sulolalar, ayniqsa, Qoraxoniylar davlatida tarixiy qahramonga hurmat va e’tibor kuchli ekanidan dalolat qiladi. «Devonu lug‘ati-t-turk»dagi uning bilan bog‘liq she’riy uzindilar bu davr xalq og‘zaki ijodida «Alp Er To‘nga» dostoni dovrug‘ qozonganini ko‘rsatadi.

Ilmiy va tarixiy kitoblarda keltirilgan xabarlar ham ahamiyatli. Bularning bari Alp Er To‘nganing tarixi, uning bilan bog‘liq bilimlarimizni boyitish, ayrim chigal fikrlarni yechish, izga solishga va kerakli voqealarni o‘rganishga imkon beradi. Yanada muhimi, ushbu bilimlar turkiy, xususan, o‘zbek davlatchiligi tarixiy ildizlarini ancha nariga olib boradi.

Havola qilinayotgan yozma manbalar:

K – Kul tigin bitigi: *Ka* – kichig bitig; *K, Kb* – ulug‘ bitig; *K.I–III, Kc* – toshning taroshlangan qirralari va ters tarafidagi yozuv. Nashri: Содиқов 2004,96–112.

MCh. – Mo‘yun-cho‘r bitigi: Малов 1959,30–44; Mert 2009,195–266.

MTA – Moğolistandaki Türk Anıtları Projesi Albümü. Hazırlayanlar: O.F. Sertkaya, C. Alyılmaz, T. Battulga. – Ankara, 2001.

Tar. – Tariat bitigi: Mert 2009,139–194.

ТСД – Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони [Dīvānu luğāti-t-türk]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Истанбул, 2021.

TMA/KN – «Tarixi muluk-i ajam»: Istanbul To‘pqopi Saroyi Muzeyi kutubxonasi, Revan 808-ko‘rsatkichli Navoiy kulliyotida. – Külliyât-ı Nevāyî (İnceleme – Tıpkıbasım). Hazırlayan Günay Kut. – İstanbul, 2020 (718b–733b).

Ok – Okıgu. En Eski Kur’an Çevirisi. I. Giriş - Metin - Dizin. Hazırlayan Ekrem Ural. – İstanbul: Kutlu Yayınevi, 2023.

QB – Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari: *H* – Vena (Hirot) nusxasi: Wien, ÖNB, Cod. A.F.13: *Радлов В.В.* Кутадку-Билик. Факсимиле уйгурской рукописи. – СПб., 1890; *Yusuf Has Hacib.* Kutadgu Bilig. A. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; *N* – Namangan (Farg‘ona) nusxasi: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondidagi 1809 ko‘rsatkichli qo‘lyozma. *Yusuf Has Hacib.* Kutadgu Bilig. B. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; *Q* – Qohira nusxasi: Misr Milliy kutubxonasi, 168-ko‘rsatkichli qo‘lyozma: *Yusuf Has Hacib.* Kutadgu Bilig. C. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015.

X – Bilga xoqon bitigi: *X* – toshning yuz tarafidagi yozuv; *Xa, Xb* – ikki yonboshidagi yozuv; *Xc* – toshning ters tarafidagi yozuv; *X.I–II* – taroshlangan qirralaridagi yozuv. Nashri: Содиқов 2004,112–120.

Ilmiy asarlar:

Малов 1959 – Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии. – М. –Л., 1959.

Mert 2009 – Osman Mert. Ötüken Uygur Dönemi Yazıtlarından Tes – Tariat – Şine Us. – Ankara, 2009.

Фитрат 2008 – Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари (Адабиётимизнинг тарихи учун материаллар). Нашрга тайёрловчи О. Ҳамроева. – Тошкент, 2008.

Содиқов 2004 – Содиқов Қ. Кўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини. – Тошкент, 2004.

Sodiqov 2022 – Sodiqov Q. O‘zbek mumtoz adabiyoti (Qadimgi turkiy adabiyot). – Toshkent, 2022.

ALP ER TO‘NGA OBRAZINING ARXAIK QATLAMLARI HAQIDA

Boqijon To‘xliyev
Professor, filologiya fanlari doktori, TDSHU

Annotatsiya. *Maqolada Alp Er To‘nga obrazining qadimiy turkiy yozma adabiyoti namunalarida aks etishi, bunda Mahmud Qoshg‘ariy va Yusuf Xos Hojib singari buyuk allomalarning munosib hissasi haqida gap boradi. Ayniqsa, buyuk tarixiy shaxs nutqiga xos bo‘lgan hikmatli so‘zlar – aforizmlarning matn tarkibidagi ishtiroki tasodifiy bo‘lmagani isbotlab berilgan.*

Tayanch so’zlar: *Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, “Qutadg’u bilig”, “Devonu lug’ot it-turk”, maqol, aforizm.*

Аннотация. *В статье речь идет об образе Альп Эр Тунга в образцах древнетюркской письменной литературы, о доле Махмуда Кашгари и Юсуфа Хас Хаджиба. В частности, было доказано, что появление в тексте мудрых слов и афоризмов, характерных для речи крупных исторических личностей, не могло быть случайностью.*

Ключевые слова: *Юсуф Хас Хаджиб, Махмуд Кашгари, “Кутадғу билиг”, “Дивану лугат ит-турк”, пословица, афоризм.*

Abstract. *The article discusses the depiction of Alp Er Tonga in ancient Turkic literary works and highlights the significant contributions of great scholars like Mahmud Kashgari and Yusuf Khos Hajib. It is particularly emphasized that the presence of wise sayings and aphorisms characteristic of this great historical figure's speech within the text is not coincidental.*

Keywords: *Yusuf Khos Hajib, Mahmud Kashgari, “Kutadgu Bilig”, “Devoni lugot it-turk”, proverbs, aphorisms.*

Turkiy xalqlar tarixining qadimiy davrlariga nazar tashlash ularning o‘zak ildizlari bir ekanini tasiqlaydigan hodisalarga boyligini ko‘rsatadi. Bu ularning tarixiga, madaniyatiga, shular qatorida adabiyotiga ham daxldor. Mana shunday mushtarak qadriyatlardan biri Alp Er To‘nga nomi bilan bog‘liq. Bu tarixiy shaxs qadimda buyuk sarkarda, dono hukmdor sifatida shuhrat topgan. Uning xalq o‘rtasida, shuningdek, adabiy qahramon sifatida “beklar begi” sifati bilan mashhur bo‘lgani bejiz emas.

Mahmud Koshg‘ariy uning xalq orasida ancha mashhur bo‘lganini, bu qahramon haqida yirik hajmli doston yaratilganini esga oladi. Dostondagi marsiyalardan birida bu qahramon nomi ko‘rsatilgan:

Alp Er Toŋa öldimü?
Esiz ažun qaldïmü?
Öδlak öčun aldïmü?
Emdi yüräk yïrtïlur?

Mazmuni:
Alp Er To‘nga (Afrosiyob) o‘ldimi?
Esiz, dunyo (undan ayrilib) qoldimi?
Falak undan o‘chini oldimi?
Endi yuraklar yaralanmoqda [2.31].

A.Fitrat “Devon”dagi 10ta to‘rtlikni shu marsiyaning tarkibiy qismlari sifatida taklif qilgan edi [5. 14-20].

Endi yana bir ifodaga e’tibor qaratilishi lozim. Mutaxassislar qadimda “beglər begi” degan lavozim mavjudligini va uning to xonliklar zamonigacha ham turli darajadagi yuqori amaldorlar mansabining nomini anglatib kelganini yaxshi bilishadi. Bu haqida “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da shunday deyilgan:

“Beklarbegi — yuqori ma’muriy unvon va lavozim; viloyat, katta shahar hokimlari. Beklarbegi lavozimi O‘rta Osiyo mamlakatlari, Kichik Osiyo va Zakavkaze turkiy xalqlarida 19 asr oxirigacha saqlangan. Beklarbegining asosiy vazifasi soliq va b. majburiyatlarning o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash, hukmdor farmonlarini amalga oshirish, tegishli masalalarni biy, otaliklar, oqsoqollar kengashi bilan kelishib hal etishdan iborat edi. Beklarbegilar qo‘l ostidagi viloyat (beklarbegilik)larda alohida vazir, shayxulislom, sadr, jonishin (beklarbegining muovini) kabi mansablar ham bo‘lib, ular Beklarbegiga bo‘ysunganlar. Ular ayni vaqtda sarkarda hisoblanib, ularning qo‘l ostida yuzboshi va dahboshilar bo‘lgan” [7.681-682].

Mana shu lavozim Yusuf Xos Hojib zamonida, ya’ni qoraxoniylar davrida ham bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib ham uni vazir nutqida elig, ya’ni mamlakat hukmdoriga nisbatan qo‘llagan o‘rinlari bor:

Aytoldы aydы e beglər begi,
Qulы beg yuzi kərsə yitrur өgi.
Oyto‘ldi dedi: Ey beglar begi,
Quli begini ko‘rganida es-hushini yo‘qotadi [6.681-682].

Mazmuni:
Xuddi mana shu faktga o‘xshagan hodisa “Devonu lug‘ot it-turk”da ham mavjud. “Qutadg‘u bilig”da ham gap Alp Er To‘nga haqida borganida ayni ifoda Alp Er To‘nga uchun epitet vazifasini ado etadi.

Oyto‘ldining o‘g‘li – O‘gdulmishga o‘gitlari tarkibidagi mana bu misralar ham bor:

Өlumug tыdar ersə dunya nəңi
Bolub өlməgəy erdi *beglər begi* (1183)

Mazmuni:
Agar dunyo moli o‘limni tiya olsa edi,
Beglar begi abadiy tirik qolib, aslo o‘lmagan bo‘lar edi.

Ko‘rinib turibdiki, bu yerda ham “beglar begi” Alp Er To‘ngani nazarda tutmoqda.

Quyidagi misrada ham analogik holatni takrorlaydi:

Nekү ter eshitgil toңa alp erig
Bilib sөzləmish kөr bu өt sav irig.
Ma’nosi:
Botir, bahodir kishi (so‘zini) eshitgin, (u) nima deydi.
U o‘git, pand, nasihatni bilib so‘zlabdi, ko‘r [b.868-869].

Alohida ta’kidlash lozimki, baytning o‘zbek tilidagi tabdilida atoqli ot, ya’ni qadimgi turkiy adabiyotda tarixiy qahramon sifatida asrlardan asrlarga o‘tib kelgan adabiy qahramon turdosh ot sifatida qabul qilingan. Agar uning atoqli ot ekani inobatga olinsa, vaziyat mutlaqo o‘zgaradi. Shunda “Nekү ter eshitgil toңa alp erig” misrasidagi “Toңa Alp Er” birikmasi “Alp Er To‘nga”ning inversiyaga uchragan variantidan boshqa narsa emasligi ma’lum bo‘ladi-qo‘yadi.

Shunda mazkur baytdan keyin keltirilgan hikmatlar, aniqrog‘i, xalq maqollarining she’riy shakllarga kiritilgan shakllari ham aslida mana shu tarixiy qahramon nutqiga nisbat berilayotgani aniqlashadi:

Et-ul bu kishi kөңli artar uыdыr,
Eti kəd kədəzgү e qыlqы qadыr (b. 868).
Ma’nosi:
Kishi ko‘ngli go‘shtdir, (u) hid bilan buziladi,
Go‘shtni juda avaylash kerak, ey fe’li qodir (b. 869).
Nechə kəd er ersə yuңag‘ tыңlamas,
Uzunchы ara kirsə sernү umas
Ma’nosi:
Qanchalik yaxshi, chaquvni tinglamaydigan odam bo‘lsa (ham),
G‘iybatchi oraga kirsa, (u) sabr qila olmaydi [ya’ni chaquvchiga quloq beradi] [b.868-869].
Nechə kəd beg ersə uqushlug‘ udug‘,
Yuңag‘chы yaqыn bolsa tegrүr yudug‘
Ma’nosi:
Qanchalik yaxshi, zakovatli, ziyrak beg bo‘lsa (ham),
Chaqimchi yaqin bo‘lsa, (unga) malol keltiradi [b.868-869].
Kөңүl beg turur bu et өz qul asir,
Ara sөzkə tumlыr arala isir
Ma’nosi:
Ko‘ngil begdir, bu tanu jon (unga) qul, asirdir,
Goho so‘zga sovuydi, goho isiydi [868-869].

Agar mana shu poetik hodisaning ayni paytda hayotiy haqiqatning poetik ifodasi ekanini tan olsak, unda bundan keyin kelayotgan misralarning ham Yusuf Xos Hojib tomonidan ayni mana shu Alpga nisbat berilayotganini e’tirof etishga to‘g‘ri keladi. Ushbu maqollarning Alp Er To‘ngaga nisbat berilayotganiga yana qanday “ashyoviy” dalillar mavjud?

1. Maqollarning shu shaxs tilidan aytilayotgani maxsus ta’kidlanmoqda.

2. Maqollarning barchasi bir shaxsga nisbat berilgan.
3. Ularning barchasi harbiy vatanparvarlik mavzusiga bevosita daxldor.
4. Maqollar bevosita turkiy xalqlarning yashash tarzi bilan bog‘lanadi, xususan, dastlabki baytda go‘shtning aynib qolishi uning saqlanish darajasiga bog‘liq ekani haqidagi hayotiy haqiqat tasdiqlanmoqda.
5. Harbiy harakatlardagi gap yetkazish, chaquv singari yaramas odat qoralanmoqda.
6. Tasvir vositalarining ham bevosita harbiy-vatanparvarlik mavzusi tasdig‘i uchun xizmat qilayotgani yana bir marta tasdiqlanib turibdi. Zero, *ko‘ngil, beg, tan, jon, qul, asir* singarilar ayni mana shu harbiy sohaga oid bir uyaga mansub so‘zlar tizimidan boshqa narsa emasdir.

“Quyidagi “alp er” ham Alp Er To‘nganing o‘zidir:

Muңar meңzətү aydы alp er achuq,
Anыn ma’nisi, kөr, bu sөzkə tanuq:

Ma’nosi:

Alp Er (ya’ni Alp Er To‘nga) bunga uxshatib juda ochiq suz aytgan,
Qaragin, uning ma’nosi bu (yuqorida aytilgan) so‘zga shohiddir [b.868-869].

Tөrүmish nəң ersə yoqalg‘u turur,
Tөrүtүgli *xalыq* ne qulsa qылur.
Tiriglik tedүkүң bu yel-teg kechər,
Qachar, yetsə bolmas, anы kim bulur.
Kүvənmə bu qutqa kelir ham barыr
Inanma bu davlat berur ham alыr.
Yayыq ermәs ersə bu davlat өzi
Na edgү nəң erdi bu qut, ey qozы!
Kelib barmas ersə bu davlat yana,
Tүnərməgəy erdi yarumыsh kүn-ə [b. 868-869].

Ma’nosi:

Yaratilgan narsa bulsa, albatta, yo‘q bo‘ladi,
Yaratuvchi *xoliq* nimani istasa qiladi.
Tiriklik deganing yeldek o‘tib ketadi,
U qochadi, (unga) yetib bulmaydi, uni kim topa oladi?
Bu baxtga quvonma, u keladi va yana ketadi,
Bu davlatga ishonma, uni beradi va yana oladi.
Bu davlat o‘zi bevafo-beqaror bolmasa edi,
Baxt-davlat qanday yaxshi narsa bo‘lar edi, ey qo‘zi!
Bu davlat kelib yana ketmas bulsa edi,
Yerishgan kunlar qorong‘ulashmas edi [b.158-159]

Hikmatlar ma’nosiga e’tibor berilsa “alp er”ning oddiy botir, kuchli erkak” degan ma’noni emas, balki, aynan Alp Er To‘nga, ya’ni Afrosiyobni anglatayotganini his etish mumkin bo‘ladi. Hikmatlardagi ma’no va mazmunning donishmandona kuzatuv, falsafiy teranlik va dunyoviy ahamiyat kasb etayotganini

ko‘rish qiyin kechmaydi.

Ushbu hikmatlar hayotning ko‘plab issiq-sovuqlarini ko‘rgan, hayot ne’matlarini tatib ko‘rish bilan birgalikda uning bir inson boshiga solishi mumkin bo‘lgan ko‘plab sir-u sinoatlarini o‘z tanasidan o‘tkazgan shaxsning shaxsiy, ammo nihoyatda yuksak darajada umumlashtirilgan xulosalaridir. Ularning deyarli xalq maqollariga o‘xshab ketadigan tabiiy va samimiy, mazmuni, ifoda tarzidagi quyma va yorqin shakli, qat’iy va ishonarli ohangi, hukmlarning qat’iy va barqarorligi esa ularga umrboqiylik bag‘ishlab turibdi.

E’tibor berilsa, yuqoridagi ko‘chirmada *xaliq* va *davlat* so‘zlarigina o‘zlashma qatlamga mansubligini, boshqa so‘zlarning sof turkiy qatlamga mansubligini ham ko‘rish mumkin. Ayni mana shu holatning o‘zi ham bu hikmatlarning bevosita turkiy xalqlarning juda qadim zamonlaridan oziq olayotganini quvvatlab turadi.

Mahmud Koshg‘ariyning qomusiy bilimlar jamlanmasi – “Devonu lug‘otit-turk” hamda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” singari qomusiy adabiy asari bu ikki allomaning turkiy xalqlar, balki butun dunyo ahli uchun ham bebaho merosidir.

“Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon”i (XI asr) uning o‘z dala ishlarining mevalaridir. Ko‘p yillar davomida u turkiylar yashaydigan joylarni kezib chiqdi, lingvistik hamda folklor materiallarini sinchikovlik bilan yozib oldi, so‘ng ularni tasnif qildi va qayta ishlab arab filologlarining lingvistik an’analariga muvofiq bo‘lgan qat’iy lug‘at shakliga kiritdi” [1.18].

“Mahmud Qoshg‘ariy bu asarda hassos tilshunos olim sifatida turkiy tildagi so‘zlar ma’nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida esa xalq tilida mavjud namunalarga murojaat etadi. Muallifning: “Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so‘zlar, saj’lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelgan she’rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llaniladigan hikmatli so‘zlardan, maqollardan keltirdim”, – deyishi bejiz emas [1, 44].

Yusuf Xos Hojib esa mana shu xalq durdonalaridan o‘zining adabiy-estetik g‘oya va qarashlarining badiiy ifodasi jarayonida juda unumli foydalangan.

Bularning barchasi bu ikki muhtasham asar (“Devonu lug‘ot it-turk” va “Qutadg‘u bilig”)ning o‘zidayoq nihoyatda katta arxaik qatlam mavjudligini va bu qatlamlarning to‘liq manzarasini tasavvur etish, Alp Er To‘nga shaxsiyatiga, uning yashash tarzi va ishonch-e’tiqodlariga daxldor bo‘lgan ko‘plab hayotiy haqiqatlarning badiiy ifodalari ular zaminida “sir saqlab” turganini e’tirof etishga undab turibdi. Bizning vazifamiz esa mana shu sirlar olamiga qarab yanada jiddiyroq va qat’iyroq qadamlar qo‘yishda qolmoqda, xolos. Bu yo‘lda qadimshunos olimlarimizga kuch, iroda, omad va sog‘liklar tilab qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Махмуд Кашгари. Дивану лугати турк (Свод тюркских слов). Перевод на русский язык с комментариями академика А.Рустами (в

трех томах). Том I. – Ташкент, “Mumtoz so‘z”, 2017. – С. 456.
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғат ит-турк (Туркий сўзлар девони). С.Муталлибов таржимаси асосида қайта ишланган, тўлдирилган ўзгартишлар киритилган мукаммал нашри. Нашрга тайёрловчи Қ.Содиқов. Уч томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 2017. – 488 б.
3. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони. (Девону луғотит-турк) . Таржимон ва нашрга тайёрловчи: С.Муталлибов. Уч томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1963.
4. Стеблева И.В. Жизнь и литература доисламских тюрков: историко культурный контекст древнетюркской литературы. – Москва: Вост.лит ., 2007, 12-стр.
5. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари (адабиётимиз тарихи учун материаллар). – Тошкент: “Mumtoz so‘z”, 2008, с.124 б.
6. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг” (Саодатга йўлловчи билим). Транскорипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Тошкент: “Фан”, 1972. – 964 б.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1 жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2000.

ALP ER TO‘NGA – TURKIY XALQLAR BOBOKALONI

Qahramon Rajabov
Professor, tarix fanlari doktori, O‘zbekiston FA Tarix instituti

Annotatsiya. *Maqolada turkiy xalqlar bobokaloni va Turon davlatining asoschisi Alp Er To‘nga hayoti va faoliyati haqida so‘z boradi. U miloddan avvalgi 654-626 yillarda Turon davlatini 28 yil davomida boshqargan ulug‘ xoqon hisoblanadi. Alp Er To‘nga vafot etgach, uning jasadi olis Midiyadan olib kelinib, poytaxt Buxoroda hozirgi Hazrati Imom qabristonida dafn etilgan. Maqola tarixiy manbalar tahlili asosida yozilgan.*

Tayanch so‘zlar: *Saklar, turkiy qavmlar, xoqon, qal’a, boshkent, hukmdor, zardushtiylar, Avesto, qoraxoniylar, saljuqiylar, Buxoro, Hazrati Imom qabristoni, Ma’bad darvozasi, “Afrosiyob” poezdi.*

Аннотация. *В статье рассказывается о жизни и деятельности предка тюркских народов и основоположника Туранского государства Алп Эр Тунга. Он считается великим каганом, правившим Туранским государством в течение 28 лет в 654-626 годах до н.э. После смерти Алп Эр Тунга его тело было доставлено из далекой Мидии и захоронено на современном кладбище Хазрати Имам в столице Бухаре. Статья написана на основе анализа исторических источников.*

Ключевые слова: *саки, тюркские племена, каган, крепость, столица, правитель, зороастрийцы, Авеста, караханиды, сельджуки, Бухара, кладбище Хазрата Имама, ворота Маъбад, поезд “Афросиаб”.*

Abstract. *The article discusses the life and activities of Alp Er Tunga, the ancestor of Turkic peoples and the founder of the Turan state. He is considered a great khagan who ruled the Turan state for 28 years from 654 to 626 BC. After Alp Er Tunga’s death, his body was brought from distant Media and interred in the present-day Hazrat Imam cemetery in the capital city of Bukhara. The article is based on an analysis of historical sources.*

Keywords*: Saki, Turkic tribes, Khagan, fortress, capital, ruler, Zoroastrians, Avesta, Karakhanids, Seljuks, Bukhara, Hazrat Imam cemetery, Mabad gate, Afrasiab train.*

Alp Er To‘nga – Turon davlatining asoschisi

Alp Er To‘nga miloddan avvalgi 654 yilda Turon hududida saklar yoki skiflar (turkiy qavmlar)ning dastlabki davlatini tashkil qiladi. Bu davlat Evropa tadqiqotchilari tomonidan keyinchalik prototurk (ko‘hna turklar) davlati deb nomlangan. Aslini olganda Alp Er To‘nga Turon davlatiga asos solgan mashhur turkiy xoqon hisoblanadi. Alp Er To‘nga Turon dashtlarida (Osiyo va Evropa qit’alarida) yashagan o‘nlab turkiy urug‘ va qabilalarni yagona davlat ostiga birlashtirdi. Alp Er To‘nga mazkur davlatni 28 yil davomida boshqargan[1] .

[1] Qarang: Rajabov Q. Alp Er To‘nga (Afrosiyob). – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 224 bet.

Turon davlatining dastlabki poytaxti qaysi shahar bo‘lganligi o‘sha davr manbalarida aniq ko‘rsatilmagan. Turklar yashaydigan Turon davlatining ilk poytaxtlari Buxoro va Samarqand shaharlari bo‘lganligini taxmin qilish mumkin. Mahmud Koshg‘ariyning fikricha, Koshg‘ar Afrosiyobning markaziy shahri bo‘lgan. Biroq muallif qoshg‘arlik bo‘lganligi uchun ham o‘z kitobida bu fikrga ko‘p urg‘u beradi. Aslida Turonning dastlabki poytaxtlari Buxoro va Samarqand shaharlari bo‘lgan. Turkiy xalqlar asosan chorvador bo‘lganligi uchun ular yozda yozloq (yaylov)larda yashab, qishda qishliq (qishloq)lar va shaharlarda istiqomat qilishgan. Ular o‘sha paytda o‘troq hayotga nisbatan ko‘proq ko‘chmanchilik hayot tarziga moslashgan edilar. Shuning uchun Turon davlatining bitta emas, bir nechta bosh kentlari va markaziy shaharlari bo‘lgan, deb aytish mumkin.

Alp Er To‘nga (forsiy manbalarda: Afrosiyob) janglarda jasur, dushmanlarga zarba berishda chapdast, botir va qo‘rqmas lashkarboshi, mohir qo‘mondon bo‘lgan. U taniqli davlat arbobi sifatida Turon davlatini o‘ttiz yilga yaqin adolatli boshqargan.

Alp Er To‘nga Turon pasttekisligida yashagan barcha turkiy qavmlarni birlashtirish uchun tinimsiz kurashgan. Alp Er To‘nga sharqda uyg‘urlarga qarshi jang qilgan. U Irtish daryosi bo‘ylariga qo‘shin tortib borib, basmil qavmini bo‘ysundirgan, Turondagi barcha turkiy xalqlarni bir davlat qilib birlashtirgan.

Alp Er To‘nganing farzandlari ham xuddi otasidek Turonda ko‘plab shahar va qishloqlarga asos solgan. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari ma’lumotlariga qaraganda, Alp Er To‘nganing *Qoz* ismli qizi bo‘lgan va u hozirgi Eron hududidagi *Qazvin* va *Qum* shaharlarini barpo qilgan. Turkiylarning chegara shahri bo‘lgan Qazvin shahrida malika Qoz g‘oz o‘ynar edi. Shahar nomi Qazvin – Qoz so‘zining qisqargan shakli bo‘lib, shahar o‘zining bunyodkori bo‘lgan xoqon qizi malika Qoz nomiga qo‘yilgan va u *Qoz shahri* ma’nosini ham anglatadi. Shahar nomining ikkinchi ma’nosi *Qiz shahri*ni bildirgan. *Qum* shahri atroflarida esa malika Qoz ov qilish bilan shug‘ullangan. Bu shahar qumli erda qurilganligi uchun shu turkiy nom bilan atalgan va xoqon oilasining ov qiladigan asosiy makoni bo‘lgan. Shuningdek, Ili vodiysi (Sharqiy Turkiston)ga oquvchi katta suvning *Qozsuvi* deb atalish sababi ham u erda malika Qoz daryo suvi qirg‘og‘iga yirik qal’a qurganligi uchundir.

«Devoni lug‘otit turk»da yozilishicha[1], *Tarim* so‘zi Afrosiyob avlodidan bo‘lgan xotinlarga nisbatan qo‘llanilgan. *Qotun* so‘zi Afrosiyobning qizlaridan bo‘lganlarning nomidir.

Mahmud Koshg‘ariyning ma’lumotlariga qaraganda, Alp Er To‘nganing *Baqan* va *Barsag‘on* degan ikki o‘g‘li bo‘lib, ular Farg‘ona vodiysida hukmronlik qilishgan. Barsag‘on bu hududda *Barsag‘on* va *Bormon* shaharlarini kurdirgan. Ba’zi tadqiqotlarda keltirilishicha, *Marv* shahrini ham Alp Er To‘nganing boshqa

[1] *Mahmud Koshg‘ariy*. Devonu lug‘otit turk (Turkiy so‘zlar devoni). Uch tomlik. Tom II. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. –Toshkent: O‘zSSR FA nashriyoti, 1961. 420-bet.

o‘g‘li – *Marviy Shohijahon* qurdirgan. O‘rta asrlar davriga oid tarixiy manbalarda Marv shahri ulug‘lanib, *Marvi shohi jahon* (Marv – jahonning shoh shahri) deb bejiz madh etilmagan. Mahmud Koshg‘ariyning fikricha esa, Marvni Afrosiyobning o‘zi bino qilgan. Koshg‘ariy devoniga suyanib, ayrim tadqiqotchilar chiqargan xulosaga ko‘ra, Alp Er To‘nganing markaziy shahri Koshg‘ar bo‘lgan. Biroq Mahmud Koshg‘ariydan oldin yashab o‘tgan Narshaxiyning fikrlariga ko‘ra, Buxoro shahri Afrosiyob davlatining poytaxti va bosh kenti bo‘lgan .[1]

Alp Er To‘nga Turonda mustahkamlanib olgach, turklar yurtiga doim tajovuz qilib turadigan Eronga qarshi kurash boshladi. Alp Er To‘nga o‘z dushmanlari va itoat etmagan qabilalarga nisbatan shafqatsiz hukmdor, biroq do‘stlari va o‘z fuqarosiga nisbatan saxiy va mard xoqon edi. Alp Er To‘nga ayyorlikni bilmaydigan to‘g‘ri so‘zli sarkarda, sodda va ishonuvchan turk alpi bo‘lgan. U katta qo‘shin bilan Eron ustiga harbiy yurish qiladi. Alp Er To‘nga Eronni zabt etib, bu erda 12 yil podshohlik qilgan. So‘ngra u bilan eronliklar o‘rtasida sulh tuzilgan. Ba’zi adabiyotlarda yanglish yozilishicha, Eron bilan Turon o‘rtasidagi chegara Jayxun (Amudaryo) bo‘ylab belgilangan. Aslida Amudaryo orqali tarixiy Xuroson va Movarounnahr hududlari o‘zaro ajratilgan. Bu holatni mashhur alloma Abu Rayhon Beruniy o‘zining *«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»* asarida quyidagicha tasvirlaydi:

«Afrosiyob Eronshahrni bosib olib, Tabaristonda Minuchehrni qamal qilgach, Minuchehr undan bir iltimos qildi. Afrosiyob uning iltimosini qabul etdi va Eronshahrdan bir o‘q otimi kvadrat joyni o‘ziga qaytaradigan bo‘ldi…»[2] .

Beruniy oradan qariyb 40 yil o‘tgach yozilgan o‘zining boshqa bir asari – *«Qonuni Mas’udiy»I* (1037)da bu fikrni shunday davom ettirgan: *«Orishning Manuchehr bilan Afrosiyob orasida sulh qilish uchun o‘q otishi ham shu kunga to‘g‘ri kelgan. Bu sulhga ko‘ra o‘q borib etgan joy Manuchehrniki bo‘lar emish. Aytishlaricha, u Ro‘yon tog‘idan otgan, uzoqqa otilgan shu o‘q Farg‘ona va Tabariston orasiga tushgan»*[3] .

Alp Er To‘nga bilan sulh tuzilgach, o‘z mustaqilligini qayta tiklagan eronliklar sulh tuzilgan Tir Moh (o‘q otilgan oy)ning o‘n uchinchi kuni – ro‘zi tir (o‘q otilgan kun)ni, ya’ni tirgon kunini katta bayram qilib, har yili an’anaviy ravishda nishonlab kelganlar. Bu haqda ham Beruniy o‘zining har ikkala kitobida nodir ma’lumotlarni keltirib o‘tgan.

Avesto, Alp Er To‘nga va Buxoro

Alp Er To‘nga miloddan avvalgi VII asrda Buxoro yaqinida Romitan shahriga asos solgan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro hisori (shaharning qadimgi qismi)ni ham u barpo etgan. Bu haqda mashhur tarixchi olim *Abu Bakr*

[1] *Narshaxiy*. Buxoro tarixi. Fors-tojik tilidan A.Rasulov tarjimasi. – Toshkent: Fan, 1966. 23-bet.
[2] *Abu Rayhon Beruniy*. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar… 259-bet.
[3] *Abu Rayhon Beruniy*. Tanlangan asarlar. T.5. 1-kitob. Qonuni Mas'udiy. Arabchadan A.Rasulov tarjimasi. – T.: Fan, 1973. 209-bet.

Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy (899–959) o‘zining *«Buxoro tarixi»* kitobida fikr bildirgan.

«Romtin (Romitan). Bu katta bir kuhandizga ega va mustahkam bir qishloq bo‘lib, Buxorodan qadimiyroqdir. Ba'zi kitoblarda bu kishloqni Buxoro deb ataganlar. Bu qishloq qadim vaqtlarda podshohlarning turar joylari bo‘lgan, [keyinroq esa] Buxoro shahari bino bo‘lgandan keyin, podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turadigan bo‘ldilar... Bu qishloqni Afrosiyob bino qilgan. Afrosiyob har vaqt viloyatga kelganida shu qishloqdan boshqa joyda turmagan»[1] .

«Buxoro tarixi» asarining Yangi Buxoro (Kogon)da 1904 yil Mullo Sulton tomonidan nashr qilingan nusxasida *Alp Er To‘nganing qizi* va *Romitan* bilan bog‘liq quyidagi naql keltiriladi: *«Aytadilarki, Afrosiyobning bir qizi bo‘lib, uning doimo boshi og‘rir edi. Romtinga kelib turib qolganidan keyin bu erning havosi muvofiq kelib darddan xalos bo‘ldi va bu joyga «Oromi tan» - «Tan oromi» deb nom qo‘ydi. Oddiy xalq esa buni «Romtin» deganlar»*[2] .

Afrosiyob kurdirgan ko‘hna Romitan shahri hozirgi Buxorodan taxminan 20 km uzoqlikda bo‘lib, u vohaning go‘zal va xushmanzara erida joylashgan. Bu erda Alp Er To‘nga bilan birgalikda uning kattagina xonadoni, saroy amaldorlari, beklari va sarkardalari ham istiqomat qilgan. Biroq Romitan toponimini faqat xoqon qizining bosh og‘rig‘i kasalligiga da'vo topishi bilan bog‘liq hodisaga asoslab qo‘yish ham unchalik to‘g‘ri emas. Shuningdek, Afrosiyob qurdirgan Romitan shahrining jug‘rofiy o‘rni hozirgi Romitan tumanining ma'muriy markazi Romitan shahridan boshqa joyda bo‘lib, u xalq o‘rtasida Qo‘rg‘on (Romitan qo‘rg‘oni) nomi bilan mashhur. Bundan tashqari Romushtepa xarobalari Jondor tumani hududida joylashgan.

Avesto matni ustida olib borilgan so‘nggi tadqiqotlarimizning ko‘rsatishicha, *Romtin* va *Romush* (hozirgi *Romitan*) shaharlarining nomi zardo‘shtiylik dinining ilohlaridan biri – yaxshi yaylovlar baxsh etuvchi buyuk iloh Rom nomidan olingan. Shu narsa xususiyatli holki, iloh *Rom* nomi ham orom – osudalik ma'nolarini anglatadi. Rom havo ilohi ham hisoblangan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoda bu ilohning nomi *Rom, Roma, Roman* shakllarida keladi. Zardushtiylarning e'tiqodlariga ko‘ra, oyning yigirma birinchi kunini qo‘riqlash iloh Romning zimmasida bo‘lgan. Avestoda o‘n birinchi «Rom yasht» bu ilohga bag‘ishlangan maxsus hamdu sanolardan iborat. Avestoda Rom ilohi*yaxshi yaylovlar sohibi* sifati bilan ta'riflanadi va iloh Mehr bilan yonma-yon qo‘yiladi:

«Rayumand va farrihmand Ahura Mazda, Amshosipandlar, keng yaylovli Mehr, yaxshi yaylovlar baxsh etuvchi Rom…

[1] *Narshaxiy.* Buxoro tarixi. Fors-tojik tilidan A.Rasulov tarjimasi. – Toshkent: Fan, 1966. 23-bet.
[2] *Narshaxiy.* Buxoro tarixi. ... 96-bet (28-izoh).

Madh etaman ming quloqli, ming ko‘zli, keng yaylovli Mehr, u buyuk iloh – yaxshi yaylovlar baxsh etguvchi Romni!»[1]

Xullas, yaxshi yaylovlar sohibi sifatida ulug‘langan buyuk iloh Romning nomi Afrosiyob va uning nevarasi qurdirgan Romtin va Romush (hozirgi Romitan tumanidagi Romitan qo‘rg‘oni va Jondor tumanidagi Romushtepa xarobalari) shaharlariga qo‘yilgan. Romitan yaylovlarida ming yillar davomida dunyoga mashhur Buxoro qorako‘l qo‘ylari boqilgan. Hozirgi vaqtda ham Romitan tumani hududi bepoyon Qizilqumning eng yaxshi yaylovlari hisoblanadi. Bundan tashqari, *Romitan* atamasi turkiy *mitan* urug‘i nomidan kelib chiqqan degan taxminlar ham mavjud[2] .

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Eron shohi Kaykovusning o‘g‘li Siyovush otasi bilan arazlashib qolgach, Turon xoqoni Alp Er To‘nga huzuriga keladi. Alp Er To‘nga uni yaxshi kutib olgan. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, xoqon o‘z qizi malika Qozni Siyovushga xotinlikka beradi. U hatto barcha mulkini kuyoviga topshiradi. Biroq fors adabiy manbalarida, xususan, fors-tojik shoiri Firdavsiy o‘zining «Shohnoma» asarida Franghrasyan (Afrosiyob) Siyovushni dastlab yaxshi kutib olganligi, unga qizi Farangisni berganligi va so‘ngra makkorlik bilan uni o‘ldirganligi bayon qilinadi. Bu vokealar tarixchi olim Narshaxiy tomonidan 943 yilda yozilgan *«Buxoro tarixi»* kitobining *«Buxoro Arkining bino etilishi haqida»* nomli 8-faslida Firdavsiydan oldin boshqacharoq tasvirlagan edi.

«Abu-l Hasan Nishopuriyning «Xazoin ul-ulum»da aytishicha, Buxoro kuhandizining, ya’ni Buxoro Arki hisorining bino etilishiga mana shu (voqea) sabab bo‘lgan: Siyovush ibn Kaykovus o‘z otasidan qochib Jayxun daryosidan o‘tib Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o‘z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini ham unga topshirdi. Bu viloyat o‘ziga vaqtincha berib qo‘yilgan joy ekanligi tufayli, Siyovush bu erda o‘zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi... (Kimlardir) [Asarning Buxoro nusxasida qo‘shilgan: Afrosiyobning birodari Karshyuz] u bilan Afrosiyob o‘rtasida yomon gap yurgizdi va (natijada) Afrosiyob uni o‘ldirdi hamda ana shu Hisorda sharqiy darvozadan kiraverishingda «Darvozayi G‘uriyon» (ba’zi manbalarda: «Darvozayi Guriyon» - Q.R.) deb atalgan Somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu sababli Buxoro otashparastlari o‘sha joyni aziz tutadilar (asarning Buxoro nusxasida qo‘shimcha bor: uning qabrini Siyovush vali mozori deydilar) va unga atab har bir erkak kishi har yili Navro‘z kuni quyosh chiqishidan oldin o‘sha joyga bittadan xo‘roz so‘yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o‘ldirilishiga bag‘ishlab aytgan marsiyalari bo‘lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo‘shiq qilib

[1] Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. O‘zbek tiliga Asqar Maxkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001. 34-35-betlar.

[2] Qarang: Q.Rajabov. Romitan tarixi// “Buxoronoma”, 2007 yil 3 mart.

aytadilar. Qo‘shiqchilar uni «otashparastlar yig‘isi» deydilar. Bu gaplar bo‘lganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o‘tdi»[1] .

Narshaxiy o‘z asarida Siyovush o‘limiga atab buxoroliklar to‘qigan qo‘shiqlar to‘g‘risida yana quyidagicha yozib ketgan: *«Buxoro aholisi Siyovushning o‘ldirilishi to‘g‘risida ajoyib ashulalar to‘qiganlar; kuychilar bu qo‘shiqlarni «Kini Siyovush» – «Siyovush jangi» deb ataydilar»*[2] .

Xullas, Alp Er To‘nga tomonidan Buxoro hisoriga asos solingan. Buxoro shahriga Siyovush asos solmagan. Biz yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, Narshaxiy o‘z asarining boshqa bir o‘rnida Buxoro hisorini Afrosiyob bino qilgan, degan qat’iy fikrni keltirib o‘tadi va Afrosiyobni bunyodkor xon sifatida ko‘rsatadi. Narshaxiy o‘z asarini 943 yilda yozganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bu voqealarga hozir to‘rt ming yildan oshadi.

Narshaxiy o‘z asarida Abul Hasan Nishopuriydan keltirgan bu tarixiy dalillardan ko‘rinib turibdiki, Alp Er To‘nga bunyodkor podshoh bo‘lgan. Qadimgi Romitan va Buxoro qal’alarini u qurdirgan. Bu viloyatga kelganida o‘zi asos solgan va podshohlarning doimiy qarorgohi bo‘lgan Romitanda turgan. Narshaxiy, Tabariy, Nishopuriy kabi mo‘’tabar Sharq tarixchilarining bu fikrlarini ulardan taxminan 100-150 yil keyin yashab o‘tgan buyuk vatandoshlarimiz Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib ham o‘z asarlarida tasdiqlashadi. Biroq ko‘pchilik forsiy manbalarda tarixiy shaxs bo‘lgan Alp Er To‘nga haqida asossiz va salbiy fikrlar bildirilgan. Narshaxiy o‘z asarida Alp Er To‘nga haqida fikr bildirilgan forsiy manbalar haqida quyidagi so‘zlarni keltirib o‘tadi: *«Forsiylarning kitoblarida aytilishicha, Afrosiyob ikki ming yil yashagan. U jodugar bo‘lib, Nuh podshohning bolalaridandir. U o‘zining Siyovush nomli kuyovini o‘ldirgan...»*[3]

Bizningcha, forsiylarning kitoblarida keltirilgan Afrosiyob haqidagi bunday uydirma fikrlar hech qanday izoh va sharhga muhtoj emas.

Bu o‘rinda faqat ta’kidlash lozimki, ilk o‘rta asrlarda turk davlatchiligi (Turon) bilan fors davlatchiligi (Eron) o‘rtasidagi harbiy va siyosiy muxoliflik Alp Er To‘nga (Afrosiyob)ga nisbatan munosabat turkiy tilmanbalarida ijobiy, forsiyzabon manbalarda esa salbiy bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Beruniyning fikricha, Xorazmda hukm surgan afrig‘iylar sulolasining shajarasi (xorazmshohlar) aynan Siyovushdan boshlangan. Qoraxoniylar va saljuqiylar sulolasi vakillari esa o‘z shajarasini Alp Er To‘ngadan boshlashgan.

Afrosiyob hayotida Buxoro shahri muhim o‘rin tutadi. Bu holatni quyidagi jiddiy sabablar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, Buxoro shahri Turon davlatining ilk poytaxti bo‘lgan. Buxoro qulay jug‘rofiy o‘rinda – Turon mintaqasining markaziy qismida joylashgan.

[1] *Narshaxiy.* Buxoro tarixi. 28-bet.
[2] *Narshaxiy.* Buxoro tarixi. 23-24-bet.
[3] *Narshaxiy.* Buxoro tarixi. 23-bet.

Qizilqum va Qoraqum sahrolarini o‘zaro ajratib turuvchi o‘troq dehqonchilik vohasi bilan ko‘chmanchilar – turkiy chorvador qavmlar yashagan ulkan dashtni o‘zaro bog‘laydigan chorrahaning markaziy qismida Buxoro shahriga turkiy xalqlar tomonidan asos solingan. Buxoro vohasining shimolidagi Vardonxudotlar podsholigining poytaxti Vardona [Vardonze] haqida fikr yuritgan Narshaxiy quyidagi fikrlarni yozgan: *“U Turkistonning chegarasida joylashgan”.*

Ikkinchidan, Afrosiyob tug‘ilgan joy haqida tarixiy ma’lumotlar saqlanib qolmagan. Biroq u Turon tekisligidagi ulkan dasht yoxud unga chegaradosh vohada voyaga etib, kamol topganligi hamda barcha turkiy qavmlarni birlashtirib, mustaqil Turon davlatiga asos solganligi tarixiy haqiqat. Mintaqadagi eng ko‘hna shahar Buxoro ekanligi esa jahon olimlari tomonidan e’tirof etilar ekan, o‘z-o‘zidan bu shaharga Afrosiyob tomonidan asos solinganligi oydinlashadi. Buxoro shahrining aniq yoshini aniqlash uchun ham Afrosiyob yashagan davrni asos qilib olish kerak. Modomiki, Buxoroning bunyodkori Afrosiyob ekan, demak, Buxoro vohasida shaharsozlik tarixi va madaniyati davrini ham Afrosiyobdan boshlash kerak. Hozirgacha buxoroliklar o‘rtasida Afrosiyob to‘g‘risida turfa naqllar yurishi, Narshaxiy ma’lumotlari bilan bu mulohazalar bir-birini o‘zaro to‘ldirishi bejiz emas.

Uchinchidan, Afrosiyob va uning farzandlari Buxoro shahri va unga yondosh hududlardagi shahar va qishloqlar taraqqiyotiga katta e’tibor qaratishgan. Afrosiyobning Buxorodan tashqari Romitan shahriga asos solishi, Afrosiyobning qizi bilan Romitan haqidagi naqllar faqat kitoblardan kitoblarga ko‘chib o‘tuvchi rivoyat bo‘lmay, balki unda olis tariximizning bizga ayon bo‘lmagan siru sinoatlari o‘z aksini topgan.

To‘rtinchidan, Afrosiyob olis Midiyada dushman qo‘lida makkorlik bilan o‘ldirilgach, vasiyatiga binoan uning jasadi aynan Buxoro shahriga olib kelinib, Ma’bad darvozasi oldidagi katta tepalik ustida dafn etilgan. Agar Buxoro shahri o‘sha paytda Turon davlatining bosh kenti bo‘lmaganida Afrosiyob bu erda dafn etilmas edi.

Alp Er To‘nganing halokati

Turon bilan Eron o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning yangi bosqichida Eronda hokimiyatni qo‘lga kiritgan Siyovushning o‘g‘li Kayxusrav Turonga bostirib kiradi. Bu voqea miloddan avvalgi 626 yili sodir bo‘lgan. Turon xoqoni Alp Er To‘nga bilan kuyovi Siyovushning o‘g‘li Kayxusrav o‘rtasida shiddatli janglar kechgan. Xususan, Romitan atrofida qattik janglar bo‘lib, bu erda ikki yil turgan Kayxusrav Romitan hisori ro‘parasida Romush qishlog‘ini qurgan. Keyinchalik o‘rtada sulh tuzilgan. Ma’lum muddatdan keyin jang harakatlari yana qaytadan boshlangan. Har ikki tomon o‘rtasida murosasiz janglar Turon va Eron sarhadlarida bir necha marta bo‘lib o‘tadi. Tarixiy ma’lumotlarda keltirilishicha, Afrosiyob qo‘mondonlik qilgan ana shunday janglarning oxirgisi mil.avv. 626 yilning kech kuzida Midiya (hozirgi Ozarbayjon va Eron hududining bir qismida

bo‘lgan qadimgi davlat)da bo‘lib o‘tgan. Bu jang turonliklarning g‘alabasi bilan tugaydi. Jangdan keyin sulh tuzilib, mag‘lublar g‘oliblar sharafiga katta ziyofat beradi.

Biroq Eron shohi Kayxusrav o‘z bobosi (ona tomonidan) bo‘lgan Alp Er To‘ngani ziyofat paytida mayga zahar qo‘shib berib o‘ldiradi. Turon xoqoni Alp Er To‘nga ishonuvchanligi va soddadilligi uchun eroniylarning makr va hiylasiga qurbon bo‘ldi. Xoqonning uxlab yotgan lashkarboshilari xam tig‘dan o‘tkazilgan. Alp Er To‘nganing o‘limi Eronda turklar yoki saklardan qutulish kuni sifatida katta tantana qilingan. Xullas, Alp Er To‘nga va uning lashkarboshilari eronliklar tomonidan xoinlarcha o‘ldirilgach, xoqon qo‘shinining tirik qolgan qismi Midiya, Anatoliya, Eron, Turon hududlariga tarqalib ketgan.

Mash’um voqeadan keyin xoqoni va lashkarboshilaridan ayrilgan sak turklari har tomonga tarqalib ketdilar. Ularning bir qismi Sharqiy Anatoliyaning tog‘li joylariga qochib qutuldilar. U zamonlarda bu erlarga kelib o‘rnashgan sak turklari qarluq, g‘ur, bijanoq urug‘lari edi[1] .

Alp Er To‘nganing jasadi uning sodiq beklari va yigitlari tomonidan Buxoroga olib kelingan va shahardagi Ma’bad darvozasi yonidagi tepalikda dafn etilgan. Narshaxiy o‘z asarida bu voqealarni quyidagicha tasvirlaydi: *«Siyovushning Kayxusrav nomli o‘g‘li bo‘lib, u otasining qonini talab qilib, ko‘p lashkar bilan bu viloyatga kelganida Afrosiyob shu Romtin qishlog‘ini hisor qilib turgan... Kayxusrav ikki yildan keyin Afrosiyobni tutib o‘ldirdi. Afrosiyobning go‘ri Buxoroda Ma’bad darvozasida rahmatli Xoja Imom Abu Hafs Kabir tepaligiga tutashgan katta tepalik ustidadir»*[2] .

Narshaxiy Afrosiyob bilan bog‘liq voqealarni o‘z kitobida tasvirlar ekan, u aniq bir sanani keltirmaydi. Afrosiyob shaxsi bilan bog‘liq voqealar tasvirida tarixchi tomonidan bir necha marta ushbu voqealarga uch ming yildan oshgan, degan javob keltiriladi. Narshaxiy yashab o‘tgan paytdan esa hozirgacha ming yildan ortiq vaqt o‘tdi...

Afrosiyob Buxoroda dafn etilgan joy haqida tarixiy manbalarda ma’lumot kam bo‘lsa-da, u vaqt sinoviga bardosh berdi va xalq xotirasida abadiy qoldi. Oradan asrlar va ming yillar o‘tib ketdi. Sharqning eng ko‘hna shaharlaridan biri Buxoro bir necha marta turli yog‘iylar qo‘liga o‘tdi. Shaharning muqaddas joylari toptaldi, mozorlar buzib tashlandi. Avlodlar almashinuvi bilan qadriyatlar ham o‘zgarib turdi. Xalqimizning diniy e’tiqodlari va urf-odatlari ham almashindi. Tarixiy nomlar va shonlar o‘zgardi. Biroq Buxoroda Afrosiyob haqidagi xotiralar tirik tarix sifatida bugungi kunga ham etib keldi. Bu xotiralarda Alp Er To‘nga [Afrosiyob] o‘zbek xalqining eng qadimgi milliy qahramoni ekanligi va u

[1] Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. 4-bet.
[2] *Narshaxiy.* Buxoro tarixi. 23-bet.

Buxoroda dafn etilganligi keltiriladi. Alp Er To‘nga haqidagi xalq qo‘shiqlari hamon xos davralarda o‘zgacha yangraydi.

Buxoroga islom dini kirib kelganidan keyin buyuk fiqhshunos olim, hanafiya mazhabining Movarounnahrdagi asoschisi, Imom Buxoriyning katta zamondoshi va ustozi Abu Hafs Kabir Buxoriy (767–832) faoliyati tufayli Buxoro *“qubbatul islom”*, ya’ni islom dinining gumbazi deb atalgan. Narshaxiyning yozishicha, Kabir Buxoriy vafot etganida Afrosiyobning go‘ri bo‘lgan katta tepalik va Ma’bad darvozasi atrofiga tutashgan boshqa tepalik ustida dafn qilingan. O‘rta asrlarda bu joy Kabir Buxoriy maqbarasi mavjudligi bois butun islom olamining muqaddas ziyoratgohi sanalgan. Buxoroyi sharifdan bu tepalikka olib boruvchi yo‘l Haq roh – Haqiqat yo‘li, unga kiruvchi darvoza Dari Haqroh – Haqiqat yo‘li darvozasi deb e’zozlangan.

Nomlar va qadriyatlar o‘zgarib, Buxoroga ham zardushtiylik e’tiqodi o‘rniga avval islom dini, XX asr boshlarida esa kommunistik mafkura kirib keldi. Buxoro yana talandi va vayron qilinadi. 1949 yilda ona shahriga so‘nggi bor tashrif buyurgan mashhur yozuvchi Sadriddin Ayniy (1878–1954) tarixiy qo‘lyozmalar asosida Buxoroda dafn etilgan Alp Er To‘nga [Afrosiyob], Abu Hafs Kabir Buxoriy, Daqiqiy va boshqa ulug‘ zotlarning mozorlari o‘rnini aniqlagan ekan. Biroq Ayniyning vafoti bilan bu tarixiy joylarning u aniqlagan o‘rni yana unutildi...

Xayriyatki, 1991 yildan esa boshlagan mustaqillik nasimi Buxoroda ham shahar qiyofasi va muqaddas qadamjolarga e’tiborni tubdan o‘zgartirdi. Alp Er To‘nga [Afrosiyob] va Kabir Buxoriy kabi ulug‘ zotlar dafn etilgan Hazrati Imom qabristoni XXI asr boshlarida qayta obodonlashtirildi hamda ko‘hna Buxoroda tarixiy adolatni tiklash va qaror toptirish jarayoni boshlandi [1] . Shaharning markaziy ko‘chalaridan biriga Afrosiyob nomi berildi. Xullas, Afrosiyob yana Buxoroga qayta boshladi...

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1997 yil 19 oktyabrda Buxoro shahrining 2500 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zida Alp Er To‘nga (Afrosiyob)ning o‘zbek xalqi tarixida tutgan o‘rni hamda Buxoro shahri va Afrosiyob siymosining tutash nuqtalari haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi:

“Buxoro o‘lkamizning ming yillar davomida jahon tafakkuri, ma’naviy, madaniy va diniy qadriyatlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan, shariflik nomiga sazovor bo‘lgan muqaddas joylaridan biridir.

*Buxoro **“qubbatul islom”**, ya’ni **“islom dinining gumbazi”** va buyuk ulamolar so‘zi bilan aytganda, **“quvvati dini islom”** deb tan olinishi ham Buxoroning*

[1] Turkiyalik bir tilchi, ya'ni G‘oziy universiteti professori Nijati Demir, kaminanining Alp Er To‘nga kitobi bilan tanishgach, u Turkiya va O‘zbekistonda internetda e'lon qilgan ko‘plab suhbatlarida go‘yoki o‘zi Buxoroda Alp Er To‘nga qabrini topganligi haqida maqtanchoqlik bilan shov-shuv ko‘tarib, butun dunyoga jar soldi. Holbuki, buxorolik tarixchi Narshaxiy bundan 1100 yil muqaddam bu haqda aytib ketgan edi.

jahonda, bugungi Sharq mintaqasida musulmon dunyosining mo‘’tabar markazlaridan biri bo‘lishidan e’tirofdir...

Buxoroning har bir qarich eri, har bir tarixiy va madaniy obidasi el-yurtimizning buyuk iqtidori va yaratuvchilik salohiyatidan, yuksak taraqqiyot, ilmu ma’rifat, ma’naviyat va madaniyat, falsafa va din ravnaqi yo‘lidan darak berdi.

X asrning mashhur tarixchisi, asli buxorolik ***Abu Bakr Muhammad Narshaxiy*** *naql qilishicha, Buxoroga turkiy qabilalar asos solgan bo‘lib, bu erda* ***“suv va daraxtlar, ov qilinadigan jonivorlar ko‘p bo‘lganidan kishilarga xush kelib, shu erga joylashganlar”****. Narshaxiy shuni ham ta’kilaydiki, eng qadimgi milliy qahramonlarimizdan bo‘lmish* ***Alp Er To‘nga (Afrosiyob)*** *ham aynan Buxoroda dafn etilgan.*

Bu azim shahar, ***Karmana, Boykent, Vobkent, Shofirkon, Romitan, G‘ijduvon*** *kabi qadimgi kentlarni o‘z bag‘riga olgan Buxoro vohasida yashagan erksevar ajdodlarimiz har qanday istibdod va zulmga qaramay, el-yurt ozodligi yo‘lida muttasil qahramonona kurashib keldilar.*

Yovuz bosqinchilarga va istilochilarga qarshi ozodlik bayrog‘ini ko‘targan ***Shiroq, Spitamen, Mahmud Torobiy, Tomir xotun (To‘maris), malika Qabaj xotun*** *kabi ajdodlarimiz jasorati avlodlar uchun vatanparvarlik va shijoat timsolidir”*[1] .

Bu o‘rinda davlatimiz rahbari *“Eng qadimgi milliy qahramonlarimizdan bo‘lmish Alp Er To‘nga (Afrosiyob)”* degan so‘zlari orqali tarixchilar oldiga Turon davlati va uning dastlabki hukmdori haqida tarixiy haqiqatni qaror toptirish vazifasini qo‘ygan edi. Bu dasturiy vazifalar echimi quyidagi xulosalarga olib keldi:

Birinchidan, Alp Er To‘nga (Afrosiyob) tarixiy shaxs, u eng qadimgi milliy qahramonlarimizdan biri. Afrosiyob Turon davlatining dastlabki xoqonidir.

Ikkinchidan, Alp Er To‘nga Buxoroda dafn etilgan. Buxoroning tarixi Afrosiyob tarixi bilan bevosita bog‘liq. Buxoroning ming yillar qa’rida qolib ketgan qadim tarixini yoritish ayni paytda Afrosiyob shaxsiyatini o‘rganish ham demakdir.

Uchinchidan, Buxoro nafaqat hozirgi O‘zbekiston hududida, balki butun Sharq mintaqasida mo‘’tabar markaz bo‘lganligi bu shaharning juda qadimiyligi va ko‘hnaligidan dalolat beradi. Buxoro – Turon davlatining dastlabki bosh kenti, Afrosiyobning markaziy shahri bo‘lgan. Shuning uchun ham buyuk xoqonning vasiyatiga binoan u aynan o‘zi asos solgan Buxoro tuprog‘ida mangu qo‘nim topgan.

Xullas, Alp Er To‘nganing o‘limi Turon davlati va turkiy xalqlar uchun katta yo‘qotish bo‘ldi. Biroq saklar va boshqa turkiy qavmlar o‘z davlatlarini Eron va

[1] Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. Tom 6. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998. 368–369-betlar.

Midiyaga qarshi ayovsiz kurashda saqlab qola oldilar. Alp Er To‘nga vafotidan keyin Turon davlatini uning o‘g‘li (Alisher Navoiyning yozishicha, Arjasb) boshqaradi. Bu haqda mashhur yunon tarixchisi Gerodot ham o‘z asarida muhim ma’lumotlarni keltiradi.

AFROSIYOB – TURKIY ELLAR DAVLATCHILIGINING KO'P MING YILLIK BOSH G'OYASI

G'aybulla Boboyorov
Professor, tarix fanlari doktori, O'zR FA Milliy arxeologiya markazi

Annotatsiya. *"Turon" va "Turkiston" yer otlari - toponimlari qachon, qaysi o'lkalar uchun qo'llanilgani bo'yicha qarashlar bir qator izlanishlarida o'rin olgan bo'lsa-da, bu to'g'rida bugungacha qarama-qarshi yondashuvlar qarashlar bildirilmoqda. Maqolada ushbu yer otlarining ilk bor qaysi tillardagi yozma manbalarda uchrashi va qayerlarni qamrab olishi, har ikkalasining bir-biri bilan bog'liq tomonlari ko'rib chiqiladi.*

Ochqich so'zlar: *qadimgi davr, o'rta asrlar, Turon, Turkiston, turkiy xalqlar, davlatchilik, g'oya, sug'diy hujjatlar, arman manbalari, tangalar.*

Аннотация. *Хотя мнения о том, когда и для каких стран использовались топонимы «Туран» и «Туркестан», до сих пор существуют противоречивые мнения по этому поводу. В статье, в каких языках эти топонимы впервые встретились в письменных источниках и где они использовались, а также аспекты, связанные друг с другом.*

Ключевые слова: *античность, средневековье, Туран, Туркестан, тюркские народы, государственность, идея, согдийские документы, армянские источники, монеты.*

Abstract. *Although there are still conflicting opinions on when and for which countries the toponyms "Turan" and "Turkestan" were used. In the article, in which languages these toponyms were first encountered in written sources and where they were used, as well as aspects related to each other.*

Keywords: *antiquity, Middle Ages, Turan, Turkestan, Turkic peoples, statehood, idea, Sogdian documents, Armenian sources, coins.*

Bundan ming yil, balki undan-da ko'proq vaqt ilgari turkiylar orasida bir g'oya tug'ilgan edi. Bu shunday bir ulug'vor tushuncha ediki, "Turklarning ilk xoqoni Afrosiyob – Alp Er To'ngadir, u Samarqand-u Buxoroni, Marvni, Xorazm shaharlarini, O'zgand-u Andijonni, Issiquko'l bo'yidagi Barsg'onni, Koshg'ar va yana o'nlab yirik shaharlarni qurgan, hatto sevikli qizi o'ynab-o'ssin deb Erondagi Qazvinni qurdirgan, qadim Eron shahonshohlarining dodini bergan, kuch-qudratda yo'lbars kabi alp, alplarning alpi, bilgalarning bilgasi" deb kuylardi so'zga chechan turkiy oqin-u baxshilar.

Samarqandni "turkchasi *"Semizkend" – bo'liq shahar demakdir"* degan so'zlarni ilk bor qog'ozga tushirgan atoqli alloma Abu Rayhon Beruniy (973-1048) Afrosiyobni Turonning ilk hukmdorlaridan deya tilga olar ekan, turkiy tilning buyuk jonkuyarlari, XI yuzyillikda yashab ijod qilgan - Mahmud Koshg'ariy va Yusuf Xos Hojiblar bo'lsa *"Alp Er To'nga – forslar uni Afrosiyob*

derlar" deya uning shaxsiga yanada oydinlik kiritishga intildilar. O‘sha chog‘larda yashagan fors bilimdonlaridan biri esa *"Men forslar orasidan shunday (xabarlar) topdim: turk hukmdori Afrosiyob o‘z xazina va qimmatbaho buyumlarini Kerderning yuqorisida, Xorazm o‘lkasidagi dengizning o‘rtasiga ko‘mgan. Abarviz (Parviz) ibn Xurmuzgacha hech kimsa bu to‘g‘rida bilishmagan"* deb yozgan edi [MITT 1939: 431]. Afrosiyob bilan bog‘liq shuncha bilgi – ma’lumotlar etib kelganiga qaramay, sobiq Sho‘rolar boshqaruvi yillarida, hatto o‘lkamiz o‘z erkinligini – mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingi yaqin o‘nyilliklarda ham ko‘plab tarixchi va tilchilarimiz "Afrosiyob xalq og‘zaki ijodining mahsuli, u eng eski chog‘larda Farangrasiyon deb atalgan, uning kelib chiqishi aniq emas, birgina Firdavsiy "Shahnomasi" orqali u turkiylar bilan bog‘lab tushunila boshlagan" degan so‘zlarni bot-bot qaytarib kelishdi. Shu yo‘sinda izlanuvchilarning ko‘pchiligi Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojibning "Alp Er To‘nga – Afrosiyob" ochiqlamasi u yoqda tursin [Babayar 2018: 26-27], Afrosiyobning turkiy negizda ekaniga "o‘gay ko‘z" bilan qaradilar. Emishki, "Firdavsiy qadim Eron va Turon qarama-qarshiligini o‘zi yashagan kezlardagi eronliklar va turkiylar orasidagi savash-u urushlar bilan aralashtirib yuborishi natidasida yanglish o‘laroq Afrosiyob turkka, Turon esa turklarning yurtiga aylanib qolgan". Achinarlisi, sobiq Sho‘rolar chog‘ida atayin chigallashtirilib quloqlarga quyilgan bu tushuncha shunchalik keng yoyildiki, o‘nlab yozma manbalarga tayanib buning teskarisini aytsangiz ham "ko‘zini ko‘r, qo‘log‘ini kar" qilib oladiganlar ko‘plab topildi va topilishda davom etdi. Holbuki, *"Mazduron – Marz-i Turon "Turklarning chegarasi"* deyishadi" deb yozgan Beruniy Firdavsiydan birmuncha keyin tug‘ilgan bo‘lsada, "Shahnoma" yozilganda u el-ulusga allaqachon tanilib ulgurgan edi [Beruniy 1973: 466]. Qolaversa, Samarqand el-tamg‘asi (gerbi) bilan bostirilgan VI – VII yuzyilliklarga tegishli Sug‘d tangasida sug‘diy yozuvda *xwβ twrnyn x’γ’n* "Turon hukmdori xoqon" degan so‘zlar yozilgan bo‘lib [Boboyorov 2018: 3-15], ushbu tangalarning bostirilishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri Turk xoqonligi (552-744) boshqaruvchilari bilan bog‘liqdir. Demak, Firdavsiy va Beruniydan deyarli to‘rt yuz yil oldin Turkiston kabi Turon ham turk xoqoni davlatining nomlaridan biri bo‘lgan[1].

Afrosiyob to‘g‘risida qanchalik qarama-qarshi ko‘zqarashlar bildirilmasin, unga tarixda o‘tgan kishi, yo bo‘lmasa, afsonaviy yoki yarim afsonaviy shaxs deb qaralmasin, baribir tarixiy bir haqiqatni – chinlikni tan olish kerak bo‘ladi. Bundan bir necha ming yillar ilgari turkiylar orasida shunday bir ulug‘vor g‘oyaning tug‘ilgani, el-ulusning Afrosiyobga "ilk xoqonimiz, turklarni dunyoga tanitgan, go‘zal shahar-u kentlarni u qurgan" deb ishonib, uni elning birligini, birdamligini saqlash uchun o‘zlarining ilk milliy qahramoniga aylantirganliklarining o‘ziyoq buyuklikning bir belgisi – ko‘rsatkichi edi. Shunday bir inonchga ega bo‘lgan ota-bobolarimiz uni o‘rnak olib, uch qit’a bo‘ylab o‘nlab davlatlar qurdilar, Sharqiy Evropada, Kavkazda, Old Osiyo-yu Kichik Osiyoda, Eronda,

[1] Babayar 2018. – S. 26-49; Boboyor, Jumaniyozova https://oyina.uz/kiril/article/1567

Hind-u Xitoyda, Misr va yana ko‘plab o‘lkalarda o‘z dovrug‘ini yoygan el sifatida dunyoga tanildilar.

Quyida bu masalani yanada teranroq tushunib yetish uchun “Turon” atamasining qachondan, qaysi yuzyilliklardan beri “turklar o‘lkasi” anglamida tushunila boshlaganini VI – VIII yuzyilliklarga tegishli sug‘diy yozuvli Samarqand tangalariga suyanib, shuningdek, Turon va Turkiston atamalari kimlar tomonidan qachon qayerlarga qarata qo‘llanila boshlaganini sug‘diy, arman, o‘rta fors (pahlaviy) va eski turk yozma manbalari bilgilaridan kelib chiqib yoritishga intilamiz.

“Turon” atamasi qachondan beri turkiylar o‘lkasi anglamida qo‘llanila boshlagan?

Bugungi kunda “O‘rta Osiyo” yoki “Markaziy Osiyo” deb atalayotgan mintaqamiz qadimgi chog‘larda, yo bo‘lmasa, o‘rta asrlarda qanday atalgan? Bugun biz yashab turgan mintaqamizga qo‘shni o‘lkalar uzoq davrlardan beri deyarli bitta nom bilan atalib kelayotganini yaxshi bilamiz. Kunbotarimizdagi qadimiy o‘lka Eron, birmuncha kungayimizda – janubimizda o‘rin olgan o‘lka Hindiston, kunchiqarimizdagi ulkan yurt – Xitoy (Chin) o‘lkalari nomining ildizi bundan 3 ming yil oldinga borib taqalishi to‘g‘risida maktab chog‘larimizdayoq bilib olganmiz. Biroq Markaziy Osiyo xalqlarini birlashtiradigan tarixiy nom “Turon” atamasi bo‘yicha haligacha ko‘pchilik bir to‘xtamga kelmagan.

Mavzuga birmuncha kengroq to‘xtalishdan oldin Turon atamasi bugungi kundagi qanday tushunilayotgani masalasiga ko‘z yugurtirsak:

1. “Turon” atamasi X asrlargacha, ya’ni Firdavsiyning “Shahnoma” asarida “turklar” ma’nosida ishlatilgach, sharq mualliflari ushbu atamalarni bir ma’noda tushuna boshlagan degan qarash keng tarqalgan. Unga ko‘ra, bungacha ushbu atamasi sharqiy eroniy tilli xalqlar – sug‘diylar, baqtriylar, qadimgi xorazmliklar va yana bir qator elatlarni qamrab olib, ular eroniy tilli xalqlarning bir bo‘lagidir, shuning uchun bu atamani turklar bilan bog‘lab tushunish yaramaydi” degan qarashlar bor va bu fikr ko‘plab ilmiy adabiyotlarda o‘z ifodasini topgan.

2. Bir turkum olimlar, ayniqsa, mintaqaning turkiy tilli respublikalari ziyolilari orasida “Turon – bu Turkiston atamasining sinonimi, ushbu atamaning negizida qadimgi turkiy xalqlarning uzoq ajdodlarining nomi bo‘lmish “tur” so‘zi yotadi, qo‘shni eronliklar ularni “turon”, ya’ni “turlar” deb ataganliklari tufayli bu atama “Turon” ko‘rinishini olgan” degan tushuncha keng yoyilgan. Biroq bu qarash biror chuqur tadqiqot orqali ommaga yetkazib berilmagani, shuningdek, manba ma’lumotlari yetarsizligi tufayli ilmiy isbotlangan fikr sifatida qabul qilinmagan.

Har ikkala qarashning u yoki bu darajada o‘z chinliklari bo‘lib, ulardan biri “Turon” atamasining ancha qadimdan merosxo‘ri, ikkinchisi esa keyinchalik uni o‘z o‘zligining bir parchasiga aylantirgan bo‘lishi mumkin. Nima bo‘lgandayam, bu so‘z, ayrim istisnolarni aytmaganda, Markaziy Osiyo xalqlarining deyarli

barchasi uchun milliy o‘zlikning bir parchasi, milliy qadiriyat, milliy “kod”ga aylangan. Buni ayniqsa O‘zbekiston, Qozog‘iston va Tojikistondagi joy nomlari, bank yoki biror korxona nomi, jurnal va hokazo nomlari sifatida qo‘llanilayotgani, OAVlarda va ilmiy-ommabop nashrlarda bu so‘z bot-bot ishlatilishi tasdiqlab turibdi. Qirg‘iziston va Turkmanistonda boshqa atamalarga ko‘proq urg‘u berilgani bois ularda “Turon” so‘zi keyingi o‘nyilliklarda birmuncha kam qo‘llanilishi ko‘zga tashlanadi, biroq qayta qurish yillari va mustaqillikning ilk yillarida bu atamani ardoqlashgani kuzatiladi.

Deyarli 30 yillik ilmiy izlanishlarimiz chog‘ida bitta savol bizni ko‘p o‘ylantirib keladi. O‘rta Osiyo o‘tmishi, aniqrog‘i, o‘zimiz yashaydigan yurt – O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan bugungi kundagi kitoblarni varaqlaganda shunga taniq – guvoh bo‘ldikki, bizning yurtimiz, u istar O‘zbekiston bo‘lsin, istar O‘rta Osiyo yoki Markaziy Osiyo bo‘lsin, o‘tmishimizning har bir bosqichi uchun birlashtiruvchi, birdamlikka chorlovchi atamalardan ko‘ra ko‘proq o‘zaro ajratuvchi, kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lingan o‘nlab atamalar to‘lib-toshib yotibdi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, Eron, Hind, Xitoydan farqli o‘laroq, bugungi kunda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, tojik xalqlari bir orada yashagan tarixiy yurtni ham o‘zimizning izlanuvchilarimiz, ham chet elliklar turlicha atamalar bilan yozgani va yozishda davom etayotganiga ko‘zimiz tushadi. Xo‘sh, bunday yondashuvning negizida nima yotadi, chindan-da mintaqamiz uchun yalpi bir atama bo‘lmaganmi yoki bu bizning “topqirligimizmi”? To‘g‘ri, kimlardir mintaqamizni yalpi olib “Turon” yoki “Turkiston” deb yuritishni yoqlaydi va o‘z izlanishlarida shu atamalarni ishlatadi. Kimlardir esa bunga qarshi chiqib, chet elliklar tomonidan qo‘llanilgan – yunoncha “Transoksiana”, arabcha “Movarounnahr”, forscha “Varorud”ni, yo bo‘lmasa, yanada maydalashib “Qadimgi Baqtriya”, “Sug‘diyona” yoki “Sug‘d”, “Katta Xorazm”, “Choch”, “Dovon – Farg‘ona”, “Marv”, “Xatlon” kabi atamalarni ishlatishni yoqlab chiqadilar. Ayniqsa, bunday yondashuvni chet elliklardan emas, o‘zimizning yerli – mahalliy tarixchilarimizdan eshitib yoki o‘qib qolsak, “qay biri to‘g‘ri-yu, qaysisiga ishonish kerak” deya miyamiz chalg‘ib qoladi.

Kezi kelganda aytib o‘tish kerak, mintaqamizni yaqindagina o‘ylab topilgan “O‘rta Osiyo” yoki “Markaziy Osiyo” deb yuritmasdan, ota-bobolarimiz qanday atagan bo‘lsa, shunday atashimizga nima to‘siq bo‘ladi-yu, Baqtriya, Sug‘d, Xorazm, Choch, Farg‘ona deb yanada kichikroq nomlar bilan yuritishni yoqlovchilarning qarashlari qanchalik asoslangan! Nega ushbu qarashni yoqlaydiganlarga Turon yoki Turkiston atamasini ishlatishga qarshi chiqadilar?

O‘tmishimizni o‘rganayotgan, umrining ko‘p qismini shu yo‘lga tikkan olimlarimizning bir yoqadan bosh chiqarishiga to‘sqinlik qilayotgan holatlarni birma-bir qarab chiqib shu to‘xtamga keldik: tarixchilarimizning sezilarli bir bo‘lagi arxeologlar bo‘lsa, sezilarli bir bo‘lagi manbashunoslardir, ayrimlarini aytmaganda, ular orasida barchasi ham arxeologik topilmalar-u yozma manbalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanish emaslar. Arxeologlar turli tillarda yozilgan

manbalarni yetarlicha o‘qib, tushunib ololmaganlaridek, manbashunos yoki boshqa tarixchilarimiz arxeologik topilmalarga sinchiklab o‘rganib chiqishga qiynalib qolishadi. Bu esa biror tarixiy voqelikni, atamani ochiqlashda turlicha yondashishlarni keltirib chiqarmoqda. Buning yorqin bir o‘rnagi “Turon” va “Turkiston” atamalarida ko‘zga tashlanadi. Yetuk arxeologlarimizdan biri eski chog‘larni o‘rganar ekan unga “O‘rta Osiyo, Transoksiana demang, buning o‘z nomi bor – Turon, Turkiston” desangiz “yaxshi, yozma manbalarni qaytadan bir qarab chiqar ekanmiz-da” demasdan birdaniga “buni qaydan olding, yozma manbalarda bunday bilgi – ma’lumot yo‘q” deb oyoq tirab olishini qanday tushunishni ham bilmay qolasiz. Shunga o‘xshab, umrining ko‘p yillarini qo‘lyozmalar yonida o‘tkazgan biror manbashunosimizga “hadeb negizi arabcha bo‘lgan va so‘zlik ma’nosi “Daryoning naryog‘i, aniqrog‘i, Amudaryoning u tomoni” anglamida bo‘lgan Movarounnahrni qo‘llanavermasdan, ota-bobolarimiz qo‘ygan nomlarni ham ishlating” deb ko‘ring-chi!

Qisqasi, yozma manbalarni yetarlicha yaxshi bilmaslikdan kelib chiqqan bunday yondashuvlarga yechim bo‘ladi degan o‘yda, quyida “Turon” va “Turkiston” atamasining qachondan boshlab qo‘llanila boshlagani masalasiga birmuncha to‘xtalib o‘tsak. Aslida, Turkistondan ancha ilgari mintaqamizning yalpi nomi bo‘lgan “Turon” atamasi bilan bog‘liq masalalarga yechim topish kerak bo‘ladi.

Birinchidan, miloddan oldingi so‘nggi mingyillikda Markaziy Osiyo mintaqasi uchun umumiy va yaxlit nom sifatida ishlatilib, dastlabki etnik negizida mintaqaning aynan qaysi tilda so‘zlashuvchi xalqlari yotishi to‘laqonli aniqlanmagan “Turon” atamasining milodiy VI – VIII asrlardayoq turkiy xalqlar yashaydigan hududlarni – Markaziy Osiyo va unga qo‘shni ayrim hududlarni ifodalagan atamaga aylanganini ayta olamiz. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, eronliklar nega o‘zlariga til va madaniyati bo‘yicha yaqin bo‘lgan markaziy osiyolik sharqiy eroniy tilli xalqlarni o‘zlaridan ajratib “turlar”, “turonliklar” deb atagan. Sharqiy eroniy tilli xalqlar – qadimgi xoarzmliklar, baqtriylar, sug‘diylar va boshqalar ham o‘troq, ham zardushtiy inonchga ega elatlar bo‘lib, “turonliklar” deganda ko‘chmanchi va zardushtiylikka qarshi elatlar ko‘zda tutilgan-ku!



Ikkinchidan, “Turon” so‘zi islomdan oldingi davrlarda ham etnik kelib chiqishi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar mintaqaning forsiy va turkiy tilli xalqlari uchun baravar qo‘llanilganini quyidagi ma’lumotlar tasdiqlaydi.

Sug‘d o‘lkasi tangalarining sezilarli bir bo‘lagini “Eski turk tangalari turkumi” tashkil etib, ular orasida ko‘rinishidagi Samarqand tamg‘asi bilan bostirilgan shu kabi tanga turlarida sug‘diy yozuvda “xoqon” unvoni uchraydi: 1) o‘ng yuzasida biroz qisiq ko‘zli, soqolsiz, dumaloq yuzli erkak kishi tasviri, orqa yuzasida esa “Turon hukmdori xoqon” unvoni o‘rin

olgan tangalar, 2) o‘ng yuzasida to‘g‘riga qaragan, biroz qisiq ko‘zli, dumaloq yuzli erkak kishi tasviri va uning so‘l yonida “xoqon” unvoni, orqa yuzasida esa to‘g‘riga qaragan, dumaloq yuzli xotin kishi tasviri va uning so‘l yonida ko‘rinishidagi tamg‘a, o‘ng tomonida esa “xotun” unvoni o‘rin olgan tangalar.

Bizning A. Kubatin bilan birgalikda yuritgan ko‘p yillik izlanishlarimiz so‘nggida ushbu Samarqand tangasidagi yozuv xwβ twrnyn x’γ’n o‘laroq o‘qilishi [Babayarov, Kubatin 2012: 11, 15-16] tangashunoslar orasida ayrim ikkilanishlarni keltirib chiqardi. Tanga yozuvining o‘qilishida biror chigallik bo‘lmasada, ushbu tangalarning kim va qaysi sulola tomonidan qachon va qayerda bostirilgani yuzasidan bir qator noaniqliklar bor. “Turon hukmdori xoqon” deb o‘qilgan tanga yozuvida “Turon” atamasining uchrashi, shu bilan birga, “xoqon” va xwβ so‘zlarining bir orada kelishi kabi chigalliklar yuzasidan ushbu atamalar bilan bog‘liq bir necha savollar tug‘ilmoqda. Sug‘diy yozuv tizimida turon so‘zi twr’n yozilishi kerak edi, biroq tangada twrn-yozilgani ko‘zga tashlanadi. Ayrim o‘rinlarda bitta atamaning turlicha yozilgani sug‘diy yozuvda ham uchrab turadi. Boshlang‘ichda “hukmdor, boshqaruvchi” anglamlarida ishlatilgan xwβ so‘zi sug‘diy yozma yodgorliklarda ko‘p uchraydi. Ayniqsa, ilk o‘rta asrlarga tegishli O‘rta Osiyo o‘troq hukmdorliklari boshqaruvchilari uchun, ayrim o‘rinlarda kichik bir siyosiy uyushma yetakchisi uchun qo‘llanilgan bu so‘z keyinchalik biror unvon emas, “boshqaruvchi” degan sifat bildiruvchi so‘zga aylangan edi. Demak, bu atama xoqonning Turon o‘lkasining, ya’ni bugungi Markaziy Osiyoning bosh hukmdori ekanini bildirish uchun ishlatilgan.

Bundan tashqari, ayrim izlanuvchilarga ko‘ra (o‘rn. angliyalik taniqli sug‘dshunos N. Sims-Villyams), “Turon atamasi biror o‘lka, davlat yoki shunga o‘xshash siyosiy tuzilma bilan bog‘liq o‘laroq uchrasa-da, o‘sha kezlarda bu atama eski turklarga tegishli ekani aniq emas”. Biroq eski eroniy elatlar Turon deganda O‘rta Osiyoni, ayniqsa, Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i (Transkoksiana / Movraunnahr)ni o‘z ichiga olgan yerlarni, Eronning shimoli-sharqidagi Xuroson o‘lkasidan boshlab, Sug‘d va uning tegralarini qamragan yerlarni ko‘zda tutishgan. Demak, Turk xoqonligi boshqaruv chog‘ida bu yerlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xoqonlik qo‘l ostiga o‘tgan, shuning uchun Samarqand tangalarida “Turon hukmdori xoqon” so‘zi uchrashini o‘zini oqlaydi. Ustiga-ustak, bu turkum tangalarda o‘rin olgan kishi tasvirining biroz qisiq ko‘zli, soqolsiz, dumaloq yuzli qilib chizilgan bo‘lib, shu tomondan Choch va Farg‘onada bostirilgan G‘arbiy Turk xoqonligi tangalari bilan yaqin o‘xshashlikka ega. Ham unvon (xoqon), ham tasvirlardagi yaqin o‘xshashlik ushbu Samarqand tangalarini xoqonlik bilan bog‘lashga undaydi. Shu yo‘sinda Samarqandning “xoqon” unvonli tangalarini V yuzyillik bilan emas, VI yuzyillikning so‘nggi o‘nyilliklari – VII yuzyillikning o‘rtalarida bosib chiqarilgan deb qarash to‘g‘riroq bo‘ladi.

Taniqli amerikalik eronshunos olim R. Fray “Avesto”da uchraydigan “tur” yoki “tura” etnonimini turkiylar bilan bog‘lab, boshlang‘ichda ushbu etnik atama sharqiy eroniylar uchun qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ancha qadimdan beri turkiylarga

nisbatan ishlatila boshlagan, deb yozadi. Unga koʻra, “turk” etnonimining oʻzi ham ushbu “tur” soʻzi negizida oʻrtaga chiqqan va ilk oʻrta asrlarga kelgach “turklar” maʼnosini bildira boshlagan [Frye 1946: 97–131]. Turk / Türk atamasining ildizi tur- / tür- boʻlib, unga qadimgi turkcha koʻplik qoʻshimchasi “-lar”ning bir turi boʻlmish -k qoʻshilib (tur+k = Turlar) «Türk» etnonimi kelib chiqqan. Ehtimol, muayyan bir etnos uchun qadimgi turklar oʻz tillaridagi koʻplik qoʻshimchasida Tur-k, eronliklar esa Tur-ān (ān – eroniy tillarda koʻplik yasaydigan qoʻshimcha) atamasini ishlatishgan, buning negizida esa “Turklar yashaydigan oʻlka” maʼnosida “Turon” toponimi kelib chiqqan [Fray 2002: 66–67; Kamoliddin 2006: 11]. “Turon” atamasining turkiylar bilan qanchalik bogʻliqligi, bu atamaning qaysi davrlarda, ilk oʻrta asrlardami yoki oʻrta asrlardami, yo boʻlmasa ancha qadimdan boshlab “Turklar oʻlkasi” sifatida qoʻllanilganmi mazmunidagi savollar oʻz yechimini topishi uchun Samarqand tangalari va boshqa yozma maʼlumotlarning yanada chuqurroq oʻrganilishi kerak boʻladi. Amudaryo – Sirdaryo oraligʻi va unga tutash oʻlkalarda Qorxaniylar boshqaruvi oʻrnatilgach, endi bu atama turklar oʻlkasi maʼnosini olgan, deb qarash qanchalik toʻgʻri?

Shu oʻrinda oʻz asarlarini Qoraxoniylar kelishidan oldinroq yoza boshlagan Abu Rayhon Beruniy (973–1048) Xurosondagi Mazduron (Turkmanistondagi Saraxs mavzesi) toponimini aslida “Marzi Turon” deb keltirishi va uning “turklar chegarasi” maʼnosida ekanligiga urgʻu berishi qiziq [Beruni 1973: 466]. Xatto, Qoraxoniylar kelishidan burun yashab oʻtgan Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vaf. 997) oʻzining “Mafotih ul-ulum” (“Bilimlar kaliti”) nomli asarida Beruniy keltirgan maʼlumotni undan ancha oldin quyidagicha keltiradi: *“Jayhun daryosining havzalarini eronliklar Marzi Turon deb ataydilar, yaʼni turklarning chegarasi maʼnosida, biroq Xuroson aholisi uni Marzi Eron, yaʼni Iroq chegarasi oʻlaroq ataydilar”* [Baxodirov 2009: 114]. Aytib oʻtish kerak, bu yerda Iroq atamasi aslida oʻrta asrlarda Eron uchun ham qoʻllanilgani bilan bogʻliq boʻlib, musulmon manbalarida “Iroqi arab” va “Iroqi ajam” kabi geografik atamalar oʻrin olgan edi. Ulardan ikkinchisi arab boʻlmagan oʻlkalar, koʻproq Eron aholisi uchun ishlatilar edi.

“Turon” atamasi faqatgina geografik atama boʻlmasdan, kishi ismi oʻlaroq ham turkiy xalqlar tomonidan ham oʻtmishda, hamda bugungi kunda qoʻllanilib kelayotganini aytib oʻtish kerak. VII asr oʻrtalarida Samarqandga elchi yuborgan Chagʻoniyon boshqaruvchisi *twrʼntš* (Turontosh) ismi sugʻdiy yozuvli Afrosiyob (Samarqand) devoriy bitigida uchraydi [Albaum 1975: 55]. Shuningdek, “Turon” soʻzi oʻlka va kishi ismi oʻlaroq tarixiy Turon oʻlkasi – Amudaryo – Sirdaryo oraligʻi va unga tutash yerlardan tashqari ancha uzoqda – Oltoy togʻlari va tevaragida ham uchraydi. Ilk oʻrta asrlarga tegishli Irtish daryosi havzasidan topilgan qadimgi turk bitigida Alp-Turan (Alp-Turon) ismi oʻrin olgan. Bugungi kunda ham Oltoy togʻlari yaqinidagi bir shahar “Turan” deb ataladi. Xitoy

yilnomalarida esa Tu-jüe (Turk xoqonligi) boshqaruvchilaridan biri *Turon xoqon (*Dulan-xan*) o‘laroq tilga olinadi.

Qisqasi, *xwβ twrnyn* “Turon hukmdori” va *xwβ twrnyn x’γ’n* “Turon hukmdori xoqon” so‘zlari o‘rin olgan ushbu Samarqand tangalari ham unvon, hamda hukmdor tasviri qadimgi turklar bilan bog‘liq bo‘lib, Turk xoqonligiga to‘g‘ridan-to‘g‘riga borib taqaladi. Ilk o‘rta asrlardayoq “Turon” va “Turkiston” atamalari deyarli bitta ma’noda qo‘llanila boshlganidan kelib chiqilsa, bu davrda Turk xoqonligi uchun qo‘llanilgan nomlaridan biri “Turon” bo‘lgani o‘z tasdig‘ini topadi. Ustiga-ustak, har qanday tangada o‘rin oladigan so‘zlarning rasmiy maqomga ega bo‘lishi ko‘zda tutadigan bo‘lsak, turk xoqonlarining o‘z o‘lkasini / davlatini “Turon” deb ham atagan bo‘lib chiqadi. Boshqa tomondan esa, chamasi ushbu tangalar Samarqandning yerli boshqaruvchilariga tegishli bo‘lib, o‘z xo‘jayinlari bo‘lmish turk xoqonlari nomidan tanga bostirib chiqarar ekan, ular bilan bog‘liq so‘zlar – “xoqon” va “Turon” atamalarini qo‘llashni ma’qul ko‘rishgan. Demak, VI–VIII yuzyilliklarda Samarqandda turk xoqonlari tomonidan yoki ular nomidan bostirilgan sug‘diy yozuvli mis tangalarda “Turon hukmdori xoqon” so‘zlarining uchrashi o‘z davrining tarixiy voqeliklari bilan chambarchas bog‘liq. Aslida turkiylar o‘zlari yashaydigan o‘lkalarni boshlang‘ichda o‘z ona tiliga moslab “Turk eli” deb atagan bo‘lsalar-da, keyinchalik qo‘shnilari va qo‘l ostidagi o‘zga etnoslar ta’sirida “Turon” va “Turkiston” deb ham atay boshlagan deya olamiz. Ushbu tangalardagi *twrnyn* so‘zi *twrn* “Turon” va sug‘diycha tegishlilik qo‘shimchasi –yndan yasalgan bo‘lib (“Turonning, Turonga tegishli”), uni *xwβ* va *x’γ’n* so‘zlari bilan birga “Turon hukmdori Xoqon” deb o‘qish kerak [Boboyorov 2018: 3-15]. Chamasi bu yerda Turon, geografik va etnosiyosiy tomondan “Turklar o‘lkasi / davlati”ni anglatgan va “Turkiston” atamasi singari u Turk xoqonligi uchun ishlatilgan. Buning negizida ilk o‘rta asrlarda arman, sug‘diy, pahlaviy (o‘rta fors) kabi turkiylarga qo‘shni yoki ular bilan yonma-yon yashagan etnoslarning Turk xoqonligini ayrim hollarda “Turkiston” yoki “Turon” deb ataganligi omili yotadi. Boshqa tomondan esa Samarqandning yerli boshqaruvchilari o‘z o‘lkasini “Turon” deb atashgan bo‘lib, uni tangalarda aks ettirishgan, Turk xoqonligi esa bu yerni o‘z qo‘l ostiga olgach ushbu an’anani davom ettirishgan, deb taxmin qilsa bo‘ladi.

Endi, Turon so‘zining birmuncha tor varianti bo‘lib, ko‘proq Markaziy Osiyoga nisbatan qo‘llanilgan “Turkiston” atamasiga to‘xtalsak. Ma’lumki, bu atama yaqin asrlarda bo‘lganidek bugungi kunda ham Kavkaz, Volgabo‘yi, Sibir va Oltoy o‘lkalari uchun qo‘llanilmay, asosan, Markaziy Osiyo (5 ta mustaqil respublika, XXRdagi Shingjon-uyg‘ur avtonom rayoni va Shimoliy Afg‘oniston) uchun ishlatiladi. Ko‘rinishidan, bu atama islomdan oldingi davrlar va o‘rta asrlarda ham ko‘proq ushbu o‘lkalarga nisbatan qo‘llanilgan.

“Turkiston” so‘zining ilk bor ishlatila boshlagan kezlari – ilk o‘rta asrlar, to‘g‘rirog‘i, Turk xoqonligi chog‘i (552-744 yy.) bilan cheklandik. Undan keyingi chog‘larda, ayniqsa, Qoraxoniylar (942-1212 yy.), Temuriylar (1365-1506),

Shayboniylar (1501-1601) va o‘zbek xonliklari boshqaruvi chog‘ida bu atamaning qay yo‘sinda ishlatilgani-yu, bu to‘g‘rida yozma manbalar nima degani masalasiga to‘xtalishni ham keyingi izlanishlarimizga qoldirdik.

“Turkiston” atamasi uzoq asrlardan beri Markaziy Osiyo mintaqasining katta bir qismi uchun, aniqrog‘i, Kaspiy dengizining kunchiqaridan to Oltoy tog‘larigacha, Shimoliy Afg‘onistondan to Ural tog‘larigacha cho‘zilgan keng hududning yalpi geografik nomi o‘laroq qo‘llanilib kelgan. To‘g‘ri, bu atama turli davrlarda kengayib, ushbu hududlardan ham kengroq hududlarga qarata qo‘llanilgan, ayrim o‘rinlarda esa birmuncha torroq hududni anglatib qolgan kezlar bo‘lsa-da, o‘nlab asrlar bo‘yi ko‘proq Markaziy Osiyoda joylashgan turli o‘lkalarning birlashtiruvchi oti bo‘lib kelgani anglashiladi. Ayrim o‘rinlarda Turkiston deganda aytib o‘tilgan o‘lkalar bilan birga Dog‘iston va Ozarboyjon o‘lkalarini ham qamrab olgan keng hudud tushunilganiga ham duch kelamiz.

Turkiston atamasi qachon, qaysi hududlar uchun qo‘llanilgani bo‘yicha qarashlar taniqli tarixchilarimiz A. O‘rinboyev, A. Asqarov, A. Ahmedov, M. Is’hoqov, B. Mannonov, Sh. Kamoliddin va turkolog Q. Mahmudovlarning izlanishlarida o‘rin olgan va uning o‘rni aniq ko‘rsatib berilganiga qaramay [O‘rinboyev 1960: 84-85; Askarov 1997: 67; Ahmedov 1992: 5-6; Is’hoqov 1993: 1, 5; Mannonov 1998: 68; Kamoliddin 2002: 61-68; Mahmudov 2003], yuqorida aytib o‘tganimizdek, bu to‘g‘rida bugungacha qarama-qarshi yondashuvlar qarashlar bildirilmoqda. Ayniqsa, ayrim yerli va chet el nashrlarida Turkiston atamasi yuzasidan quyidagicha biryoqlama va yanglish qarashlar borligi ko‘zga tashlanadi:

1) «Boshlang‘ichda arablar kelishidan birmuncha oldin Sirdaryoning kunchiqaridagi turkiy elatlar yashaydigan o‘lkalarni arab va forslar yalpi nom bilan Turkiston deb atashgan»;

2) «Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i uchun VI – VIII yuzyilliklarda Turkiston atamasini ishlatish mumkin emas, bu atama VIII – IX yuzyilliklarda Sirdaryoning shimoli va kunchiqaridagi o‘lkalarga, ko‘proq Yettisuv uchun qo‘llanilgan, ikki daryo oralig‘i esa Turkiston deb atalmagan»;

3) «Movarounnahr Turkistonga kirmagan, Turkiston deganda Sirdaryoning quyi oqimlari, ko‘pincha bugungi Turkiston shahri tegralari tushunilgan, faqat XIX yuzyillikning ikkinchi yarmida ruslar O‘rta Osiyoni bosib olgach, Turkiston nomi ular tomonidan Sirdaryo va Amudaryo oralig‘ini ham anglata ishlatila boshlagan».

Ushbu qarashlarga javob bera oladigan yuzlab bilgi – ma’lumotlarni o‘rta asrlarga tegishli arab-fors, turkiy va boshqa tillardagi yozma manbalarda uchratish mumkin bo‘lsa-da, maqolamizning ko‘lamini va boshqa tomonlarni ko‘zda tutib, bu yerda ko‘proq ilk o‘rta asrlarga tegishli yozma manbalarga qaratishni intildik. Xo‘sh, ushbu geografik atama qachondan boshlab, qaysi hududga nisbatan ishlatila boshlagan va ilk bor qaysi yozma manbalarda tilga olingan? Akademik E. V. Rtveladze VI – VII asrlarga tegishli baqtriy yozuvli bitikda Turkiston atamasi

ilk bor uchrashini urg‘u beradi. Shuningdek, Sharqiy Turkistondan topilgan 639 yili sug‘diy tilda bitilgan hujjatda Turkiston atamasi uchraydi. Ushbu hujjatda *«chavyak urug‘iga mansub Turkistonda tug‘ilgan cho‘ri Upachah»* to‘g‘risida so‘z boradi. Sug‘dshunos olim M. Is’hoqov «Nomi azal Turkiston» sarlavhali maqolasida ushbu hujjatdagi ayrim bilgilar tayanib, «bu hujjatdan ma’lum bo‘ladiki, Turkiston geografik atamasi o‘lkamizga nisbatan ilk o‘rta asrlardayoq qo‘llanilgan, aniqrog‘i, bundan 1360-1400 yillar ilgari Turon yerlarining umumiy nomi Turkiston deb atalgan» deb yozadi [Is’hoqov 1995: 1, 5].

Yaqin yillarda esa Xo‘tan (Sharqiy Turkiston)da aniqlangan, VIII yuzyillikka tegishli sug‘diy tilli bir hujjatning 13 va 15-qatorlarida “Turkiston” atamasi  /  *twrkystn* ko‘rinishlarida yozilgani diqqatni tortadi. Ushbu hujjat yuzasidan izlanishlar olib borgan eroniy tillar bilimdoni, ingliz olimi N. Sims-Vilyams hujjatdagi Turkiston so‘zini Turon yurtidagi tarixiy o‘lkalardan birining atalishi deya ochiqlaydi [Bo Bi, Sims-Williams 2015: 261-282]. Unga ko‘ra, o‘sha chog‘larda bu atama shimoli-sharqdagi yerlar, ayniqsa, Sirdaryodan Mo‘g‘ulistongacha cho‘zilgan o‘lkalar uchun qo‘llanilgan. Bu qarashga qo‘shilsa bo‘ladi, biroq quyida ko‘rib o‘tiladiganidek, ilk o‘rta asrlarga tegishli arman va o‘rta fors yozma manbalarida “Turkiston” deb Kaspiy dengizining kunchiqaridan boshlab, Amudaryoning yuqori va o‘rta oqimlarini o‘z ichiga olgan va kunchiqardagi Oltoy o‘lkasigacha yoyilgan kengliklar tushunilgani anglashiladi.

Turkiston to‘g‘risida bu kabi qisqa bilgilardan boshqa yanada to‘liqroq bilgi beradigan tarixiy va geografik asar bormi? Biz bu savolga javob topishga urinar ekanmiz, shu yo‘sindagi bilgi - ma’lumotga duch keldik. Asarini VII yuyzyillikning o‘rtalarida yozib tugatgan arman tarixchisi Sebeos 2 ta bilgi keltiradi: 1) *«Dehiston yoxud uning atroflari Turkistondadir;* 2) *«Kushon shohi (Eftalit hukmdori) Shimol hukmdori ulug‘ Xoqon (Turk xoqonligi xukmdori)dan yordam so‘radi. Va u yordamga 30 byur miqdoridagi qo‘shin bilan keldi. Ular (turklar) Turkistondan boshlanuvchi Vexrot (Amudaryo) daryosidan kechib o‘tishdi»* [Ter-Mkrtichyan 1979: 60–61; Frye, Sayili 1946: 119].

Bundan anglashilishicha, Shimoli-Sharqiy Eron (bugungi Turkmanistonning janubiy-g‘arbiy qismi)dagi tarixiy Dehiston viloyati Turkistonda bo‘lgan. Ikkinchi bilgi esa Amudaryoning Turkistondan boshlanishiga urg‘u berilgan bo‘lib, Amudaryoning boshlanishi Vaxsh va Panj daryolari tevarak-atroflariga to‘g‘ri keladi. Sebeosning keltirgan ikkinchi bilgidan bu hudud – Vaxsh – Panj – Yuqori Amudaryo havzalarining Turkiston o‘lkasiga kirgani anglashiladi. O‘sha chog‘larda Yuqori Amudaryo qirg‘oqlarida To‘xoriston yabg‘ulari (chamasi, 620-750 yy.) deb atalgan turkiy sulola boshqaruvda bo‘lib, ushbu sulolaning kelib chiqishi boshqaruv markazlari Suyab (Ettisuv), Jabg‘uket (Choch) bo‘lgan G‘arbiy Turk xoqonligi (568-740) bilan bog‘liq bo‘lgan.

Yana bir arman tarixchisi, VII asrda yashagan Ananiya Shirakasining «Ashxarasuys» («O‘lkalar tasviri») asarida *«sug‘diylar – Ariya (Xuroson) va*

Turkiston oralig‘ida yashaydi» degan bilgi uchraydi [Ter-Mkrtichyan, 1979: 63; Ahmedov 1992: 6]. Ushbu bilgidan Turkistonning o‘rnini aniq belgilash qiyinroq bo‘lsa-da, unda Turkiston deganda Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i ham tushunilganini payqash mumkin. “Sug‘diylar yashagan o‘lka” qadim va ilk o‘rta asrlarda ko‘proq Qashqdaryo va Zarafshon daryolari qirg‘oqlaridagi tuproqlar uchun qo‘llanilganini ko‘zda tutadigan bo‘lsak, ushbu arman tarixchisi Turkistonni birmuncha uzoqda, Sug‘d chegarasida deb ko‘rsatgan bo‘lib chiqadi. Biroq ham arman tilida boshqa yozma manbalar, ham boshqa tillardagi bilgilar Turkistonni kengroq ma’noda olganda Xurosonning bir bo‘lagini – Kaspiy dengizining kunchiqar tomonlarini ham o‘z ichiga olganini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, arman tarixchilari Turkiston to‘g‘risidagi bilgilarni qo‘shnilari bo‘lmish forslardan olishgan. “Turkiston” so‘zi fors tilida «Turklar yashaydigan yurt», «Turklar yeri» degan anglamlarni bildiradi. Demak, forslar VI – VII yuzyilliklarda Turkiston atamasini ishlatgan bo‘lib, keyinchalik bu yondashuv armanlarga ham o‘tgan. Buni ilk o‘rta asrlarga taalluqli o‘rta fors-pahlaviy yozma manbalari ham qo‘llab-quvvatlaydi. O‘rnak uchun, pahlaviycha «Bundahishn» («Dunyo qurilishi») otli geografik asarda Turkiston to‘g‘risida quyidagicha bilgilar uchraydi: 1) *«Zarin tog‘i – Turkistondadir»;* 2) *«Saukavaston o‘lkasi – Turkistondan Kinistonga boradigan yo‘lda, shimoliy yo‘nalishda joylashgan»,* 3) *«Kino (Kino‘) tog‘i kunchiqarda joylashgan, u Turkiston chegarasida bo‘lib, Aparsen tog‘i bilan tutashadi»*[1].

Pahlaviy manbalardagi Turkistonni belgilash uchun yuqorida keltirilgan Saukavaston va Kiniston o‘lkalari hamda Zarin, Kino va Aparsen tog‘larininng o‘rnini aniqlash kerak bo‘ladi. Zarin tog‘ining qaysi toqqa to‘g‘ri kelishi yuzasidan to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, «Bundahishn»da Zarin tog‘i Xurosondagi tog‘lar sirasida sanab o‘tilgani ko‘zga tashlanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asari «Boburnoma»da Afg‘onistonda kechgan voqealarni tilga olar ekan “Ko‘tali-Zarin” (Zarin dovoni)ga to‘xtalib o‘tadi[2].

Izlanuvchilar bu yerni Shimoli-G‘arbiy Afg‘onistonning Kuhi-Bobo tog‘ tizmalaridagi Harirud daryosiga yaqin bir dovon, deb ko‘rsatishadi. Shuningdek, hozirgi kunda ham ushbu hududlarga yaqin tog‘ – Hirot va Balx oralig‘idagi Kuhi-Bobo tog‘ tizmalarining bir qismi «Band-i Turkiston» (Turkiston tog‘ tizmasi) deb yuritiladi. Bu esa «Bundahishn»da eslatib o‘tilgan Zarin tog‘i bilan «Boburnoma»dagi Zarin dovoni bitta ekanini ko‘rsatadi. Shu ham borki, o‘tgan asrlarda ham, bugungi kunda ham Kuhi-Bobo tog‘larining shimolidan to Amudaryogacha cho‘zilgan va Bandi Turkiston tog‘larini ham o‘z ichiga olgan Shimoliy Afg‘onistondagi viloyatlar “Turkiston” yoki “Janubiy Turkiston” deb atalib kelinadi. Bu esa «Bundahishn»dagi Turkiston bilan Shimoliy Afg‘onistondagi Turkiston bitta yer uchun qo‘llanilgan degan qarashga undaydi.

[1] Pahlavi Texts 1987: 37, 41, 120
[2] Baburname 1958: 194a, 226, 529

Endi *«Saukavaston o‘lkasi Turkistondan Kinistonga boradigan yo‘lda, shimoliy yo‘nalishda joylashgan», «Kino (Kino‘) tog‘i kunchiqarda joylashgan, u Turkiston chegarasida bo‘lib, Aparsen tog‘i bilan tutashadi»* degan bilgini ochiqlab o‘tamiz. Buning uchun birinchidan pahlaviy matnlardagi «Saukavaston», «Kiniston» va «Kino‘ tog‘i» atamalari qayerlarga qarata ishlatilganini aniqlash kerak bo‘ladi. Ayrim izlanuvchilarga ko‘ra, Kiniston va Kino‘ tog‘i atamalari Sug‘d vohasiga va undagi tog‘ tizmalari uchun, Saukavaston o‘lkasi esa Zarafshon daryosi qirg‘og‘idagi yerlar uchun qo‘llanilgandir. Aparsen tog‘i esa Xurosondagi tog‘larning yalpi nomi bo‘lgan. Hisor tog‘ tizmalari pahlaviycha asarlarda Kino‘ tog‘i, u joylashgan hudud esa Kiniston deb yuritilgan. «Bundahishn»dagi ushbu bilgidan ko‘rinadiki, Xurosondan kunchiqarga – Sug‘d o‘lkasiga tomon yo‘nalgan yo‘l Amudaryo qirg‘oqlarini ham o‘z ichiga oluvchi Turkistondan o‘tgan. Shuningdek, Sug‘dning bir qismi bo‘lmish «Saukavastan o‘lkasi» ushbu yo‘lning shimolida bo‘lshan. Demak, arman yozma manbalari va pahlaviy matnlardagi bilgilardan ko‘rinadiki, yurtimizning kungay – janubiy tuproqlari, Turkmaniston va Tojikistonning kungayi va Shimoliy Afg‘oniston hududlari Turkistonning chekka janubiy chegaralari bo‘lgan.

Turkiston geografik atamasining Markaziy Osiyoning bir necha o‘lkalariga to‘g‘ri kelishi yoki turli yozma manbalarda uning o‘rni turlicha ko‘rsatilishiga to‘xtalib o‘tsak. Turkiston hududi boshqa tarixiy-geografik o‘lkalar kabi turli davrlarda birmuncha torayib yoki kengayib turgan. To‘g‘rirog‘i, bu holat siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Arab geograflari asarlarida Turkiston deb ko‘proq Sirdaryoning shimoli-sharqiy tomonlari ko‘rsatilishini shu bilan ochiqlanadi. Forscha yozma manbalarda esa ayrim o‘rinlarda Turkiston va Movarounnahrni bo‘lak-bo‘lak o‘lka o‘laroq tilga olganiga ko‘zimiz tushadi. Bilamizki, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i uchun Movarounnahr atamasini qo‘llash arab kirib kelishi so‘ngida tarqala boshlgan. O‘rta asr arab, fors va turkiy yozma manbalarida esa Turkiston atamasi ko‘proq Sirdaryoning quyi oqimidagi tuproqlarga, Sirdaryoning shimoli-sharqiga, Yettisuvga, Farg‘ona vodiysi va Sharqiy Turkistonga nisbatan qo‘llanila boshlagan. Shu bilan birga, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i Turkistonda deb ko‘rsatilgan hollarga ko‘zimiz tushadi. O‘rnak uchun, Hofizi Abruning (XV yuzyillik) «Jo‘g‘rofiya» asaridagi Movarounnahr ochiqlamasida quyidagicha bilgi uchrab, undan ikki daryo oralig‘i uchun Turkiston atamasi qo‘llanilganini anglaymiz: *«Aytishlariga qaraganda… Samarqand shahrini Shamar (ismli) mu’tabar amir qurganmish va u Tubba’ amirlari (Yaman va Arabistonning islomgacha bo‘lgan podshohlari)dan bo‘lib, Turkistonga kelib qolgan. Shundan so‘ng ul (shahar)ni «Shamar-kand» deyishgan»* [Bo‘riyev 1997: 77].

Demak, o‘rta asrlarga tegishli turli tillardagi yozma asarlarda Turkiston atamasining tor yoki keng ma’noda uchrashini ko‘ramiz. Buni o‘sha davrdagi siyosiy-geografik tushunchalarning o‘zgarib turgani bilan ochiqlash mumkin. XVI yuzyillikda Turkiston deb keng ma’noda Shimoliy Afg‘oniston, Shimoliy-Sharqiy

Eron (Xuroson), hatto Ozarboyjon hududi ham tushunilgan hollar ham bo‘lgan. «Qutbnoma» otli asarda Shoh Ismoil Safaviy «piri Turkiston» deb keltirilishi buning yorqin o‘rnagidir[1].

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan bilgilar negizida quyidagicha to‘xtamlarga kelish mumkin. VII yuzyillikka tegishli arman manbalarida Amudaryoning yuqori oqimi Turkistonda deb keltirilgan. Pahlaviy-fors manbalarida esa Shimoliy Afg‘oniston, Amudaryoning yuqori va quyi oqimlari Turkistonga kiritilgan. Sug‘diy hujjatlarda ham ikki daryo oralig‘i Turkistonda ko‘rsatilgan. To‘g‘ri, bu bilgilar keng qamrovli bo‘lmay, ularda Turkiston atamasi biror voqea to‘g‘risida so‘z borganda yo‘l-yo‘lakay aytib o‘tilgan. Shunday bo‘lsa ham ushbu bilgilardan Turkiston deganda hozirgi kun tushunchamizdagi Turkistonni tushunish qiyin emas. Demak, Turkiston geografik atamasi ilk o‘rta asrlardayoq eronliklar tomonidan Eronning shimoli-sharqidagi hududlar uchun «turkiylar o‘lkasi» deb ishlatila boshlagan. O‘z o‘rnida ushbu atamani qo‘shnilari bo‘lmish eronliklardan eshitgan arman tarixchi va geograflari ham qo‘llay boshlaganlar.

Turkiston geografik atamasi ilk o‘rta asrlardayoq, bugungi kundagi Markaziy Osiyo mintaqasining yirik bir bo‘lagi uchun etnosiyosiy va etno-geografik nom o‘laroq ishlatilgan. Buni yuqorida qisqacha ko‘rib chiqilgan turli tilli yozma manbalardagi bilgilar ham ko‘rsatib turibdi. Demak, O‘rta Osiyo yoki Markaziy Osiyo uchun ushbu atamalarning tengi – muqobili o‘laroq Turkiston atamasini ishlatish, Baqtriya, Sug‘d, Xorazm va boshqa birmuncha kichik atamalarni esa ushbu mintaqadagi kichik hududlar uchun qo‘llasak, yanglish yondashuv bo‘lmaydi. Bu bilan yurtimizning Eron, Hind va Xitoy (Chin) bilan tenglasha oladigan o‘z nomiga ega bo‘lgani va uning ildizi ilk o‘rta asrlarga borib taqalishini ko‘z-ko‘z qila olamiz. Boshqa tomondan esa Turkistondan oldingi chog‘lar uchun Turon atamasini ishlatishning vaqti keldi, deb o‘ylaymiz.



Илова ___. VII-VIII асрларга оид турли тиллардаги манбаларда “Туркистон” атамаси ва уларнинг жойлашув ўрни

[1] Ensiklopedia of Islam. II Edition. Afghanistan, I. Vol. P. 260 a

Qo‘llanilgan adabiyotlar:

1. Альбаум Л. И. Живопись Афрасиаба. – Ташкент: Фан, 1975.
2. Аскаров А. Некоторые вопросы истории становления узбекской государственности // ОНУ, 1997, №3-4. – С. 67.
3. Ahmedov A. Nega Turon deb ataladi // Turon, №1, 1992. – B. 5-6.
4. Бабаяров Г., Кубатин А. Доисламские монеты Согда: новые чтения и интерпретации легенд // O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida. O‘zR FA Arxeologiya institutida 2012 yil 6 – 7 aprelda o‘tkazilgan yosh olimlar Respublika konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2012. S. 11–23.
5. Бабурнаме. Пер. М. Салье. – Ташкент, 1958.
6. Баходиров Р. История Востока в «Ключах наук» // Шарқшунослик. – Ташкент, 2009. № 14. – С. 108–117.
7. Беруни, Абу Райхан. Канон Мас`уда / Избранные произведение. V. Часть первая. Перевод и примечания Б. А. Розенфельда и А. Ахмедова. – Ташкент: Фан, 1973.
8. Бируни, Абу Райхан. Памятники минувших поколений / Перевод с арабского и примечания М. А. Салье // Бируни. Избранные произведения. – Т. I. – Ташкент: АН УзССР, 1957.
9. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М.- Л., 1950–1953.
10. Boboyorov G‘. “Turon hukmdori xoqon” unvonli Samarqand tangalari (ilk o‘rta asrlar) // O’zbekiston tarixi. – Toshkent, 2018. №4, 2018. – B. 3-15.
11. Boboyor G‘., Jumaniyozova F. Ikki ming yil umr ko‘rgan jodugar Afrosiyob, Buxorodan avvalrq qurilgan Romitan, Alp Er To‘nganing o‘limi haqidagi marsiyalar – Turonni birinchi bor o‘ziga vatan qilganlar kimlar // https://oyina.uz/kiril/article/1567.
12. Bo‘riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – Toshkent, 1997.
13. Ishoqov M. Nomi azal Turkiston // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi, № 45-46. Toshkent, 1993. – B. 1, 5.
14. Mannonov B. Turkiston va Markaziy Osiyo // Muloqot, №2, 1998.
15. МИТТ 1939 – Материалы по истории туркмен и Туркменистана. Том I. VII – XV вв. Арабские и персидские источники. – М.-Л., 1939.
16. Камолиддин Ш. К вопросу об употреблении географических названий «Мавераннахр» и «Туркестан» // «O’zbekiston tarixi», №4, 2002. – С. 61-68.
17. Koshg‘ariy, Mahmud. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu-lug‘ot it-turk) / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 3 tomlik. – Toshkent: Fan, 1960–1963.
18. O‘rinboev A. Abdurazzoq Samarqandiyning Hindiston safarnomasi. - Toshkent, 1960.
19. Фрай Р. Наследие Ирана. – М., 2002.
20. Mahmudov Q. Qadimgi Turkiston tarixi. – Toshkent, 2003.
21. Тер-Мкртичян Л.Х. Армянские источники о Средней Азии V – VII вв. М., 1979.
22. Babayar G. Kutadgu Bilig’te Geçen Turan ve Türkistan Terimleri Üzerine // JOTS, 2/2, 2018. – S. 26-49.
23. Bo Bi, Sims-Williams N. Sogdian Documents from Khotan, II: Letters and Miscellaneous // Journal of the American Oriental Society, 2015, (135.2). – S. 261-282.

24. Frye R.N., Sayili A. Selçuklulardan evvel Orta Sark'ta Türkler. Belleten, cilt. 10. – Ankara, 1946.
25. Markwart J. Wehrot und Arang. Untersuchungen zur mythischen und geschichtlichen Landeskunde von Ostiran. – Leiden, 1938. – S. 123, n. 3.
26. Pahlavi Texts. The Bundahis-Bahman Yast, and Shayast La-Shayast. Translated by E. W. West. BSE, Vol. 5, Part I. – Delhi 1987.
27. Ensiklopedia of Islam. II Edition. Afghanistan, Vol. I. P. 221 a., 260 a.

ALP ER TO‘NGA TURKIY DUNYO BIRLIGINING RAMZI SIFATIDA

Qudratulla Omonov
Filologiya fanlari doktori, professor,TDSHU

Annotatsiya. *Ulug‘vor turkiy davlatchilik tarixining teran ildizlarini chuqurroq anglash va ilmiy asosda to‘laqonli o‘rganish uchun Turon-Turkiston davlatchiligi asoslarini qurgan va uni yuksaltirgan turklarning yovqur o‘g‘loni, buyuk davlat arbobi, siyosiy iqtidor egasi Alp Er To‘nga shaxsiyatini o‘rganish va har tomonlama tadqiq etish bugungi turkologiyaning ehtiyoji hamda ilmiy zaruratidir.*

Kunimizga qadar etib kelgan eski yozma manbalarda Alp Er To‘nga (Afrosiyob) shaxsiyati bilan bog‘liq ko‘plab ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ushbu ma’lumotlarning mazmun-mohiyatiga qarab 6 guruhga tasniflash mumkin. 1) Alp Er To‘nganing hukmdorlik maqomi bog‘liq qaydlar. 2) Uning mohir sarkarda ekanligi bilan bog‘liq ma’lumotalar. 3) Afrosiyobning bunyodkorlik salohiyati bilan bog‘liq xabaralar. 4) Er To‘nganing bilga (mutafakkir) ekani bilan bog‘liq elning tilida saqlanib qolgan hikmatlar. 5) To‘nganing farzandlari bilan bog‘liq axborotlar. 6) Alp To‘nganing o‘limi bilan bog‘liq ma’lumotlar.

Tayanch tushunchalar: *Turon-Turkiston davlatchiligi, Alp Er To‘nga, Afrosiyob, siyosiy boshqaruvining bilimdon tashkilotchisi, Eron, mohir sarkarda, Koshg‘ar, Marv, Buxoro, Romiton, Samarqand, hikmatlar, Alp Er To‘nganing o‘limi, tarixiy shaxs.*

Аннотация. *Для того чтобы глубже понять глубокий корни истории тюркской государственности и всесторонне изучить ее на научной основе, необходимо сегодняшней тюркологии изучить и всесторонне исследовать личность Алпа Эр Тонга. Он великий государственный деятель и политический гений, заложивший основы туранско-туркестанской государственности и возвысивший ее.*

В древних письменных источниках, дошедших до наших дней, сохранилось немало сведений о личности Алп Эр Тонге (Афрасияба). Эту информацию можно разделить на 6 групп в зависимости от ее содержания. 1) Заметки, касающиеся статуса Алп Эр Тонге. 2) Сведения о том, что он был опытным полководцем. 3) Данные связанные как основатель городов в Центральной Азии. 4) Пословицы, сохранившиеся в языке народа о мудрости Алп Эр Тонге. 5) Информация, касающаяся детей Тонги. 6) Информация, связанная со смертью Алп Тонге.

Ключевые слова: *Турано-Туркестанская государственность, Алп Эр Тонга, Афрасияб, организатор политического управления, Иран, искусный полководец, Кашгар, Мерв, Бухара, Рамитан, Самарканд, мудрость, смерть Алп Эр Тонге, историческая личность.*

Abstract. *In order to better understand the deep roots of the history of Turkic statehood and to study it comprehensively on a scientific basis, it is necessary for today's Turkology to study and comprehensively investigate the personality of Alp Er Tong. He is a great statesman and political genius who laid the foundations of the Turanian-Turkestan statehood and elevated it.*

In the ancient written sources that have survived to the present day, many information about the personality of Alp er Tonga (Aphrosiyob) has reached us. Based on this information, we can divide them into 6 groups. 1) documents on the power situation of Alp er Tonga. 2) documents that he is a skilled commander. 3) News about the creative potential of Afrosiyab. 4) the expressions that reach us from the folk language about the fact that Alp er Tonga is a thinker. 5) information about the children of Tonga. 6) information on the death of Alp er Tonga.

Keywords: *Turan-Turkestan statehood, Alp er Tonga, Afrosiyab, knowledgeable organizer of political administration, Iran, talented commander, Kashgar, Merv, Bukhara, Ramitan, Samarkand, wisdom, the death of Alp er Tonga, the historical winter.*

Geosiyosiy keskinlik taranglashgan hozirgi tahlikali sharoitda turkiy ulusning yurtsevarlik tuyg‘usi va vatan sha’ni uchun bir musht bo‘lib birlasha olish hissini umumturkiy manfaatlarimizga uyg‘un ravishda o‘stirib borish nihoyatda muhim sanaladi.

Turkiy xalqlarning elsevarlik ruhiyati, bir ildizdan o‘sib chiqqanlik g‘oyasi, umum tarix, umumiy qadriyatlar, mushtarak tuproqni muqaddas deb bilishi, dunyoqarashi turkiy tafakkurning tarixiy ildizlariga hamohangligi masalasi turkiy dunyoning uyg‘oq ruhli bilim kishilarini o‘ylantirib kelmoqda.

Shu jihatdan, turkiy davlatchilik tarixida favqulodda iz qoldirgan hukmdor va sarkardalar hayoti, merosi, vatan himoyasidagi qahramonliklari, vatan uchun jon olib jon bergan shaxsiyatlarning turkiy birlik ruhiyatini shakllantirishda tutgan o‘rni va ahamiyati ulkan. Ayniqsa, davlatchiligimizning ilk tamal toshlarini qurgan hukmdorlardan boshlab to ilk o‘rta asrlarga qadar Turon-Turkiston davlatchiligini yuksaltirgan hoqonlar – Alp Er To‘nga, Madayxon, Botir tangriqut, Bumin xoqon, Bilga xoqon, To‘nyuquq singari tarixiy qahramonlar ayricha o‘rin tutadi. Ushbu shaxsiyatlarning turkiy elning yuksaltirishdagi qahramonliklari orqali turkiy zaminga muhabbatni oshirish, turkiy ildiz birligi g‘oyasini ilgari surish, elu yurtga sodiqlik, umuman, tarixga yangicha qarash konsepsiyasi asosida mafkuraviy birlikni targ‘ib etish mumkin bo‘ladi.

Shu o‘rinda turkiy ulus birligining ramzi o‘laroq Alp Er To‘nga shaxsiyati haqida ikki og‘iz so‘z. Ulug‘vor turkiy davlatchilik tarixining teran ildizlarini chuqurroq anglash va ilmiy asosda to‘laqonli o‘rganish uchun Turon-Turkiston davlatchiligi asoslarini qurgan va uni yuksaltirgan turklarning yovqur o‘g‘loni, buyuk davlat arbobi, siyosiy iqtidor egasi Alp Er To‘nga shaxsiyatini o‘rganish va har tomonlama tadqiq etish bugungi turkologiyaning ehtiyoji hamda ilmiy zaruratidir.

Kunimizga qadar etib kelgan eski yozma manbalarda Alp Er To‘nga (Afrosiyob) shaxsiyati bilan bog‘liq ko‘plab ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ushbu ma’lumotlarning mazmun-mohiyatiga qarab 6 guruhga tasniflash mumkin. 1) Alp Er To‘nganing hukmdorlik maqomi bog‘liq qaydlar. 2) Uning mohir sarkarda ekanligi bilan bog‘liq ma’lumotalar. 3) Afrosiyobning bunyodkorlik salohiyati bilan bog‘liq xabaralar. 4) Er To‘nganing bilga (mutafakkir) ekani bilan bog‘liq

elning tilida saqlanib qolgan hikmatlar. 5) To‘nganing farzandlari bilan bog‘liq axborotlar. 6) Alp To‘nganing o‘limi bilan bog‘liq ma’lumotlar.

Quyida ushbu ma’lumotlar haqida qisqa to‘xtalib o‘tsak.

1. Alp Er To‘nganing hukmdorlik faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar bir qator manbalardan o‘rin olgan. Turkiy va forsiy tilda bitilgan tarixiy, diniy-sakral, siyosiy-mafkuraviy, ilmiy, falsafiy asarlarda ushbu ma’lumotlarga duch kelinadi. Xususan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam”, Avestoning “Yasht” kitobi, Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Tabariyning “Tarixi Tabariy”si, Abu Rayhon Beruniyning “Asorul boqiya (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”)” va “Qonuni Mas’udiy” asarlari, Abul Qosim Firdavsiyning “Shohnoma”si, Mirxondning “Ravzatus safo” singari o‘ndan ortiq asarlarda Afrosiyobning davlat arbobi, yurt egasi, siyosiy boshqaruvining bilimdon tashkilotchisi ekanligi qayd etiladi. Ayniqa, Yusuf Xos Hojibning davlat boshqaruviga doir nodir asari “Qutadg‘u bilig” kitobida turk beklari, ya’ni hukmdorlari orasida eng taniqlisi va siyosiy iqtidori oydin ko‘rinib turgani Alp Er To‘nga ekani ayricha ta’kidlangan. Mana o‘sha uzundi:

bu türk beglerinde atı belgülüg
toña alp er erdi qutı belgülüg
bedük bilgi birlä üküş erdämi
biliglig uquşluğ bodun ködrümi
ne üdrüm ne ködrüm ne ersig erän
ajunda tétig er yédi bu cihân
täjiklär ayur anı afrasiyâb
bu afrasiyâb tuttı éller talap

Turk beglari orasida oti belgilik,
To‘nga Alp Er edi, quti (siyosiy hukmdorlik) belgilik [1]
Bilimi – buyuk, hunari- talay.
Bilimli, zakovatli, xalq orasida sarasi.
Tojiklar uni Afrosiyob deb ataydilar,
Bu Afrosiyob ellar (davlatlar)ni o‘z tasarrufiga olib idora etdi.

Tarixchilarning fikricha Alp Er To‘nga miloddan avvalgi VIII asrning oxirida Turon davlatiga asos solgan. U Turon dashtlarida (Osiyo va Evropa qit’alarida) yashagan o‘nlab turkiy urug‘ va qabilalarni yagona davlat ostiga birlashtirdi va ushbu davlatni 28 yil davomida boshqargan buyuk yurt egasi bo‘lgan. Bundan tashqari Alp Er To‘nga Turonda mustahkamlanib olgach, turklar yurtiga doim tajovuz qilib turadigan Eronga qarshi kurash boshlaydi. Beruniy ma’lumotlariga ko‘ra u o‘z qo‘shini bilan Eron ustiga harbiy yurish qiladi va Eronni zabt etib, bu erda 12 yil podshohlik qilgan. Shu bois ayrim fors tilidagi manbalarda, jumladan, Avesto, Shohnoma singari asarlarda Afrosiyob ziddiyatli shaxs sifatida talqin

etilgan. Forsiy manbalarda Alp Er To‘nga bilan bog‘liq salbiy qarashlar ana shu hukmdorlik natijasi sifatida baholash mumkin.

2. Manbalarda Alp Er To‘nganing mohir sarkarda, yovqo‘r o‘g‘lon ekanligi to‘g‘risida ham qator ma’lumotlar keladi. Ayniqsa, Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” kitobida To‘ngani mohir sarkarda, janglardagi qahramonligi, dushmanlarga zarba berishdagi mahorati, bahodirligini ta’riflaydi. Xususan, Devonda Alp Er To‘nga otidagi To‘nga so‘zi tavsifida uning bahodirligi quyidagicha izohlanadi: “To‘nga – yo‘lbars jinsidan bo‘lgan bir xil hayvon. U filning kushandasidir. Bu so‘zning asosiy ma’nosi shudir. Lekin bu so‘z turklarda ma’nosi o‘zgargan holda qo‘llanadi. Bu so‘z, ko‘pincha, odamlarga laqab o‘rnida ishlatiladi. Chunonchi, To‘ngaxon, To‘nga tegin va shuning kabilar. Turklarning ulug‘ xoni Afrosiyobni To‘nga Alp Er deb atar edilar. Yo‘lbars kabi kuchli bahodir odam, demakdir”[2]. Bundan tashqari Afrosiyobni Turon mamlakatining pahlavoni, xoqoni sifatida tasvirlagan birinchi forsiy tildagi yozma yodgorlik “Avesto”dir. Shundan so‘ng uning obrazi fors-tojik adabiyotidagi o‘nlab og‘zaki va yozma asarlarga ko‘chgan. Xususan, “Shohnoma”da Afrosiyobning Zol va Rustam bilan kurashi tafsiloti asarning anchagina joyni egallagan.

3. **Afrosiyobning bunyodkorlik faoliyati, shaharsozlik salohiyati** haqidagi xabaralar ham eski manbalardan keng o‘rin olgan. Manbalarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi asosiy shaharlarni bunyod bo‘lishi Alp Er To‘nga va uning avlodlari nomi bilan bog‘liq. Jumladan, Mahmud Koshg‘ariyning fikricha, Koshg‘ar, Marv, Narshaxiyning fikriga ko‘ra, Buxoro, Romiton shahri Alp Er To‘nga tomonidan bunyod etilgan. Bundan tashqari Samarqand va Toshkent shaharlaridagi asosiy arxeologik ob’ektlar Afrosiyob nomi bilan yuritiladi. Bu shaharlarning paydo bo‘lishida ham Alp Er To‘nganing alohida o‘rni bor.

4. Er To‘nganing bilga (mutafakkir) ekani, u bilan bog‘liq hikmatlar qadim asarlarda saqlanib qolgan. Bu hikmatlarni aksari **davlat boshqaruvi** bilan bog‘liq. Xususan, Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida unga tegishli bo‘lgan qator hikmatlar keltirilgan. Ulardan biri haqida to‘xtalsak. Mana o‘sha hikmat:

negü tér eşitgil toña alp erig
bilip sözlemiş kör bu öt saw erig
et ol bu kişi köñli artar yıdır
anı ked küdezgü ey qılqı qadır
neçe ked er ersa yoñağ tıñlamas
ozunçı ara kirse sernü umas
neçe ked beg ersa uquşluğ oduğ
yoñağçı yaqın bolsa tegrür yoduğ

Alp Er To‘ngani eshitgin, u nima deydi.
U o‘git, pand, nasihatni bilib so‘zlabdi, ko‘rgin:
Kishi ko‘ngli etdir, u hid bilan buziladi,
Etni juda avaylash kerak, ey fe’li qodir

Qanchalik yaxshi, chaquvni tinglamaydigan odam bo‘lsa ham,
G‘iybatchi oraga kirsa, u sabr qila olmaydi (ya’ni chaquviga quloq beradi).
Qanchalik yaxshi, chaquvni tinglamaydigan odam bo‘lsa ham,
Chaqimchi yaqin bo‘lsa, unga malollik keltiradi ”[3].

Bu hikmatda hukmdorlarga o‘zi xohlamasa ham turli xil gap tashuvchi, gap chaquvchi kishilar mavjud bo‘ladi. Qanchalik yaxshi, gap chaquvni tinglamaydigan hukmdor bo‘lsa ham alaloqibat uning gaplariga kirib boshqaruvda muammoga duch keladi degan hikmatni keltirgan.

5. Manbalarda To‘nganing farzandlari bilan bog‘liq axborotlar ham anchayin batafsil keltiriladi.Shu o‘rinda Devondagi ayni masala bilan bog‘liq ayrim o‘rnaklarga to‘xtalsak. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari ma’lumotlariga qaraganda, Alp Er To‘nganing Qoz ismli qizi bo‘lgan va u hozirgi Eron hududidagi Qazvin va Qum shaharlarini barpo qilgan. Turkiylarning chegara shahri bo‘lgan Qazvin shahrida malika Qoz g‘oz o‘ynar edi. Shahar nomi Qazvin – Qoz so‘zining qisqargan shakli bo‘lib, shahar o‘zining bunyodkori bo‘lgan xoqon qizi malika Qoz nomiga qo‘yilgan va u Qoz shahri ma’nosini ham anglatadi. Koshg‘ariyning ma’lumotlariga qaraganda, Alp Er To‘nganing Baqan va Barsag‘an degan ikki o‘g‘li bo‘lib, ular Farg‘ona vodiysida hukmronlik qilishgan. Barsag‘on bu hududda Barsag‘on va Bormon shaharlarini qurdirgan. “Devon”da yozilishicha, Tarim so‘zi Alp Er To‘nga avlodidan bo‘lgan xotinlarga nisbatan qo‘llanilgan. Qatun so‘zi Alp Er To‘nganing qizlaridan bo‘lganlarning nomidir”[4].

6. Alp Er To‘nganing o‘limi bilan bog‘liq ma’lumotlar ham yozma manbadarda ko‘plab o‘chraydi. Narshaxiy o‘z asarida Afrosiyob o‘limini quyidagicha tasvirlaydi: “Siyovushning Kayxusrav nomli o‘g‘li bo‘lib, u otasining qonini talab qilib ko‘p lashkar bilan bu viloyatga kelganida Afrosiyob shu Romtin qishlog‘ini hisor qilib turgan… Kayxusrav ikki yildan keyin Afrosiyobni tutib o‘ldirdi. Afrosiyobning go‘ri Buxoroda Ma’bad darvozasida rahmatli Xoja imom Abu Hafs Kabir tepaligiga tutashgan katta tepalik ustidadir” [5]. Koshg‘ariy Devonida Alp Er To‘nganing o‘limi xalqning katta qayg‘usiga sabab bo‘lgani haqidagi marsiyani keltirgan:

Alp Er Tönga oldimu,
Esiz ajun qaldimu.
O’zlak öchin aldimu,
Emdi yurak yirtilur

Manbalarda keltirilgan dalilarga asoslanilsa Alp Er To‘nga tarixiy shaxs o‘laroq turkiy ellarni birlashtirgan qahramonlardan hamda Turon davlatining ilk quruvchisi va xoqoni, Markaziy Osiyodagi asosiy kentlarning bunyodkori ekanligi ko‘rinadi.

Umuman, Alp Er To‘nga shaxsiyati va u ko‘rsatgan qahramonliklar hamda bunyodkorlik ishlari orqali bugungi turkiy xalqlar tafakkurida umumturkiy birlik ruhiyatini kuchaytirish, o‘tmishdagi mushtarak ajdodlarga hurmat tuyg‘usini

o‘stirish, elu yurtga sodiqlikni singdirish imkoniyati yuzaga kelmoqda, asosiysi, xalqlarimiz tarixiga yangicha qarash konsepsiyasi asosida mafkuraviy birlik g‘oyasini targ‘ib etish ham mumkin bo‘ladi. Bu yo‘lda turkiy dunyo muta-xassislari tarix, tilimiz va adabiyotimiz ildizlari borasidagi ilmiy ishlarini bir tizim asosida, aniq mavzularni belgilab tadqiqot loyihalarni amalga oshirish zarurati bugunning eng muhim vazifasi o‘laroq maydonga chiqmoqda.

Bundan tashqari Alp Er To‘ngning xoki yotgan ushbu muqaddas zamin - Buxoroda unga atab yodgorlik lavhi o‘rnatilsa, dunyodagi barcha turkiy xalqlar-ning doimiy ziyorat qiladigan qutlug‘ qadamjosiga, ayniqsa, sharif shaharning turizm brendlaridan biri sifatida sayyohlarni Buxoro kentiga chorlab turuvchi muhim va yangi ramzlardan biriga aylantirar edi.

Adabiyotlar:

[1] https://cyberleninka.ru/article/n/patriotizm-ponyatie-i-vidy/viewer

[2] Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit turk. Toshkent, 1961-1963. 3 tom. 379 bet.

[3] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Toshkent, 1969. 234 bet

[4] Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit turk. Toshkent, 1961-1963. 1 tom. 493-494 betlar.

[5] Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi, Toshkent, 1956. 23 bet.

ALP ER TO'NGA MASALASINING TURKIYADA O'RGANILISHI

Feruza Djumaniyazova
Dotsent, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zR FA Sharqshunoslik instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alp Er To'nga Afrosiyob masalasining Turkiya tarixshunosligida o'rganilishiga tahlil qilinadi. Unda o'tgan asrning asrning o'rtalaridan boshlab bugungi kungacha yaratilgan ilmiy izlanishlarning qisqacha bayoni beriladi. Ko'plab yangi fikrlar bilan birgalikda ayrim juz'iy xatolar, asosi mustahkam bo'lmagan bildirilgan ilmiy taxminlarga munosabat bildirilgan.*

Tayanch so'zlar: *Alp Er To'nga, Afrosiyob, To'nga Tegin, Sulaymonnoma, Turkiya tarixshunosligi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется изучение вопроса Алп Эр Тонга/Афросиаб в турецкой историографии. Содержит краткое описание научных исследований с середины прошлого века до наших дней. Наряду с множеством новых идей были отреагированы и некоторые мелкие ошибки, необоснованные научные предположения.*

Ключевые слова: *Алп Эр Тонга, Афросиаб, Тонга Тегин, Сулаймоннома, турецкая историография.*

Abstract: *This article analyzes the study of the Alp Er Tonga/Afrosiyab issue in Turkish historiography. It contains a brief description of scientific research from the middle of the last century to the present day. Along with many new ideas, some minor errors and unfounded scientific assumptions were also responded to.*

Keywords: *Alp Er Tonga, Afrosiyab, Tonga Tegin, Sulaymonnama, Turkish historiography.*

Avvalo zardo'shtiylarning muqaddas kitobi "Avesto", Firdavsiyning "Shohnoma" asari, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" va boshqa arab-fors manbalarida tilga olingan, Turonning ilk hukmdori deya tanilgan Alp Er To'nga Alp Er To'nga masalasi Turkiyada ko'p bora ilmiy izlanishlarda murojaat qilingan mavzulardan hisoblanadi. Sovet davrida turkiy tilli davlatlarda "afsonaviy qahramon" deya tamg'a bosilib, ilmiy adabiyotlarda deyarli o'rganilmay kelingan bu shaxs faoliyati XX asrdan beri Turkiyadagi O'rta Osiyo tarixiga oid tadqiqotlarda markaziy o'rinni egallagan edi.

O'tgan asrning 80-yillarida Ahmad Zaki Validiy To'g'on bevosita Afrosiyob/Alp Er To'nga haqida tadqiqotlar yaratmagan bo'lsada, kontekst ichida bu mavzuga teginib o'tgan[1]. Masalan, u "Shohnoma"ga tayanib, Afrosiyobning Arjasp ismli o'g'li bo'lgani va uning qarluqlarni o'ziga tobe qilganini yozadi.

[1] Togan Z.V. Oğuz destanı, Istanbul, 1982. –S. 151.

Boshqa bir yirik turk olimi F. Koprulu Alp Er To'nga V asrdan oldin yashab, turklar xotirasida kuchli iz qoldirgan buyuk qahramon bo'lishi mumkinligini aytadi. Turkiy run yozuvlari bilimdoni T.Tekin bu mavzuni Kultegin bitiktoshining shimoliy yuzining 6 va 7 qatoriga bitilgan To'nga Teginning dafn marosimi haqidagi parcha bilan bog'lab o'z e'tiborini qaratadi va shunaqa fikrlarni bildiradi: "Bu voqea sodir bo'lgan sana bilan Koshg'ariy yashagan davr orasida uch yarim asrlik davr bor. Bu davr haqiqiy voqea va qahramonning afsonaviy bo'lishi uchun yetarli. Shu sababdan, Alp Er To'ng'ani ancha oldingi davrlarda yashagan turk qahramoni yoki Ko'prulu ta'kidlaganidek, "tarixga kirmagan yana bir To'nga Tegin" deb qarashga hojat yo'q deb o'ylaymiz. Devondagi elegiya qismlarida nomi tilga olingan Alp Er To'nga, katta ehtimol bilan 713-yilda Beshbaliqqa jangga borgan va oldida pistirmaga uchragan hamda o'ldirilgan Qapag'an xoqonning o'g'li To'nga Tegin sharafiga nomlangan. 714-yildagi uning o'limi turklarni chuqur qayg'uga solgan"[1].

Alp Er To'nga haqida yozilgan Turkiyada qilingan yirik tadqiqotlardan biri professor Ilhami Durmuşning "Turk tarihinin öncüleri: Alp-Er Tonga, Tomris, Mo-tun, Atilla, Bilge Kağan"[2] kitobidir. Ko'rinib turganidek, bu kitobda turk dunyosining birqancha kashshoflari qatori Alp Er To'nga/Afrosiyobga ilk sahifalar ajratilgan. Kitobning Alp Er To'ngaga bag'ishlangan qismida avvalo an'anaviy ravishda "alp" so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalinib, bu so'zning bugungi kunda ayni ma'noda Oltoy, Abakan, qozoq, qirg'iz lahjalarida hozir ham ishlatilib kelinishi aytilgan. Shuningdek, kichik paragrafda "alp" bilan birgalikda "er" va "to'nga " so'zlari ham alohida tahlil qilinadi. Keyingi paragrafda Alper To'nga nomi umumiy olib qaralib, turk tarixida ushbu ism ostida bir kishi nazarda tutilishini alohida ta'kidlaydi[3]. Alp va To'nga ismlari boshqa ismlar bilan birga kelganda Alp Qutlug' To'nga Bilga Qilich Tamg'ach Hoqon, Alp Qilich To'nga Bilga Turk Tug'rul Hoqon ismlari esa turkiy unvon sifatida baholanadi. To'nga ismiga To'nga Alp Erdan tashqari Tegin, To'nga To'nga va To'nga Yurak ismlari qo'shilganini ham ko'rish mumkin. Kitobning "Eron dostonlaridagi Alp Er To'nga" nomli qismida Turon va Eron orasidagi kurashlar, unda markaziy o'rinni Turonning podshohi Afrosiyob egallaganini ko'rish mumkin. Zolning Afrosiyobga qarshi qo'shin yo'llashi, Rustamning Afrosiyob bilan jang olib borishi, Afrosiyobning otasi Peshenk yoniga kelishi, Afrosiyobning Eronga hujum boshlashi, Kovusning Rum Qaysariga va Afrosiyobga maktub yuborishi, Rustamning turonliklar bilan jang qilishi, Afrosiyobning jang maydonidan chekinishi, Siyovushning Afrosiyob bilan kelishuvi, Siyovushning Afrosiyobdan panoh istashi kabi voqeiliklar "Shohnoma"da keltiriladi. Shu o'rinda qiziq ma'-

[1]Tekin T. XI. yüzyıl Türk şiiri (Dîvânu lugati't Türk'teki manzum parçalar). Ankara: TDK Yayınları, 1989. –S. 3-4.

[2] Durmuş I. Turk tarihinin öncüleri: Alp-Er Tonga, Tomris, Mo-tun, Atilla, Bilge Kağan. 2 baskı. Ankara: Akçağ yayınları, 2015.

[3] Durmuş I. Turk tarihinin öncüleri... – S. 27.

lumotga duch kelamiz: Kayoniylar sulolasining ilk hukmdori Kaykovusning o'g'li Siyovush Afrosiyobdan dastak so'raganda Afrosiyob uni qizi Farangizga uylantirib qo'yadi. Farangizdan Kayxusrav ismli o'g'il tug'iladi. Bundan keyin ham Eron va Turon o'rtasidagi kurashlar yanada avj oladi. Kayxusrav esa turonliklarning qo'lidan qochirilib Kaykovusning yoniga keltiriladi. Kaykovusning o'limidan keyin o'tiradi, yana janglar boshlanadi. Kayxusrav va Afrosiyobning to'qnashuvi yuz beradi, natijada Afrosiyob va uning inisi Kayxusrav tomonidan o'ldiriladi. Tadqiqotchi I.Durmuş yuqoridagi doston qahramonlarining qaysi tarixiy shaxsiyatlar ekani, qaysi davr nazarda tutilayotganini tahlil qilib, Kayoniylarning Ahamoniylar ekani, Kayoniylar davri esa Ahamoniylar davri VI asrning boshlariga to'g'ri kelishini ta'kidlaydi. Yana bir xusus shu davrda turonliklarning hukmdori sifatida tilga olingan Afrosiyobni bir sak(saka) hukmdori sifatida qarash kerak deb xulosalaydi [1].

Bu davrda tarixiy manbalarga ko'ra hukm surgan hukmdorlar Dayaukku (Desoces), Ashashrita (Phraortes) va Uvahshatra (Kiaksares)lardir. Kiaksares Kayxusrav bo'lsa kerak, Desoces esa Kaykubod, Phraortes Kaykovus bo'lishi ehtimoli yuqori. Bu hukmdorlar davrida mavjud bo'lgan Afrosiyobning grek manbalaridagi ismi katta tahmin bilan Madyas, ossur manbalarida esa Maduva sifatida eslatilgan sak hukmdoriga teng keladi. Afrosiyobning otasi Peshenkning yunon manbalaridagi Protothyas, ossur manbalaridagi Bartatuta sifatida qabul qilish kerak.

Kitobning "Turk dostonlari va manbalaridagi Alp Er To'nga" nomli qismida an'anaviy ravishda Mahmud Koshg'ariyning asarida keltirilgan marsiyaning tahlili va Yusuf Xos Xojib tomondan Afrosiyobga berilgan ta'riflar o'rin olgan[2].

Abulg'ozi Bahodirxon ham o'zinng "Shajarai turk" asarida saljuqiylarning o'z kelib chiqishini qiniq urig'iga bog'lagani diqqat tortadi. Uning bergan ma'lumotlariga ko'ra. Afrosiyobning bir o'g'li Kayxusravdan qochib, turkmanlarning qiniq urug'idan panoh topib, u yerda voyaga yetib, biz uning naslidanmiz deb, o'ttiz besh avloddan beri Afrosiyobga borib tutashamiz, dedi. Bu ma'lumot Afrosiyob, ya'ni Alp Er To'nganing turkiy xalqlarning bobokaloni sifatida berilishi jihatidan juda muhimdir. Shuningdek, saljuqiylar davrida sog'lom bir tarih shuurining vujudga kelishi va otalarining 35 avlod qadimga bog'lab bir shajara kashf etganlari qiymatga ega bir xususdir. Umuman olganda Turkiyda prototurklar bilan bog'liq qilingan tadqiqotlarda Alp Er To'nga sak davlatining ilk hukmdori sifatida qaraladi. Ularning fikricha, sharqda Manchjuriyada g'arbda Mojariston va Kavkazga qadar katta miqyosda Old Osiyogacha yoyilgan saklar bu keng geografiyani boshqargan ilk turklardir. Bunday bir davlatning, xususan uning tamal unsurlari bo'lgan qahramonlik hikoyalari va undagi bosh qahramonlarning o'rtaga chiqishi

[1] Durmuş I. Turk tarihinin öncüleri... – S. 30.
[2] Durmuş I. Turk tarihinin öncüleri... – S. 30-34.

tabiiy holdir. Bu kabi dostonlar, hikoyalar turkiy davlatchlik tarixining Eron ahamoniyari bilan bir davrga tegishli ekanini ko'rsatishi bilan muhimdir.

Albatta Turkiyada yaratilgan kitoblarda Alp Er To'nganing tarixiy kimligi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan va turlicha fikrlar ilgari surilgan. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, mil.av. 625 yilda janglarda kuch yo'qotgan skiflar (yunon manbalarida saklar shunday atalgan) hukmdori Madyas davrida mast qilinib ommaviy ravishda o'ldiriladi. Buning natijasida ular Midiyaga chekinadilar. Hatto Madyasning o'zi ham ichkilik orqali zaharlanib o'ldirilgani va skiflarning yo'lboshchisiz qolgani aytiladi. Bu hodisalar skiflar/saklarning markaziy birligiga putur yetganini anglatadi. Tadqiqotchi Qahramon Rajabov ham yuqoridagi voqealarni quyidagicha ta'riflaydi: "Har ikki tomon o'rtasida qaqshatqich janglar Turon va Eron sarhadlarida bir necha marta bo'lib o'tadi. Tarixiy ma'lumotlarda keltirilishicha, Alp Er To'nga qo'mondonlik qilgan ana shunday janglarning oxirgisi mil.av. 626 yilning kech kuzida Midiya (hozirgi Ozarboyjon va Eron hududining bir qismida bo'lgan qadimgi davlat)da bo'lib o'tgan. Bu jang turonliklarning g'alabasi bilan tugaydi. Jangdan keyin sulh tuzilib, mag'lublar g'oliblar sharafiga katta ziyofat beradi. Biroq Eron shohi Kayxusrav Alp Er To'ngani ziyofat paytida mayga zahar qo'shib berib o'ldiradi. Turon xoqoni Alp Er To'nga ishonuvchanligi va soddadilligi uchun eroniylarning makr va hiylasiga qurbon bo'ldi. Xoqonning uxlab yotgan lashkarboshilari xam tig'dan o'tkazilgan. Alp Er To'nganing o'limi Eronda tur(k)lar yoki saklardan qutilish kuni sifatida katta tantana qilingan. Xullas, Alp Er To'nga va uning lashkarboshilari eronliklar tomonidan xoinlarcha o'ldirilgach, xoqon qo'shinining tirik qolgan qismi Midiya, Anatoliya, Eron, Turon hududlariga tarqalib ketgan. Ularning bir qismi sharqiy Anatoliyaning tog'li joylariga qochib qutildilar"[1].

Yana bir Turkiyada Afrosiyob/Alp Er To'nga haqida yaratilgan kitoblardan biri professor N. Demirning "Turk hakani Alp Er Tunga" nomli monografiyasidir. 2021 yilning oktyabr oyida Nejati Demir O'zbekistonda olib borgan izlanishlari natijasida Alp Er To'nga (Afrosiyob)ning qabrini topganini aytgan edi va bu keng ilmiy jamoatchilikda hamda ijtimoiy tarmoqlarda muhokamalarga sabab bo'lgan edi[2]. Ayni shu yilda tadqiqotchining kitobi ham nashr qilindi. Alp Er To'nga yoki Afrosiyob turklarning eng qadimiy otasi ekani va u mil.av. 700-625 yillarda yashagani aytilgan. Ba'zi manbalarga ko'ra, Afrosiyob O'g'uzxon bilan ayni kishidir. Muallif bu firkni qo'llab-quvvatlaydi va kuchli dalillar borligiga ishonadi. Shu bilan birga Alp Er To'nganing afsonaviy tarafi bor ekanligini ham aytib o'tadi. Mahmud Koshg'ariyning Koshg'ar atroflaridagi rivoyatlarni o'rganib chiqib o'z kitobida bu shaxsga katta joy ajratganini ta'kidlaydi. N. Demir hattoki Alp Er To'nganing Sharqiy Turkiston atroflarida yashagan bo'lishi ehtimolini

[1] Ражабов Қ. Алп Эр Тўнга (Афросиёб). –Тошкент: Ўзбекистон. – Б. 127-128.
[2] Demir N. Turan hakanı Alp Er Tunga. – Istanbul:Inkilap Kitapevi Yayın Sanayi ve Ticaret AŞ, 2021.

ham yozadi. Manbalarda Alp Er To'nganing buddaviylik dinining yoyuvchisi bo'lgani masalasini alohida tahlil qilib, Buddaning mil.av. 563-483 yillarda ya'ni Afrosiyobdan keyin yashaganini aytib, bu firkning asossiz ekanini keltiradi[1].

Yuqorida Saljuqiylarning o'zining shajarasini Afrosiyobga taqaganini aytib o'tdik. Yana shunday bir misol qarluqlarda ham uchraydi va uni tadqiqotchi Demir keltiradi. Sharqiy Qarluqlar yabg'usi Bilga Anuchur uyg'urlarning tanazzulga uchrashi natijasida o'zining Afrosiyob (Alp Er To'nga) avlodidan ekanini bildirib 840 yilda Qoraxon va Qodirxon unvonini oldi hamda poytaxti Bolasog'un bo'lgan Qoraxoniylar davlatini qurganligini o'zlarini "Al-i Afrosiyob" deya ulug'lagan[2]. Bundan tashqari u o'z kitobida boshqa turk olimlarining ham fikrini keltiradi. Xususan, Eron va Turon o'rtasidagi kurashlarni yoritishda Firdavsiyning "Shohnoma" asariga tayanadi va O.Karatayning bu haqdagi qarashlarini yozadi: Forslar Turon hodisasi(fenomeni)dan ikki maqsadda foydalanganlar. Birinchisi turklarning tarixini va otalarini o'zlarining foydasiga ishlatib, muhtasham bir tarix shakllantirganlar. Ikkinchisi esa Turonni azaliy va abadiy dushman sanab, o'zlarining milliyatchiligini mustahkamlaganlar[3].

Xalq orasida massagetlar malikasi To'marisning Alp Er To'nga bilan bog'liqligi haqida yuradigan fikrlarga ham oydinlik kiritib, Afrosiyobning mil.av. 625 yilda o'lganini Tomarisning esa taxminan mil.av. 520 yilda yashaganini aytib, Osiyo saklarining xoqoni o'laroq ayni jo'g'rafiyada, ayni kurashlarni ya'ni eronliklarga qarshi urush olib borganini hisobga olib ikkovining yaqin qarindosh bo'lishini taxmin qilish mumkin deydi[4]. Biroq bu juda tortishuvli masala. Ammo To'marisning tarixiy shaxs ekani bugungi kun kishisining ongiga singib ketgan, Markaziy Osiyo buyuk ayollarining ro'yxatida joy oladi, Alp Er To'nga bilan uni taqqoslasak, Afrosiyob haqida tarixiy ma'lumotlar toshi og'ir keladi, negadir tarixiy adolatsizlik tufayli To'maris xalqqa Afrosiyobdan ko'ra ko'proq tanitilgan.

N. Demir Alp Er To'nga geografiyasini maksimal kengaytirishga harakat qiladi. Xususan u Chin dengizidan Tuna daryosiga qadar uzayganini ta'kidlab, shimolda Shimoliy dengizgacha janubda esa Misrga qadar ulkan mintaqani egallagan deydi[5]. Bu kitobda Afrosiyobning shaharsozlik faoliyati haqida ham joy ajratilgan. O'rdu kent, ya'ni Koshg'ar, Marv, Buxoro, Romitan, Barsxan, Qazvin, Barman, Shabran kabi shaharlarni u bunyod etganiga urg'u beradi. Biroq bu kitobda ba'zi juda isholishi qiyin bo'lgan, manbaviy asoslar yetarli bo'lmagan xususlar ham uchraydi. Bular sirasiga Afrosiyobning otasi Peshenkning ilk o'rta asrlarda yashagan pecheneglar bilan bevosita aloqali ekani[6],turklarda to'y

[1] Demir N. Turan hakanı Alp Er Tunga... –S. 27.
[2] Genç R. Karahanlı Devlet teşkilatı, 2002. –S. 75.
[3] Karatay O. Iran ve Turan. –Istanbul, 2019. –S. 272.
[4] Demir N. Turan hakanı Alp Er Tunga... – S. 40.
[5] Demir N. Turan hakanı Alp Er Tunga... – S. 62.
[6] Demir N. Turan hakanı Alp Er Tunga... – S. 118.

marosimi boshlanishini ham bu shaxs bilan bog'lash[1], beshikning bu hukmdor vositasiyla kashf qilinishi va boshqalar. Biroq bu asar yuqoridagi kamchiliklarga qaramay Alp Er To'nga/Afrosiyobga bag'ishlangan turk dunyosi tadqiqotlarida yaratilgan tugallangan va kompleks ilmiy ish sifatida qiymatga egadir.

Turkiyada Alp Er To'nga siymosidan turli ijtimoiy yo'nalishlarda foydalanilgan ko'plab maqolalar yozilgan, goh tarixchilar, goh tilshunoslar bu mavzuni qalamga olib kichik tadqiqotlar yaratib kelmoqdalar. Quyida ulardan birqanchasi tahlil qilinadi. Shulardan professor O. Mertning "Türk kültüründe ağit geleneği ve Alper Tonga sagusu" nomli maqolasida turkiy xalqlarda nola-fig'on chekish an'anasi va marsiyalar Alp Er Tonga shaxsi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi[2]. Ushbu tadqiqotda turk madaniyatidagi nola aytish an'anasi Ko'kturk harfi qabr toshlar bitiklari va Alp Er To'nga marsiyasi o'rtasidagi o'xshashliklarga e'tibor qaratiladi. Ko'rib turganimizdek, Alp Er To'nga marsiyasi ming yillar davomida unutilmagan va keyingi davr qabrtosh bitiklaridagi motivlarga ko'chgan.

Yana bir marsiya haqidagi maqolalardan biri Ezgi Demirel Kamanlının "Alp Er Tunga sagusu"na metindilbilimsel yaklaşim" nomli kichik tadqiqotidir[3]. Bu tadqiqotning xulosasi quyidagicha: Alp Er To'nga ham tarixiy shaxs, ham epik qahramonligi bilan turk tarixidagi eng muhim shaxslardan biri ekani, "Devonu lug'atit-turk"da keltirilgan Alp Er To'nga marsiyasi turk millati xotirasida o'z o'rniga ega bo'lgan muhim shaxsning vafoti atrofida shakllangan va Mahmud Koshg'ariy tomonidan yozilgan muhim matn ekani, "Alp Er To'nga" marsiyasi zamonaviy matnning ko'pgina uyg'unlik va izchillik xususiyatlarini o'zida mujassam etishi, bu holat turkiylarning badiiy matn yaratish qobiliyatining qadimiyligini ko'rsatishi bilan birga turk tili va adabiyotining qanchalik chuqur ildiz otganligini ham ko'rsatishi bilan qimmatli ekanidir.

Yana bir kichik ilmiy izlanishlardan biri tadqiqotchi Altan Ayannng "Alp Er Tunga'nin yönetim anlayişi ve liderlik tarzlarinin incelenmesi" nomli maqolasidir[4]. Tadqiqotchi Alp Er To'nga siymosida xarizmatik yetakchilik uslubi, xizmatkor yetakchilik uslubi, ahloqiy yetakchilik uslubi va strategik etakchilik uslubi namoyon bo'lgan degan xulosaga keladi. Qo'shimcha ravishda Afrosiyobning liderlik fazilatlaridan kelib chiqilsa, unda qutqaruvchilik, bunyodkorlik, oilaparvarlik, mas'uliyatlilik, sadoqat, adolat, jo'mardlik kabi fazilatlarni ham ko'rish mumkin.

So'ngi yillarda Alp Er To'nga haqida qoshimcha ma'lumot beruvchi "Sulaymonnoma" nomli yozma manba tadqiqotlarda uchray boshladi. Shu haqida

[1] Demir N. Turan hakanı Alp Er Tunga... – S. 175.
[2] Mert O. Türk kültüründe ağıt geleneği ve Alper Tonga sagusu. BUGU Dil ve Eğitim Dergisi,2022. 3(1), S. 1-15.
[3] Demirel Kamanlı E. Alp Er Tunga sagusu"na metindilbilimsel yaklaşim// VII. Uluslararası Türklerin Dünyası Sosyal Bilimler Sempozyumu Bildirileri. – Ankara: 2023. – S. 252-261.
[4] Ayan A. Alp Er Tunga'nin yönetim anlayişi ve liderlik tarzlarinin incelenmesi// Akademik bakiş dergisi. Sayı: 61 Mayıs - Haziran 2017. – Celalabat. –S. 167-176.

Turkiyada yozilgan maqolalardan biri tadqiqotchilar Ali Berat Alptekin va Ebru Şenocakning “Alper Tunga destani’nin yeni bir kaynaği olarak: Süleymannâme” maqolasidir[1]. Unda “Sulaymonnoma”ni Alp Er To’nga dostonining yangi manbasi sifatida ko’rsatishimiz mumkin. “Sulaymonnoma”ning asosiy mavzusi tarix bo‘lib, asarda davr voqealari, turli rivoyat va ma’lumotlar haqida so‘z boradi. Alp Er To’nga haqida ma’lumot beradigan “Sulaymonnoma” nomli asar Uzun Firdavsiyga tegishlidir, u XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida yashagan. Asarning 3 va 9 jildida Afrosiyobga doir ma’lumotlar beriladi. Asarda Turonshoh Afrosiyobning mard polvon bo’lgani, hayqirig’i bilan olamni qonga aylantirgani ta’kidlanadi. Qolaversa, Afrosiyob sherdek haybatli tasvirlangan bo’lsa, Eronning kuchli va qudratli u bilan jang qilgan Zolo’g’li Rustam quyonga qiyoslanadi. Asarda Sulaymon va Afrosiyob dialoglariga ham joy ajratilgan. Xullas, doston qahramonlari ularni qo‘llab-quvvatlagan xalqi bilan birga o‘z millati farovonligini yuksaltirish, ularni bir bayroq ostida to‘plash, adolat va adolatni ta’minlash yo‘-lida tinimsiz kurashib kelgan. Alp Er To’nga ham o‘zining g‘ayrioddiy fazilatlari bilan ko‘plab xalqlarni hayratga solgan, sak turklarining qahramoni sifatida kurashgan. Ba’zan Alp Er To’nganing g’alabalari, qahramonligi, qudrati, kuch-qudrati va jasoratini madh etgan xalqlar hikoyalarining oxirida shunday qahra-monni yengganini aytib, o’zlarini ustun ko’rsatishni maqsad qilganlar. Yengilmas, qo’rqmas, aqlli, jangchi qahramon Alp Er To’ngani o‘z hiyla-nayranglari bilan yengishga uringan bu xalqlar aslida o‘zlarining nochorligini fosh qilganlar desak bo’ladi. Barcha epik qahramonlar singari Afrosiyob ham vaqtining har bir soniyasini, aqlini, bilim va kuchini Osmon Xudosi oldidagi qarzini to’lash uchun sarflagan va o’z vazifasini bajarib, yana o’zining muqaddas darajasiga ko’tarila olgan. Uzun Firdavsiyning “Sulaymonnoma” asarida Alp Er To’nga haqidagi ma’lumotlar diqqatga sazovordir. Asarda Alp Er To’nga haqida so’z yuritilgan mavzular Alp Er To’nganing ta’rifi, uning kimligi, vafoti, Sulaymon bilan kurashini uning jangovarligi, kuchi va yordamchi elementlari (ot, qilich, iymon) sifatida sanab o’tish mumkin. U xalqi uchun ongi bilan kurashgan tarixiy va afsonaviy shaxs. Firdavsiy-i Rumiyning “Alp Er To’nga” dostoniga yangi manba bo‘lgan “Sulaymonnoma” asari bizni ajdodlar kulti va o‘tmish o‘rtasidagi bog‘liqlik bilan yaqinlashtiradi.

Yana bir yirik olim Saadettin Gömeçning “Tonga Tigin’in kimligi üzerine” nomli maqolasi diqqatga sazovordir. VIII asrning boshlarida Beshbaliqdagi janglarda vafot etgan Qapag’an xoqonning o’g’li To’nga Teginning o’limi turk xalqining xotirasida chuqur qayg’uli iz qoldirganiga tadqiqotchi alohida e’tibor qaratib, uni Alp Er To’nga bilan aynanlashtirishga intiladi[2]. Uning fikriga ko’ra, Afrosiyob obrazi IX asrdan e’tiboran turklarning orasida keng yoyildi va

[1] Alptekin A.B, Şenocak E. Alper Tunga destani’nin yeni bir kaynaği olarak: Süleymannâme// Journal of Turkish Language and Literature Volume:5, Issue:2, Spring 2019, -S.127-143.

[2] Gömeç S. "Tonga Tigin'in Kimliği Üzerine". Türk Dili Araştırmaları Yıllığı - Belleten. 48 (2000). –S. 205-210.

o’rnashdi. Ammo Alp Er To’nga va Afrosiyobni ikki shaxs deb qarash kerak, deydi tadqiqotchi. Shuningdek, uning eron zardo’shtiylarinng bosh dushmani bo’lgani va buddaviylikni targ’ib qilgani ham uni kech zamonlarda yashaganini ko’rsatadi. Emil Esinga ko’ra Afrosiyobning ukasi Sug’dda hukmronlik qilgani ham Bumin va uning ukasi Istemini eslatadi, Afrosiyobning hattoki Bumin bilan aloqasi bo’lishi mumkinligini ham yuqoridagi tadqiqotchi nazardan qochirmaydi. Shuni ham nazardan qochirmaslik kerakki, eronliklar O’g’uzxonni ham Afrosiyobga mengzaydilar. Agar Afrosiyobni X asrdan keyingi ko’plab yozma manbalarda ko’radigan bo’lsak buning bir sababi bo’lishi kerak, balki XI asrgacha Afrosiyob hikoyalari, Alp Er To’nga va To’nga Teginning kahramonliklarini Mahmud Koshg’ariy qorishtirib yubormaganmikin degan savolni ham qo’yadi. Ammo bu fikrlar ham kuchli asoslarga ega emas, bu yerda “to’nga” so’zini turkcha unvon va epitet sifatida sanab, u shahzodalarga Alp Er To’ngadek jasur “arslon”dek kuchli bo’lsin deya ko’kturk bitiklari yozilgan zamonda ham berilganini ham unutmaslik lozim.

Xulosa qiladigan bo’lsak, Afrosiyob va Alp Er To’nga haqida turk tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan yirik va kichik tadqiqotlarda ulkan salmoqli ma’lumotlar bazasiga ko’zimiz tushsada, ularda ba’zan fikrlar xilma-xilligi, ba’zar qarama-qarshi go’yalarning mavjudligini ko’rish mumkin. O’tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu masalaga yaqindan yondashilgan va jiddiy fikrlar ilgari surilgani, manbalardagi ma’lumotlar tahlil qilingani, yangi yozma asarlar “Sulaymonnoma”ga murojaat qilingani, Alp Er To’nganing turk kimlik (identiklik) masalasini yoritishda bosh birlashtiruvchi unsur ekani ko’rinadi. Tizimli ravishda qaraydigan bo’lsak, negadir Alp Er To’nga shaxsiyati buxorolik tarixchi Narshxiyning “Tarixi Buxoro” asari ma’lumotlari asosida tiklanib, turk tadqiqotlariga jalb qilinmagan. Zotan, bu asarda Afrosiyobning qabri bilan bog’liq qimmatli ma’lumotlar mavjud. Markaziy Osiyodagi Afrosiyob/Alp Er To’nga omiliga ham kam murojaatlarni ko’rish mumkin. Zero, Samarqand, Barsxon va yana bir necha O‘rta Osiyo yirik shaharlarining qurilishi Afrosiyob bilan bog‘lanadi. Xorazm to‘g‘risida yozgan Beruniy va Koshg‘ariy bu yerdagi turklarni eslab o‘tar ekan, Afrosiyob yoki Alp Er To‘nga shaxsiga to‘xtalmaydilar. Biroq ayrim forsiy yozmalarda Afrosiyobning Xorazmda ham bo‘lgani, u bu yerda turib eronlik yovlar bilan to‘qnashgani to‘g‘risida quyidagicha so‘z yuritiladi: Men forslar orasidan shunday (xabarlar) topdim: turk hukmdori Afrosiyob o‘z xazina va qimmatbaho buyumlarini Kerderning yuqorisida, Xorazm o‘lkasidagi dengizning o‘rtasiga ko‘mgan. Abarviz (Parviz) ibn Xurmuzgacha hech kimsa bu to‘g‘rida bilmagan. U ushbu xazinani topgan va 12 yil bo‘yi (o‘z yurtiga) tashib keltirilgan. Har oyda (bu yerdan) unga 10 xachirga ortilgan yuk kelib turgan, qimmatbaho buyumlarning katta bo‘lagini toza oltin quymalar

tashkil etgan” [1]. Ushbu bilgilar ko‘p tomonlama Beruniy keltirgan Xorazmga Kayxusravning ko‘chib, turk podsholari ustidan o‘z boshqaruvini o‘rnatishi bilan bog‘liq bilgilarga uyg‘un keladi. Bu esa Beruniy “turk podshohlari” deganda eronliklar kelmasdan oldin Xorazm va uning tegrasida turkiylar yashagani, bu holat Afrosiyob yoki uning izdoshlari bilan bog‘lab tushuntirilmaganmikan degan qarashlarni keltirib chiqaradi. Ammo bu kabi ma’lumotlar turk tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida o’rin olmagan. Qisqasi, Afrosiyob yoki Alp Er To‘nga shaxsi qanchalik tarixiy yoki afsonaviy kishilikka ega bo‘lmasin, u bilan bog‘liq xalq orasida saqlangan bilgilar shunchaki cho‘pchak emas, balki bundan deyarli uch ming yil oldingi voqeliklarni o‘z bag‘riga yashirgan, bir necha xoqonlarning ish-harakatlarini bitta shaxs tegrasida birlashtirib yuborgan tarixiy chinlikdir, deb qarasak yanglishmagan bo‘lamiz. Boshqa tomondan esa bundan 4 ming yilcha oldin Sharqiy Yevropa–Qora dengiz qirg‘oqlaridan yo‘lga chiqqan hind-eroniy elatlar O‘rta Osiyoga kirib kelganlarida bu yerda turli tillarda so‘zlashuvchi elatlar – shimolroqda fin-ugorlar, kungay – janubroqda dravidlar va somiy tillilar bilan birga turkiylarning ota-bobolari ham yashagan bo‘lsalar kerak, deya olamiz. Yozma manbalarda fin-ugor, dravid yoki somiylarning Turon yurti (O‘rta Osiyo)da yashagani to‘g‘risida bilgilar deyarli uchramasdan, turkiylarga ko‘proq urg‘u berilishini “turkiylarning bu yerga ko‘chishlari uzluksiz bo‘lgan, Afrosiyob – Alp Er To‘nga bo‘yicha to‘qilgan cho‘pchaklar turklar bilan bog‘lab tushunila boshlagan, Turon va Turkiston tushunchalari keyinchalik birlashtirib yuborilgan” deb qarash bilangina cheklanmaslik kerakka o‘xshaydi.

Adabiyot:

1. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича и А.Ю. Якубовского. – Москва –Ленинград, 1939.

2. Ражабов Қ. Алп Эр Тўнга (Афросиёб). –Тошкент: Ўзбекистон, 2004.

3. Alptekin A.B, Şenocak E. Alper Tunga destani’nin yeni bir kaynaği olarak: Süleymannâme// Journal of Turkish Language and Literature Volume:5, Issue:2, Spring 2019, -S.127-143.

4. Ayan A. Alp Er Tunga’nin yönetim anlayişi ve liderlik tarzlarinin incelenmesi// Akademik bakiş dergisi. Sayı: 61 Mayıs - Haziran 2017. – Celalabat. –S. 167-176.

5. Demir N. Turan hakanı Alp Er Tunga. – Istanbul:Inkilap Kitapevi Yayın Sanayi ve Ticaret AŞ, 2021.

6. Demirel Kamanlı E. Alp Er Tunga sagusu”na metindilbilimsel yaklaşim// VII. Uluslararası Türklerin Dünyası Sosyal Bilimler Sempozyumu Bildirileri. – Ankara: 2023. – S. 252-261.

7. Durmuş I. Turk tarihinin öncüleri: Alp-Er Tonga, Tomris, Mo-tun, Atilla, Bilge Kağan. 2 baskı. Ankara: Akçağ yayınları, 2015.

[1] Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича и А.Ю. Якубовского. – Москва – Ленинград, 1939. –С. 431.

8. Genç R. Karahanlı devlet teşkilatı. – Ankara: TTK Basımevi, 2002.
9. Gömeç S. "Tonga Tigin'in Kimliği Üzerine". Türk Dili Araştırmaları Yıllığı - Belleten. 48 (2000). –S. 205-210.
10. Karatay O. Iran ve Turan. –Istanbul, 2019. –S. 272.
11. Mert O. Türk kültüründe ağıt geleneği ve Alper Tonga sagusu. BUGU Dil ve Eğitim Dergisi,2022. 3(1), S. 1-15.
12. Tekin T. XI. yüzyıl Türk şiiri (Dîvânu lugati't Türk'teki manzum parçalar). Ankara: TDK Yayınları, 1989.
13. Togan Z.V. Oğuz destanı, Istanbul, 1982.

TURON VA ERON TASAVVURLARIDA AFROSIYOB TIMSOLI

Munira M. Xatamova
Tarix fanlari bo‘yicha PhD., katta ilmiy xodim

Annotatsiya. *Fanda Afrosiyob chinakam tarixiy shaxsmi yoki yo‘qmi degan tortishuvlar borasida bir to‘xtamga kelinmagan bo‘lsa-da, uning kelib chiqishida Turon – Eron o‘rtasidagi azaliy kurashlar, ayniqsa, IV–V yuzyilliklardagi siyosiy-harbiy jarayonlar sezilarli rol o‘ynaganiga shubha yo‘q. Ilk sosoniy shahanshohlari dunyoning sivilizatsiyali aholisini birlashtirib, barcha tashqi kuchlarni Eronshahrga bo‘ysundirishga da’vo qilganlar. Biroq Eronning shimoli-sharqini bosib olgan va Sosoniylardan o‘lpon undirgan xunlar – xiyonlar, kidarlar, eftallar va keyinroq esa turklar ushbu kosmologik tartibni o‘zgartirib yubordi. Sosoniylar saroyini o‘zlarining mafkuraviy tuzilmalarini qo‘llab-quvvatlashning yangi usullarini ishlab chiqishga majbur qildi. Xunlar va eronliklar o‘rtasidagi ana shu siyosiy-harbiy to‘qnashuvlar tufayli Eron adabiyotlarida “Turon” oti bilan tanilgan jo‘g‘rofiy tegra V yuzyillikdan boshlab eronliklarning afsonaviy dushmanlari yurti o‘laroq belgilana boshlandi. Sosoniylar o‘zlarining xunlardan yengilganini “Avesto”dagi ikki kuch – Axuramazda va Axriman o‘rtasidagi kurash, deb talqin qildilar. Turon hukmdori Afrosiyob esa Eronning ashaddiy dushmani, yovuzlik ilohi Axrimanning elchisi, jodugar deb ko‘rsatildi. Shunday qilib, harbiy kuch tomonlama yenga olmasliklarini tushunib yetgan Sosoniy saroyi afsona yaratuvchi tarixchilari birgina “Avesto”ga emas, balki elita orasida, ayniqsa, imperiyaning sharqiy hududlarida keng tarqalgan qahramon shohlar va zodagonlar to‘g‘risidagi og‘zaki hikoyalarga tayandilar. Afrosiyob – Turon jo‘g‘rofiy tegrasida kechgan tarixiy siyosiy voqeliklarni o‘zida umumlashtirgan qahramon, hukmdor timsolidir. Keyinchalik Qoraxoniylar va Saljuqiylar kabi turk sulolalari o‘zlarining kelib chiqishini Afrosiyobga borib taqashlari ana shu islomdan oldingi chinakam voqea-hodisalar bilan uzviylikni anglatadi. Shunday ekan, Afrosiyob – Turon – bugungi Markaziy Osiyoning umumiy qahramoni bo‘lib qolishi kerak.*

Tayanch so‘zlar: *Turon, Eron, Afrosiyob, Xunlar, Xiyonlar, Kidarlar, Eftallar, Turklar, epos, “Shohnoma”, legetimasiya.*

Аннотация: *Хотя в науке нет единого мнения о том, был ли Афрасиаб реальной исторической личностью, бесспорно, что древнее противостояние между Тураном и Ираном, особенно политические и военные процессы IV–V вв., оказали значительное влияние на формирование его образа. Ранние Сасанидские императоры стремились объединить «цивилизованные народы» мира и подчинить внешние силы Ираншахру. Однако вторжения хуннов — хиянитов, кидаритов, эфталитов, а позднее тюрок, — завоевавших северо-восточные территории Ирана и обложивших Сасанидов данью, нарушили существующий космологический порядок. Это заставило сасанидский двор к разработке новых стратегий для поддержания своих идеологических структур. Политические и военные*

конфликты между хуннами и иранцами привели к тому, что регион, известный в иранской литературе как «Туран», с V века начал ассоциироваться с землей легендарных врагов Ирана. Сасанидская историография трактовала поражение от хуннов как отражение космической борьбы двух сил из Авесты – Ахура-Мазды и Ахримана. Афрасиаб, правитель Турана, изображался как непримиримый враг Ирана, олицетворение зла, посланник Ахримана и колдун. Афрасиаб, будучи героем и правителем, олицетворял исторические и политические процессы, происходившие в географической территории Турана. Примечательно, что позднейшие тюркские династии, такие как Караханиды и Сельджуки, возводили свое происхождение к Афрасиабу. Это свидетельствует о сохранении связей с реальными доисламскими событиями. Таким образом, Афрасиаб, должен оставаться общим историческом героем Турана – современной Центральной Азии.

Ключевые слова: *Туран, Иран, Афрасиаб, Хунны, Хианиты, Кидариты, Эфталиты, Тюрки, эпос, «Шахнама», легетимация.*

Abstract. *Although there is no scholarly consensus on whether Afrasiab was a historical figure, the ancient conflict between Turan and Iran, particularly the political and military developments of the 4th–5th centuries CE, undoubtedly influenced the construction of his image. The early Sasanian emperors pursued the unification of the "civilized peoples" of the world under the hegemony of Iranshahr and sought to subordinate external forces. However, the incursions of the Huns – including the Khyanites, Kidarites, Hephthalites, and later the Turks – who conquered northeastern Iran and exacted tribute from the Sasanians, disrupted this cosmological order. In response, the Sasanian court developed new ideological strategies to preserve its legitimacy and reinforce its structures of power. These political and military confrontations redefined the region known in Iranian literature as "Turan." By the 5th century, Turan had become symbolically associated with the land of Iran's legendary adversaries. Sasanian historiography interpreted these defeats at the hands of the Huns through the dualistic framework of the Avesta, portraying the conflict as a cosmic struggle between Ahura Mazda, the deity of order, and Ahriman, the embodiment of chaos. Afrasiab, depicted as the ruler of Turan, emerged as a mythic antagonist in this narrative. He was characterized as a relentless enemy of Iran, a representative of evil, a messenger of Ahriman, and a sorcerer. Afrasiab's portrayal transcended mere legend; his image reflected the historical and political dynamics of Turan during this period. Significantly, later Turkic dynasties such as the Karakhanids and Seljuks claimed descent from Afrasiab, demonstrating the enduring relevance of his mythological legacy and its connection to pre-Islamic historical events. This continuity underscores Afrasiab's role not only as a legendary figure but also as a shared symbol of identity and cultural memory for the peoples of Central Asia.*

Keywords: *Turan, Iran, Afrasiab, Huns, Khyanites, Kidarites, Hephthalites, Turks, epic, "Shahnama", legitimation.*

Kirish

Turonning IV–VI yuzyillardagi o‘tmishi bugungacha ancha qorong‘uligicha qolmoqda. Xuddi shu chog‘larda Turonning keyingi o‘tmishida sezilarli iz qoldirgan siyosiy-ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar yuz bergan edi. Bir tomondan

III – IV yuzyillarning ikkinchi yarmidagi muhim geosiyosiy o‘zgarishlardan eng ko‘zga ko‘ringani Kushon imperiyasining qulashi, Arshakiylar sulolasi (eradan oldingi 250 – eraning 224 yillar) o‘rniga kelgan Sosoniylar sulolasi (224–642)ning[1] keng qamrovli bosqinchilik yurishlari bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa fanda “xalqlarning buyuk ko‘chishi” deb ataladigan kunchiqardagi xunlarning Yevrosiyo bo‘ylab kungay va kunbotar tomon ko‘chishi, buning ortidan Turon yerlarida turli bilgilarda “kidarlar”, “xionlar” va “eftallar” deb tilga olingan yangi kuchlarning siyosiy doiraga chiqqanligi edi.

Xuddi shu kezlar –V – VI yuzyillarda Sosoniylar imperiyasida chorvador va Eron imperiyaviy udumlarini birlashtirgan qurama bir siyosiy madaniyat yaratildi. “Turon” atamasi antik chog‘larning so‘nglarida Sosoniy imperiyasining tarixiy shimoli-sharqiy chegaralaridagi jamiyatlarni belgilash uchun ishlatildi. Turon va Eron o‘rtasida mingyilliklarga cho‘zilgan qarshiliklar xuddi shu chog‘lardan boshlangan bo‘lib, buning yorqin adabiy ko‘rinishi Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”sida tasvirlangan. Dostonda Turonning eng taniqli hukmdori va qahramoni Afrosiyobdan tortib xunlar va turklargacha bo‘lgan tarixiy-afsonaviy voqealar yoritilgan. Tarixshunoslikda “Shohnoma” orqali ko‘proq bilinadigan Afrosiyob borasida ko‘plab tortishuvlar, bir-biriga qarama-qarshi ko‘z-qarashlar ilgari surilgan. Quyida Afrosiyob timsolining Firdavsiy dostoni uchun qahramonlardan biri deb tanlanishidagi ayrim tarixiy negizlar ko‘zdan kechiriladi.

Eronshahr konsepsiyasi

Sosoniylar sulolasi Ikkidaryo oralig‘i (Mesopotamiya), Eron, Kavkazning bir qismi bilan Markaziy Osiyoning janubiy tegralari (Baqtriya–To‘xariston)da o‘z boshqaruvini o‘rnatib, Dajladan Hind daryosigacha cho‘zilgan markazlashgan imperiya tuzish yo‘lida birlashdilar. Chinakam global doirada raqobatlasha turib, ular Rumning siyosiy va tijoriy ta’sirini Qizil dengizdan Janubiy Xitoy dengiziga siqib chiqara oldilar. Sosoniylar imperiyasi Eronning muqaddas kosmologiyasini zamonaviy siyosiy voqeliklarga moslashtirish va unda o‘zlarining o‘rnini mustahkamlash uchun kosmologiyani qayta ishlab chiqishdi. Xuddi shu chog‘da ildizlari “Avesto” va zardushtiylikka borib taqaladigan qadimgi Eron epik udumlari bugungi kunda tan olinadigan ko‘rinishni oldi[2].

Salavkiylar imperiyasining yaratilishi va Sosoniylarning yuksalishi o‘rtasida Sharqiy Eron epik tarixi va “Avesto” kosmologiyasi diniy va she’riy diskursdan Eron o‘zligining o‘zagiga o‘ta boshladi, bunda so‘nggi Parfiya davri muhim o‘tish davri bo‘ldi. Zardushtiylikning muqaddas matnlari va udumlarining diniy va

[1] *Sosoniylar sulolasi* – sulola oti uning quruvchisi Ardashir Papak (226–241)ning bobosi – Anaxita ilohasi ibodatxonasi kohini Soson otidan kelib chiqqan (Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. 1. – Душанбе, 1989. – С. 243).

[2] Canepa M.P. The Iranian Expanse Transforming Royal Identity through Architecture, Landscape, and the Built Environment, 550 BCE–642 CE. 1st ed. – California: University of California Press, 2018. – P. 8.

she'riy diskursdan siyosiy diskursga tarixiy o'zgarishini anchayin keng kuzatsa bo'ladi. Ushbu yaratilish va qahramonlik bilan bog'liq afsonalarni o'zida saqlaydigan yoki ularga ishora qiluvchi qadimgi va o'rta eron (pahlaviy) matnlarida ko'plab o'zgarishlar, "yangilanishlar", qo'shilishlar, kengayishlar va o'chirishlar izlari bor[1]. Arshakiylar o'zlarining butun imperiyasi bo'ylab kuch-qudratini mustahkamlash uchun o'tmishni qayta yozish Markaziy Eron konsepsiyasini boshladilar. To'g'rirog'i, so'nggi Parfiya chog'iga kelib, afsonaviy Avesto hukmdorlari va qahramonlari "sulolalar"ga bo'lingan, Avesto afsonalari xalq tiliga aylantirilgan hamda yaqin va uzoq o'tmishni, qolaversa, bugungi bo'layotgan ishlarni anglatish uchun "yangilangan"[2].

Qayoniylar va Arshakiylar chog'idan o'rnatilgan butun dunyoga hukmronlik qilish g'oyasi bo'lmish Eronshahr konsepsiyasiga ko'ra Eron Yerning kosmologik markazi deb bilingan[3]. Boshqa barcha yerlar va xalqlar uning atrofida to'plangan bo'lib, u "Yetti qit'aning hukmdori" o'laroq oliy hokimiyatni ushlab turgan. Sosoniylar xuddi shuni o'zida ifodalagan kuchli yangi paneronchilik siyosiy o'zlik va imperial kosmologiyani yaratdilar. U murakkab kosmologiya va zardushtiylikning aniq axloqiy tizimlari taniqli, barcha yerda yoyilgan va hatto, Eronning ko'ngilochar eposlari bilan birlashib ketgandi.

Umuman, etnomarkaz qoidasidan kelib chiqilsa, o'tmishdagi har bir xalq o'z atrofidagi tegrani o'zlashtirar ekan, uning o'rtasiga, albatta, o'zini qo'yar, boshqa barcha xalqlarni atrofidagi chekka yerlarga o'rnashtirar edi[4]. O'rnak uchun, xanliklar (qadimgi xitoyliklar) o'z davlatlarini *Chjun-go* – "O'rtaliq davlat" deb atashgan[5]. Eski turklar uchun-da Yer yuzining o'rtasi xoqonlar yashaydigan

[1] Canepa M.P. The Iranian Expanse Transforming... – P. 7.

[2] Canepa M.P. The Iranian Expanse Transforming... 2018. – P. 7.

[3] Shu o'rinda kelib chiqishi fors tarixchisi Ktesiyning asariga borib taqaluvchi "To'rt jahon imperiyasi" konsepsyasini eslab o'tish kerak. U "Fors tarixi" asarida uchta buyuk dunyo kuchlari – Ossuriya, Midiya va Forsni tilga olgan. Makedoniyalik Aleksandrning imperiyasi bunga to'rtinchi bo'lib kirgan. "To'rt jahon imperiyasi yoki monarxiyasi" tushunchasi Yunoniston va Misrda keng tarqalmagan, chunki ularning o'tmishi bu konsepsiyada ko'zdan chetda qolgan edi. Biroq Makedoniyalik Aleksandr sobiq hokimiyatining Salavkiylar boshqaruvi ostidagi yerlarda bu konsepsiya qabul qilingan va tez orada u Yunon-Makedon hukmronligiga qarshi kurashning mafkuraviy asosiga aylanadi. Birinchi uchta jahon qudratida: Ossuriya, Midiya va Fors hukmdorlari o'zlariniki, Sharq monarxlari, to'rtinchisi esa, chet elliklar hokimiyati bo'lib, ularning hukmronligi aniq qulashi va to'rtinchi hokimiyat yangi, beshinchi hokimiyat bilan almashtirilishi kerak edi. Chunki Salavkiylar davlatini forslar sulolasi boshqarishi kerak ediki, bu chindan yuz berdi. Eradan oldingi III yuzyillik o'rtalarida Baqtriya va Parfiya salavkiylardan ajralib, o'z mustaqilliklariga erishdilar.

[4] Жуковская Н.Л. Категории и символика традиционной культуры монголов. – М., 1988. – С. 154-155.

[5] Ивочкина Н.В. Китайская медная монета как модель мира // Записки Восточного отделения Российского Археологического общества (ЗВОРАО): НС. Т. I (XXVI). – СПб., 2002. – С. 114.

“muqaddas O‘tukan yish” bo‘lgan[1]. To‘g‘rirog‘i, “dunyo ustuni”, “dunyo qozig‘i” yoki “dunyo daraxti” o‘rnashgan tegra bu hukmdor qarorgohi – boshkenti edi[2]. O‘z-o‘zidan turk xoqonlari esa jahonshumul (universal) saltanatning – butun dunyoning hukmdori sanalgan[3].

Ilk sosoniy shahanshohlari dunyoning sivilizatsiyali aholisini birlashtirib, barcha tashqi kuchlarni, ayniqsa, Rumni Eronshahrga bo‘ysundirishga da’vo qilganlar. “Avesto”dagi Ayryana Vayja hukmdorlari – Eronshahr davomchilari butun dunyoga hukmronlik da’vosi tufayli Sosoniylar o‘ylab topgan Eron g‘oyasi ulardan kishilikni siyosiy tomonlama birlashtirishni talab qilardi. Bu jahonshumullik (universallik) mafkurasi eronlik bo‘lmaganlarning Eronga qo‘shilishini emas, balki eronlik bo‘lmaganlar tomonidan Eron shahanshohlarining qonuniy siyosiy hokimiyat manbai o‘laroq rolini ko‘pincha o‘lpon orqali tan olishini ko‘zda tutgan[4].

Bir so‘z bilan aytganda, mahalliy fors udumlarining Sharqiy Eron udumlari bilan ilk uyg‘unlashuvini ko‘rsatgan holda, sulolaning ilk hukmdorlari o‘z davlatlarining eronlik mohiyatini urg‘ulab, “Eronlar imperiyasi” – *Ērānšahr* (Eronshahr) siyosiy konsepsiyasiga yaratdilar[5]. So‘zma-so‘z “eronlik” deb o‘girilgan “Eron” so‘zi ilk bor siyosiy anglamda Ardashir I rasmiy unvonida “Eron shahanshohi” (*šāhān šāh Ērān*) deb qo‘llanilgan. “Eronshahr” so‘zi birinchi bo‘lib Shopur I ning Naqshi Rustam bitiklarida uchraydi, biroq keyin ham siyosiy, ham diniy diskurslarda barcha yerlarda keng yoyilgan. Shopur I Rum va Kushonlar ustidan erishgan g‘alabalaridan so‘ng sosoniylar shahanshohlik unvonini V yuzyil o‘rtalarigacha andoza (standart) bo‘lib qolgan “Eron va eronlik bo‘lmaganlar shahanshohi” deb kengaytiradi[6].

Xunlar va Sosoniylar munosabatlari

Ardashir I yoki Ardashir Papakan (224–241 yillar)dan boshlab Sosoniylar saroyi, ayniqsa, rumliklardan o‘lpon yig‘ish yo‘li bilan umume’tirof etilgan “eronliklar” (*ērān*)ning hududiy boshqaruvi (*šahr*) bo‘lmish *Ērānšahr*ni yaratish

[1] Кляшторный С.Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. – СПб.: Наука, 2006. – С. 245; Кононов А.Н. Способы и термины определения стран света у тюркских народов // ТС 1974. – М., 1978. – С. 74.

[2] Минерт Л.К. Монгольское градостроительство в XIII–XIV вв. // Центральная Азия и соседние территории в средние века (история и культура востока Азии). – Новосибирск, 1990. – С. 90.

[3] Koca A. Eski Türklerde Devlet Geleneği ve Teşkilatı // TÜRKLER. – Ankara, 2002. – Cilt 2. – S. 833.

[4] Payne R. The Reinvention of Iran: The Sasanian Empire and the Huns // The Cambridge Companion to the Age of Atilla. Ed. M. Maas. Cambridge Companions to the Ancient World. – Cambridge University Press, 2014. – P. 284.

[5] Gnoli G. The Idea of Iran: An Essay on Its Origins. Serie Orientale 62. – Rome: Istituto Italiano per il Medio e Estremo Oriente, and Leiden: Brill, 1989. – P. 129–131.

[6] Canepa M.P. The Iranian Expanse Transforming... – P. 9.

va saqlab qolishga urinishgan. Biroq xunlar Erondan vassallik o‘lponini undirish orqali ushbu kosmologik tartibni o‘zgartirib yubordilar, bu esa Sosoniylar saroyini o‘zlarining mafkuraviy tuzilmalarini qo‘llab-quvvatlashning yangi usullarini ishlab chiqishga majbur qildi. Sosoniylarni o‘lpon to‘lashga majbur qilgan xunlar kimlar edi?

G‘arbliklar *Xiyon*lar, sug‘dlar – *Xun*lar, xanlik (qadimgi xitoy)lar – *Xunnu*lar deb atagan chorvador qabilalarga doir ilk eslatmalar IV yuzyil o‘rtalaridan uchraydi[1]. “Bey-shi” (VI yuzyil)da xunlar qandaydir yo‘l bilan Sug‘d (xitoycha *Sude*) hukmdorini o‘ldirib, uni qo‘lga olgani, shundan keyin to‘rt avlod o‘tgani yozilgan[2]. Yunon (vizantiya) manbalarida xunlarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi chamasi 350 yillarga to‘g‘ri kelishi yozilgan. Xuddi shu kezlarda Ammian Marsellin ilk bor Sosoniylarning sharqdagi dushmani o‘laroq “xionlar”ni tilga olgan. “Xun” so‘ziga “i” harfi qo‘shilib, “xun”lar “xion”larga aylanganini Hindiston va Erondan topilgan mintaqaga kirib kelgan xalqlarning parallel ro‘yxatlaridan bilsa bo‘ladi. Bu yozma bilgilarda hindlar “Oq xunlar” va “Qizil xunlar” deb, forslar esa ularni “Oq xionlar” va “Qizil xionlar” deb o‘girishgani saqlanib qolgan[3]. Xionlar oti 500-yillarda “Avesto”, “Bundahishn”, “Ayetkar Zareronde” kabi bir qator Eron adabiyotlarida tilga olinib, ularda Xionlar va Sosoniylar o‘rtasidagi uzluksiz urushlar borasida so‘z boradi[4].

Ayrim bilgilarga ko‘ra, 356 yilda Xionlar qo‘mondoni o‘z o‘g‘li bilan birga sosoniylar shahanshohi Shopur IIning Amida shahrini (Suriya) qamal qilishida unga ittifoqchilik yordamini ko‘rsatgan[5]. 350–356 yillarda xion xunlari Zarafshon vodiysini egallab, keyinroq Amudaryo bo‘ylarigacha yetib borishgan va Sosoniylarga chegaradosh bo‘lishgan. Oldiniga xion xunlari chegarada tinchlikni

[1] Kengroq *qarang*: Амбарцумян А. А. Проблема племени хйаона по данным древнеиранских и среднеиранских источников // Вестник Восточного института. – 2000. – № 2. – С. 3–24; Амбарцумян А. А. Этноним «хйаона» в Авесте // Записки Восточного отделения Российского археологического общества. – 2002. – Т. 1. – С. 35–72.

[2] Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – Том II. – Москва – Ленинград: Изд. АН СССР, 1950. – С. 206.

[3] Grenet F. Crise et sortie de crise en Bactriane-Sogdiane aux IVe–Ve s. de .n. è: de l’héritage antique à l’adoption de modèles sassanides // La Persia e l’Asia Centrale da Alessandro al X secolo. Atti dei Convegni Lincei, 127. – Rome: Accademia Nazionale dei Lincei, 1996. – P. 388, n. 57; Grenet F. Les “Huns” dans les documents Sogdiens du mont Mugh (aves un Appendice par N.Sims-Williams) // Studia Iranica, 7. Études Irano-Aryennes offertes á Gilbert Lazard. – Paris, 1989. – P. 165-184.

[4] Оранский И.М. Введение в иранскую филологию / Под ред. чл.-корр. Акад. наук СССР проф. А.А. Фреймана. – Москва: Издательство восточной литературы, 1960. – С. 166, 206; Бертельс Е.Э. *Избранные труды. История персидско-таджикской литературы. – Москва: Издательство восточной литературы, 1960.* –С. 74–79.

[5] Тревер К.В. Эфталитское государство (V – VI вв.) // История народов Узбекистана. Т. I. Ч.1 Гл.2. – Ташкент, 1950. – С. 127.

saqlab qolishib, Sosoniy shahanshohlari bilan ittifoq tuzadilar, biroq keyinroq – IV yuzyil so‘ngi – V yuzyil boshlarida ular bilan raqobatlasha boshladilar.

Turon tegralarini yuz yil boshqargan, ikki yirik imperiya – Sosoniy va Gupta sulolalariga tahdid solgan Kidar xunlari imperiyasi o‘sha chog‘lardagi yozma manbalarda to‘laqonli yoritilmagan bo‘lsa-da, numizmatik topilmalar Panioniyalik Priskning “o‘zlarini kidarlar deb atovchi xunlar” to‘g‘risidagi hikoyasining tarixiyligini tasdiqlab bergan. Qolaversa, Panoniyalik Prisk eftallarning ittifoqchisi bo‘lgan sosoniylar shahanshohi Perozga qarshi urushda yengilgan so‘nggi Kidar shohi Kunxas (yunoncha κουνχας) bo‘lganini yozgan, ko‘pchilik izlanuvchilar buni shaxs oti emas, balki unvoni bo‘lgan deb chamalaydilar. Ehtimol, “xunn tili” yoki baqtr tilidan “xunlar xoni” yoki “xunnlar xoni” so‘zining buzilgan yoki buzilgan o‘girmasi o‘rta forschaga, so‘ngra yunonchaga o‘tgandir[1].

Xion va Kidarlar To‘xariston va unga tutash yerlarda yaxshilab o‘rnashib, o‘z boshqaruv markazlarini da shu yerga quradilar[2]. Eronshahr o‘zining sharqdagi qo‘shnilari – oldiniga Xiyon xunlari, keyin esa Kidar xunlari bilan tinimsiz olib borgan to‘qnashuvlari Eron adabiyotlarida yaxshi saqlanib qolgan. Qolaversa, arxeologik va numizmatik topilmalar-da bu urushlar natijalarini anchayin ochib bera oladi. Avstriyalik numizmat olim Shindelga ko‘ra, Varaxran V boshqaruvi chog‘iga doir Marv va Hirot zarbxonalari tanga bostirishida uslubiy uzilishlar bo‘lib, bu shaharlarning kidarlar qo‘liga o‘tgani, so‘ngra sosoniylar tomonidan qayta tiklanishi bilan bog‘liq. Varaxran V ning g‘alabasi hech qanday mag‘lubiyatga uchramagani yoki so‘nggisi bo‘lmaganini uning vorisi Yazdigird II ning bir necha yil bir xil dushmanlar bilan urushda qatnashganidan bilsa bo‘ladi. Yazdigird II ning vorisi Peroz ham xuddi shunday qilishiga to‘g‘ri kelgan edi .

Eron adabiyotshunoslari IV–V yuzyillarda Sharqdagi dushmanlariga xiyon (“xyön”) yorlig‘ini qo‘llash orqali xunlarni Eronshahrning chin dushmanlari darajasiga ko‘tardilar. Xunlar tomonidan Eron yerlarining bosib olinishi umumiy suverenitet to‘g‘risidagi ko‘z-qarashni ushlab turishni qiyinlashtirar edi. IV yuzyillikning ikkinchi yarmida Eron saroyi o‘zining shimoli-sharqiy tegralarini o‘sha chog‘lardagi kishilarga “Xunlar” oti bilan tanilgan dasht chorvadorlariga berib qo‘ydi. Shopur II (309–370) 350-yillarda Baqtriyada chorvador harbiy guruhlari bilan ilk bor to‘qnash kelgan va ularning kelishi Eron Sharqini nazorat qilish uchun qariyb uch yuzyil davom etgan kurashning boshlanishi bo‘lgan[3].

Eron adabiyotshunoslari IV – V yuzyillarda Sharqdagi dushmanlariga xiyon (“*xyön*”) yorlig‘ini qo‘llash orqali xunlarni Eronshahrning chinakam dushmanlari

[1] Ērān against Tūrān // Paradox Interactive Forums // http: paradoxplaza.com/forum/threads/eran-against-turan.1385423/post-26551614.

[2] Grenet F. Regional interaction in Central Asia and Northwest India in the Kidarite and Hephthalite periods // Indo-Iranian languages and peoples. Proceedings of the British Academy. – № 116. – Oxford, 2002. – P. 206–207.

[3] Ērān against Tūrān // Paradox Interactive Forums // http: paradoxplaza.com/forum/threads/eran-against-turan.1385423/post-26551614

darajasiga ko‘tardilar. Xunlar tomonidan Eron yerlarining bosib olinishi umumiy suverenitet to‘g‘risidagi ko‘z-qarashni ushlab turishni qiyinlashtirar edi. IV yuzyillikning ikkinchi yarmida Eron saroyi o‘zining shimoli-sharqiy tegralarini o‘sha chog‘lardagi kishilarga “Xunlar” oti bilan tanilgan dasht chorvadorlariga berib qo‘ydi. Shopur II (309–370) 350-yillarda Baqtriyada chorvador harbiy guruhlari bilan ilk bor to‘qnash kelgan va ularning kelishi Eron Sharqini nazorat qilish uchun qariyb uch yuzyil davom etgan kurashning boshlanishi bo‘lgan[1].

Xion va Kidarlar o‘rniga V yuzyil o‘rtalarida Sosoniylar salatanatini o‘ziga o‘lpon to‘lashga majbur qila olgan Eftallar saltanati keldi hamda G‘arbiy va Sharqiy Turkiston, Sharqiy Eron va Shimoliy Hindistonni birlashtirib, o‘zidan oldingi Kushonlar saltanatidan hududiy tomonlama ancha o‘zib ketdi[2]. Eftallarning kuchayib borayotganidan qo‘rqqan sosoniylar ularga qarshi yurish qiladi. Sosoniy shahanshohi Pero‘zning 484 yilda eftallarga qarshi urushi uning o‘limi bilan tugaydi. Sosoniylar va eftallar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarda eftal qo‘shinining ustun kelishi ular harbiy mahoratining yuqori darajada ekanini ko‘rsatadi. “Shohnoma”da Vaxshunvar va Peroz boshqaruvi chog‘laridagi voqealar keltirilgan.

IV – V yuzyillarga kelib sosoniylar o‘zlarining urushlardagi yutuqlari bilan maqtana olishmasdi. Kidarlar va eftallar birgina sosoniylar yerlarini egallashga, balki ularni o‘z vassallari o‘laroq bo‘ysundirishga ham erishdilar. V yuzyil boshlarida Yazdigird I, Varahran V va/yoki Yazdigird II Kidar xunlariga o‘lpon to‘lashga majbur bo‘ldilar.

Shahanshohlar Peroz (461–484) va Balash (484–488) boshqaruvi kezlarida Sosoniylar saltanati ajoyib mag‘lubiyatlarni boshdan kechirishdi. Bu choqqa kelib kidar xunlari va eftallar Sharqiy Eron yerlarining ko‘p qismini – Turon (Transoksiana), Marv va oldingi Kushon imperiyasi yerlarini Sosoniylardan ajratib olgan edilar. Bundan tashqari, eftallar sosoniylarning mafkuraviy da’volarini tushunishlarini ko‘rsatdilar va Forsning sharqiy chegarasida tinchlikni saqlash evaziga “o‘lpon” olish orqali ularning da’volarini rad etdilar. Yazdgird II o‘lpon to‘lashni

[1] Payne R. The Making of Turan: The Fall and Transformation of the Iranian East in Late Antiquity // Journal of Late Antiquity. – 2016. – №9. – P. 7.

[2] Kengroq *qarang*: Litvinsky B.A. The Hephthalite Empire // History of Civilizations of Central Asia. Vol. III. Ed. B.A. Litvinsky. – Paris, 1996. – P. 135–162; Grenet F. Regional interaction in Central Asia and Northwest India in the Kidarite and Hephthalite periods // Indo-Iranian languages and peoples. Proceedings of the British Academy. – № 116. – Oxford, 2002. – P. 206–207; Rezakhani Kh. From the Kushans to the Western Turks / King of the Seven Climes. A History of the Ancient Iranian World (3000 BCE - 651 CE). Ancient Iran Series / Vol. IV. Edited by Touraj Daryaee. – Jordan Center for Persian Studies, 2017. – P. 199–219; Naymark A. Sogdiana, its Christians and Byzantium: a study of artistic and cultural connections in late antiquity and early middle ages. Ph.D. Dissertation, Department of Central Eurasian Studies and Department of Art History, Indiana University. – Bloomington, 2001; Исоматов М.М. Эфталитское государство и его роль в истории Центральной Азии: Автореф. дисс. ... док. ист. наук. – Душанбе: ТГПУ им. Айний, 2009; Kurbanov A. The Hephthalites: Archaeological and Historical Analysis. PhD thesis submitted to the Department of History and Cultural Studies of the Free Univer. – Berlin, 2010.

to‘xtatdi, Peroz esa oxir-oqibat Sosoniy imperiyasining obro‘si uchun ham, shahanshohning o‘zi uchun ham halokatli tugagan bir qator yurishlarni boshladi[1].

Eftallar o‘zlarining birinchi yurishlarida yengib, shahanshoh Perozni tutqinlikka olib, 474 yilgacha garovda ushlab turib, tutqinlikdan qo‘yib yuborishlari uchun to‘lov o‘laroq 30 xachir kumush yetkazib berishga majbur qilishdi. “Bundahishn”da yozilishcha, *“Yazdigird o‘g‘li Peroz hukmronligi chog‘ida 6 yil yomg‘ir yog‘madi. Kishilar katta azob va baxtsizliklarni boshdan kechirdilar. Shunda Eftallar shohi Xashnavaz kelib, Perozni o‘ldirdi. Va Kavad garov o‘laroq singlisi va olovini Heftalga olib keldi”*[2]. O‘lpon to‘lash oddiy moliyaviy bitim bo‘lib qolmay, balki Sosoniylar bo‘ysunishining keng yoyilishini ko‘rsatishi kerak edi. Bundan tashqari, eftallar Perozni eftal hukmdori oldida marosimiy hurmat ko‘rsatishga majbur qildilar: *“Eftallar hukmdori o‘z vassallaridan birini Perozga yuborib, uni o‘ylamay, beparvolik qilgani uchun ko‘p bor qoraladi, bu bilan u hech qanday maqsadsiz shaxsan Perozning o‘zini va butun forslarni butunlay yerga urdi; biroq bordiyu Peroz yerga cho‘kka tushib, bukilib, ehtirom bilan ta’zim qilishga ko‘nsa, chunki u (eftal hukmdori) endi uning hukmdoriga aylangan edi va forslarning odatiy qasamini ichib, forslar eftallar bilan boshqa hech qachon urush qilmaslikka so‘z bersa, xunlar ularning xavfsizligini ta’minlashga ko‘nishini bildirdi”*[3].

Yunon va xitoy yilliklarida Kidar xunlari davlatining boshkentlari chamasi 420–470 yillarda Samarqand va Balx shaharlari bo‘lgani to‘g‘risida bilgilar saqlanib qolgan. 467 yilda Balx shahrining boy berilishi Sosoniy shahanshohlari hokimiyatini tuzatib bo‘lmas darajada kuchsizlashtirdi. Xunlarning uchinchi guruhi – eftallar Baqtriya va Sug‘ddan kidarlarni asta-sekin siqib chiqardi. 474 yilda Balxni sosoniylardan qaytarib olib, eftallar 560 yilda turklar kelishidan oldin o‘z saltanatlarini shimolda Sug‘dgacha, sharqdan Tarim havzasigacha kengaytirdilar.

Shunday qilib, IV – V yuzyillarga kelib sosoniylar sulolasi “xiyon”, “kidar” va “eftal”lar deb atalgan xunlarning turli siyosiy davlat uyushmalaridan, ayrim chog‘lardagi Sosoniylarning himoyaviy mudofaa g‘alabalarini aytmaganda, harbiy tomondan yengilgan edi. Numizmatik topilmalar oldiniga Kidarlar tomonidan egallab olingan Hirot va Marv shaharlarning keyin qaytarib olish imkonini bergan sosoniylarning aniq mudofaa g‘alabasini ko‘rsatadi. Biroq Dinovariy va Tabariyning To‘xoristonda Sosoniylar boshqaruvini tiklash borasidagi iddaolari numizmatik va arxeologik bilgilar bilan tasdiqlanmaydi.

Turon va Eron qarshiligining tug‘ilishi

Amerikalik eronshunos Richard Peyn izlanishlaridan birida german qabilalari Rim imperiyasini, Yevrosiyo xun qabilalari esa Sosoniylar imperiyasining

[1] Canepa M.P. The Iranian Expanse Transforming... – P. 282.
[2] Cereti C.G. Xiiaona and Xyōn in Zoroastrian texts // Coins, Art and Chronology II: The First Millennium in the Indo-Iranian Borderlands. Eds. M. Alram et al. – Wien, 2010. – P. 69–70.
[3] Canepa M.P. The Iranian Expanse Transforming... – P. 282.

shimoli-sharqiy tegralarini bosib olishini o‘zaro qiyoslagan. Xunlar Eron yerlariga kirgan birinchi harbiy elita guruhi edi, biroq so‘nggi emasdi: VI yuzyil o‘rtalarida turklar xuddi shunday yo‘l tutganlar – Sosoniylar qo‘li ostidagi To‘xoriston va unga tutash yerlarni o‘z xoqonligiga qo‘shib olishgan. Keyingi o‘zgarishlarni G‘arbiy Rimning qulashi bilan bir vaqtda imperiyadan tashqari elita tuzumlarining qurilishi o‘laroq ko‘rsa bo‘ladi. Oxir-oqibat, sharqiy va g‘arbiy yurishlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, german qabilalarini Rim chegaralaridan siqib chiqargan xunlar IV yuzyilda Xitoyning shimoliy chegaralaridagi ko‘chmanchi elitalarning nisbatan yirik migratsiyasining eng g‘arbdagi tarmog‘i edi. Ular orasida Sharqiy Eronni bosib olgan kuchlar-da bor edi. G‘arbiy Rim va Eron Sharqining bir vaqtning o‘zida yo‘qotilishi so‘nggi antik chog‘da imperiya chegaralarining umumiy torayishining bir qismi bo‘lib, natijada ikkala imperiya o‘zlarining chekka tegralari evaziga asosiy yerlarida o‘z boshqaruvlarini saqlab qolishga diqqat qaratadilar[1].

Sosoniylar singari, ko‘plab Arshakiy shohlari ham o‘zlarining shimoliy va sharqiy chegaralaridagi bosqinlarni qaytarish uchun kurashganlar, hatto, Arshak shohi Artaban II chorvadorlar bosqiniga qarshi urushlardan birida o‘lgan. Turonliklarga qarshi urushlarda o‘z bahodirligi bilan tanilgan ayrim Eron qahramonlari ana shu Arshak shohlarining otlarini eslatadi: *Godarz* (Gotarz), *Gev* (Geo), *Milad* / *Mehrdod* (Mitridat) va *Farhod* (Frat) kabi qahramonlar dasht bilan zamonaviy qarama-qarshiliklarni tushuntirishda afsonaviy pretsedentni[2] yaratgan edi[3]. Shunday qilib, Sharqiy Eron diniy kosmologiyasi, shohona eposi, yarim afsonaviy tarixi va mahalliy afsonalarning birlashmasi dunyoni izchil tushunishni shakllantirish va kuch asosini yo‘naltirish uchun ishlatsa bo‘ladigan kuchli siyosiy diskursni yaratdi[4].

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan xunlar va eronliklar o‘rtasidagi siyosiy-harbiy to‘q-nashuvlar tufayli xo‘jaligi, yashash tarzi va diniy qarashlari bilan Erondan tubdan ajralib turgan, uning sharqiy chegaralaridan tashqaridagi bugungi Markaziy Osiyo va unga tutash yerlar, Eron adabiyotlarida “Turon” oti bilan tanilgan jo‘g‘rofiy tegra V yuzyildan boshlab eronliklarning afsonaviy dushmanlari yurti o‘laroq belgilana boshlandi. Chunki O‘rta Sharqning madaniyatli o‘troq dehqonlaridan madaniy tomonlama ajralib turgan dashtdan kelgan ko‘plab chorvador dushmanlar Eron uchun anchayin past, yot madaniyat egalari edi. Siyosiy boshqaruvchilari chorvadorlardan bo‘lgan Turon jamiyati Eronning an’anaviy o‘troq jamiyatidan farqlanar, qolaversa, keng dasht va cho‘llardan iborat Turon yerlarida ko‘proq chorvachilik bilan shug‘ullangan aholining jinlar va butlarga sig‘inganligi Eronning zardushtiy aholisidan butunlay ajratib turardi. Madaniy chegaralardan

[1] Payne R. The Making of Turan... – P. 4–5.
[2] *Pretsedent* – o‘tmishda yuz bergan voqea yoki hodisa bugunga kelib keyingi harakatlar uchun o‘rnak yoki negiz bo‘lib xizmat qiladi.
[3] Nöldeke T. Das iranische Nationalepos. – Strassburg: Verlag von Karl J. Trubner, 1896. – S. 7.
[4] Canepa M.P. The Iranian Expanse Transforming... – P. 8.

ko‘ra aniq jo‘g‘rofiy chegaralarning yo‘qligi esa ular o‘rtasidagi chegaralarni noaniq va o‘tkazuvchan qilgan.

Sosoniy elitalar Eronshahrdan sharqdagi xunlarni “Avesto”dagi yovuz Axrimanning yovvoyi, madaniyatsiz elchilari deb bilishar, xunlardan yengilish sosoniylarga Eronshahrdagi o‘zlarining hokimiyatini qo‘ldan boy berish bilan teng edi. Qayoniylar va Arshakiylar o‘rnatgan butun dunyoga hukmronlik qilish g‘oyasini yanada boyitgan Sosoniylar o‘zlarining shimoli sharqdagi xunlardan yengilganini “Avesto”dagi ikki kuch – Axuramazda va Axriman o‘rtasidagi kurash deb talqin qildilar. Qolaversa, Xionlar bilan afsonaviy qarama-qarshilik hamda xunlar va turklar bilan tarixiy qarama-qarshilik o‘rtasidagi o‘xshashlik Eron saroyiga ularga qarshi harbiy yurishlarni Eronni va uning dinini vayron qiluvchi iblis kuchlaridan saqlashga qaratilgan muqaddas yurishlar o‘laroq ko‘rsatishga imkon berdi[1]. Bunday talqin keyinchalik xalq og‘zaki ijodi va saroy yozma asarlari orqali to islomdan keyingi chog‘largacha yetib kelib, “Shohnoma” tufayli bugungacha saqlanib keldi.

Firdavsiy va so‘nggi sosoniylarning afsona yaratuvchi tarixchilari hikoyalaridagi bosh motiv bu – ikki sivilizatsiya o‘rtasidagi dialektik munosabatlar bo‘lib, ular har xil farqlarga qaramay, tarix va afsonada bir-biriga bog‘lanib ketgandi[2]. Turon g‘oyasi so‘nggi antik chog‘dagi ko‘chmanchi siyosiy tuzumning eron tilidagi qayta tuzilishi (remaking)ni samarali tavsiflagan. Ushbu konsepsiya tarafdorlari turonliklar Eron saroyi ega bo‘lgan harbiy kuchdan ancha ustunlik qilgan dashtning harbiy kuch-qudrat manbalariga suyanibgina qolmay, balki o‘z hukmronliklarini Eron afsonaviy-tarixiy tuzilmasida buzilgan ko‘rinishda bo‘lsada, qonuniylashtirishlari mumkin deb taxmin qilishgan. Turonni ta’riflashda ko‘chmanchilarning Eron institutlarini o‘z maqsadlariga moslashtira olish qobiliyatini tushunish aniq edi[3].

Shunday qilib, harbiy kuch tomonlama yenga olmasliklarini tushunib yetgan Sosoniy saroyi afsona yaratuvchi tarixchilari birgina “Avesto”ga emas, balki elita orasida, ayniqsa, imperiyaning sharqiy hududlarida keng tarqalgan qahramon shohlar va zodagonlar to‘g‘risidagi og‘zaki hikoyalarga ham tayanganlar. “Avesto”, Sharqiy Eron va Parfiya an’analariga borib taqaladigan hukmron elita ajdodlarining qahramonliklari to‘g‘risidagi hikoyalar keng tarqalgan va “Shohlar kitobi”ning saqlanib qolgan qismlarida faqat afsonaviy-tarixiy ertaklarning saroy tomonidan qayta ishlangani, doimo qayta-qayta aytilib, mahalliy elitaning pozitsiyasidan kelib chiqib kishilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan versiyasi saqlanib qolgan edi.

O‘z saltanatini uchga bo‘lgan afsonaviy shoh Faridunning uch o‘g‘lidan ikkitasi – *Tur*ga Turon yerlari (bugungi Markaziy Osiyo), *Salm*ga esa Rum

[1] Payne R. The Making of Turan... – P. 27.
[2] Payne R. The Making of Turan... – P. 5–6.
[3] Payne R. The Making of Turan... – P. 6.

(Vizantiya) yerlari tekkan edi. Keyin ular Faridunning yana bir o‘g‘li – *Eraj* (Eron)ga qarshi bosh ko‘tarib, Eronning Rum va Turon o‘rtasidagi mingyillik afsonaviy-tarixiy urushiga sabab bo‘ldi. Bordiyu Rum saroyiga doir afsonaviy-tarixiy hikoyalarda u Eronning potensial sherigi o‘laroq ko‘rsatilgan bo‘lsa, Turon Eronning madaniy qarama-qarshiligi va azaliy dushmani, deb tasvirlandi.

“Avesto”dan “Shohnoma”gacha Afrosiyob timsoli

“Avesto”da *Fraŋrasyan* (“dahshat, qo‘rquv soluvchi kishi”), o‘rta forscha yoki pahlaviycha *Frāsiyāv*, *Frāsiyāk*, *Frangrāsyāk*, Tabariyda *Farāsīāt*, Dinovariy, Mas’udiy, Beruniyda *Farāsīāb*, Saolibiy, Firdavsiyda *Afrāsīāb* ko‘rinishida uchraydigan Turon hukmdori Afrosiyob Eronning ashaddiy dushmani bo‘lishi bilan birga kuchli jangchi va mohir lashkarboshi o‘laroq tasvirlangan. Qolaversa, zardushtiylikdagi yovuzlik ilohi Axrimanning elchisi, sehr-jodu kuchlariga ega, Eron yerlarini vayron qilishga intilgan shaxs deb ko‘rsatilgan. Eng eski zardushtiy adabiyotlarida Afrosiyob, Zahhok va Aleksandr uchligi yovuz Axrimanning eronliklarga qarshi qayragan eng yomon dushman kuchlari deb bilingan[1].

Ayrim izlanishlarda Kir II va Kayxusrav afsonalaridagi o‘xshashliklardan kelib chiqib, Afrosiyob Midiya shohi Astiag bilan tenglashtirilgan: hukmdor Astiag – Afrosiyob o‘z qizi Mandane – Farangisning o‘g‘li, fors shahzodasi Kir – Kayxusravni o‘ziga qaytarishni buyuradi, biroq bola cho‘ponlar orasida saqlanadi va keyinchalik bobosini taxtdan ag‘daradi[2]. Nemis sharqshunosi Teodor Nyoldeke Afrosiyob afsonalarida birgina turli sak qabilalari, yuechjilar emas, balki xunlar, eftallar, kidarlar, turklarning yurishlari aks ettirilgan va aralashib ketgan, deb qaragan[3]. Ayrim izlanuvchilar Nyoldekening bu qarashlariga yanada oydinlik kiritib, Afrosiyobni V – VI yuzyillarda Sosoniylar bilan 150 yildan ortiq urush olib borgan, shahanshoh Xusrav I (Firdavsiyda Kayxusrav) tomonidan yengilgan va Eron yerlaridan haydab chiqarilgan bir yoki bir nechta eftal hukmdorlariga to‘g‘ri keladi, deb qaraydilar. Tabariy o‘z asarlarida Afrosiyob / Aspandiatning eftallar shohi Axshunvar yoki Axshunvaza otidan kelib chiqqanini tilga oladi. Keyinroq bu rivoyatu afsonalar islom chog‘idagi manbalarda yetakchi o‘rinni egallagan.

Islomdan oldin Erondagi bir qancha asarlar, aytaylik, “Xvaday-namak” rasmiy tarix emas, balki rasmiy doston bo‘lib, epik afsonalar, xuddi yunonlarning Aleksandriya olimlari asarlaridagi kabi, aniq xronologik doiraga kiritilgan. Musulmon mualliflariga ko‘ra, hatto “Avesto”da ham birinchi odam paydo bo‘lganidan sosoniylar sulolasining so‘nggigacha o‘tgan yillar, oylar va hatto, kunlar soni aniq belgilangan. “Xvaday-namak”dagi Sosoniylar o‘tmishi ham

[1] Yarshater E. Afrāsīāb // Encyclopædia Iranica. – I/6. – P. 570–576. http://www.iranicaonline.org/articles/afrasiab-turanian-king.
[2] Nöldeke T. Das iranische Nationalepos... – S. 3–4.
[3] Nöldeke T. Das iranische Nationalepos... – S. 7; Yarshater E. Afrāsīāb // Encyclopædia Iranica... – P. 570–576.

butunlay ishonchli yilnoma emas edi; ayrim yerlarida shahanshohlar nasabnomasida noto‘g‘ri bilgilar berilgan, ularning boshqaruvi kezidagi voqealar ba’zan zodagonlar foydasiga epik qamrovda tasvirlangan. Afsonaviy va tarixiy bo‘lgan barcha sulolalar bir-biri bilan genealogik bog‘liq bo‘lgan, shuning uchun, afsonaga ko‘ra, qadimdan faqat bitta shahanshoh oilasi bo‘lgan. Musulmonlar chog‘ida esa faqat islomgacha bo‘lgan shahanshohlarning avlodlari Eronning qonuniy hukmdorlari o‘laroq tan olingan; uzurpatorlarni qonuniy hukmdorlarga aylantirish uchun afsonaviy nasabnomalar tuzilgan[1]. Shuning uchun, islomgacha bo‘lgan Eron tarixidan ko‘ra ko‘proq doston bo‘lgan Firdavsiyning “Shohnoma”si va unga o‘xshash dostonlarda yangi hukmdorlar o‘tmishdagi epik qahramonlarga qiyoslanadi[2].

Bilamizki, o‘tmishda har bir xalqning turli omillar ta’sirida yo‘qolib ketgan yoki o‘zgargan, transformatsiyaga uchragan ota-bobolarning kelib chiqishi (genealogiyasi) bilan bog‘liq afsonalari bo‘lgan. Aytaylik, dunyoning yaratilishi bilan bog‘liq musulmon an’anasida turklarning kelib chiqishi bo‘yicha yangi afsonalar yuzaga kela boshlagan. IX yuzyildan boshlab, Markaziy Osiyo yozma an’analarida Injil nasabnomasi mashhur bo‘lib, unga ko‘ra kishilar Odam Atodan kelib chiqqan, biroq to‘fondan keyin Nuh o‘g‘illari – *Som*, *Xom* va *Yofas* tug‘ilgach, ular irqlarga bo‘lingan. Afsonaga ko‘ra, Nuh o‘g‘illariga dunyoning turli yerlari meros bo‘lib qolgan; shulardan Yofasga shimol va sharq tegralari tekkan. Tarixchi Tabariy (838-923) Yofas avlodlari qatoriga “at-turk” (turklar)ni kiritgan[3]. Keyingi o‘rta asr yozuvchilari-da Yofasning to‘ng‘ich o‘g‘li “Turk” deb atalgani va Qayumars fors davlatlarining birinchi sultoni bo‘lganidek, Turk ibn Yofas ham Mashriq o‘lkasi xoqonlarining birinchi qooni ekanini yozib qoldirishgan[4].

X – XI yuzyillardagi manbalarda Afrosiyobning kelib chiqishi Nuh payg‘ambar bilan bog‘langani kuzatiladi. Narshaxiyga ko‘ra, forslarning kitoblarida yozilishicha, ikki ming yil yashagan Afrosiyob Nuh avlodlaridan bo‘lgan[5]. XI yuzyildan boshlab eski turk afsonalarida turklarning kelib chiqishi va boshqaruvchi Qoraxoniylar sulolasining qayta ko‘rib chiqilishi ikki holat: turk tilli

[1] Бартольд В.В. Иран. Исторический обзор // Сочинения. – Т. VII. – М.: Наука, 1971. – С. 279–280.

[2] History of civilizations of Central Asia. - Vol. 4: The Age of achievement, A.D. 750 to the end of the fifteenth century; Pt. II: the achievements. Eds. C.E. Bosworth, M.S. Asimov. – UNESCO Publishing, 2000. – P. 155.

[3] Калинина Т.М. Ал-хазар и ат-турк в произведениях средневековых арабо-персидских ученых // Хазары. Khazars. [Евреи и славяне. Т. 16]. – Иерусалим; Москва, 2005. – С. 251-258.

[4] Улуғбек М. Тўрт улус тарихи. – Тошкент, 1994. – 36-бет; Абулғозий. Шажараи турк. – Тошкент, 1993. –15-бет.

[5] Мухаммад Наршахи. История Бухары. Перевел с персидского Н. Лыкошин. – Ташкент, 1897. – С. 25; Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Таржимон А. Расулев. – Тошкент: Фан, 1966. – 23 бет.

qabilalarning islomlashuvi va shoh Afrosiyob boshqargan Turon g‘oyasining keng yoyilgani, taniqli ekani bilan bog‘liq edi. Bu g‘oyani Qoraxoniylar sulolasi vakillari va yerlik oydinlar muhiti qo‘llab-quvvatladi[1]. Qoraxoniylar sulolasi vakillari o‘zlarini afsonaviy hukmdor Afrosiyob avlodlari o‘laroq talqin qilish orqali Turonga egalik qilish huquqiga da’vo qilishgan[2].

Umuman, islomdan keyingi yozma manbalarda Afrosiyobning turk xalqlariga tegishli qilib ko‘rsatilishi bo‘yicha qizg‘in tortishuvlar haligacha tingani yo‘q. Bu tortishuvlarni Afrosiyobning turk kelib chiqishiga qo‘shilmagan sharqshunos V.V. Bartold boshlab bergan desa bo‘ladi: “Bilamizki, fors dostoni forslarning o‘ziga katta ta’sir ko‘rsatgan; u yerda turlarga qarshi kurash borasida so‘z ketadi; Bu eronliklar va ularning Markaziy Osiyodagi qo‘shnilari o‘rtasidagi qadimiy kurash bo‘lib, turlarga boshliq o‘laroq sof eroncha Afrosiyob otini olgan qahramon ko‘rsatilgan. Turklar bu rivoyatni qabul qilib, Turkistonni bosib olgan xonlar sulolasi o‘zlarini Afrosiyob avlodlari deb atay boshladilar. Mahalliy rivoyatlarning qanchalik unutilganini ko‘p o‘tmay, XI yuzyilga kelib Mahmud Koshg‘ariy ma’lumotida muallif To‘nga qahramon oti bilan bog‘liq she’rni keltira turib, o‘z o‘girmasida bu otni Afrosiyob bilan almashtirganini ko‘rsa bo‘ladi; Bir vaqtning o‘zida ko‘chmanchi turmush xotirasi allaqachon yo‘qolgan va biz bu sulola qaysi xalq nomidan chiqqanini ko‘rmaymiz”[3]. O‘rni kelganda aytish kerakki, V.V. Bartold Qoraxoniylar sulolasi boshqaruvi kezlarida Movarounnahrda madaniy tushkunlik yuz berganiga shubha yo‘q deb qaragan edi[4]. Qolaversa, yuqorida keltirilgan Bartoldning “Musulmonlar chog‘ida esa faqat islomgacha bo‘lgan shahanshohlarning avlodlari Eronning qonuniy hukmdorlari o‘laroq tan olingan; uzurpatorlarni qonuniy hukmdorlarga aylantirish uchun afsonaviy nasabnomalar tuzilgan”i [5] to‘g‘risidagi qarashi turk sulolalari uchun-da tegishli bo‘lishi kerakmasmi? Shu yerda Bartoldning ko‘pgina ko‘z-qarashlari bugungi kunga kelib eskirgani va to‘g‘ri emasligi oydinlashib borayotganini uqdirish o‘rinlidir.

Turkolog V.V. Radlov esa Alp Er To‘ngani o‘z o‘rnida ko‘plab izlanuvchilar tomonidan O‘g‘uzxon bilan tenglashtiriladigan Xunnu shanyuysi Mode timsoli (prototipi) deb topgan[6]. Mode–O‘g‘uzxonning qahramonliklari to‘g‘risidagi afsona eski turklarning bir qator folklor yodgorliklari, deylik, eng eski “O‘g‘uznoma”da X – XI yuzyil – “Shohnoma” dostoni yaratilgan choqqa kelib,

[1] Бартольд В.В. Богра-хан // Сочинения. Т. II. Ч. 2. – М.: Наука, 1964. – С. 506.
[2] Hunkan S. Türk Hakanlığı (Karahanlılar). – İstanbul, 2007. – S. 75–80.
[3] Бартольд В.В. Сочинения в 9 томах. – Т. V. – Москва: Восточная литература, 1968. – С. 433.
[4] Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения в 9 томах. – Т. I. – Москва: Восточная литература, 1963. – С. 62–63.
[5] Бартольд В.В. Иран. Исторический обзор… – С. 279–280.
[6] Радлов В.В. К вопросу об уйгурах. – СПб., 1893. – С. 62.

dostonning uyg‘un kompozitsiyasini allaqachon o‘zlashtirgan va Afrosiyob timsoli evolyutsiyasiga ham tegishli ta’sir ko‘rsatgan edi[1].

Qoraxoniy va Saljuqiy sulolalari xoqonlari o‘zlarining kelib chiqishini Afrosiyobga bog‘laganlar. Bularning barchasi islomgacha bo‘lgan hukmdorlar bilan qarindoshlik aloqalari to‘g‘risidagi da’volar, aslida hukmdorlarning egalik qilgan o‘lkalarida o‘z hukmronliklarining qonuniyligini oqlash istagidan kelib chiqqan edi. Binobarin, Xuroson va Eron yerlariga egalik qilgan Buyidlar, Somoniylar va G‘aznaviylar o‘zlarini Sosoniylar avlodi, Turon yerlariga egalik qilgan Qoraxoniylar esa Afrosiyob avlodlari o‘laroq ko‘rsatganlar[2].

To‘xtam

Eng eski chog‘larda afsonalar og‘izdan-og‘izga, bir qabiladan boshqa qabilaga, bir xalqdan boshqasiga o‘tib kelgan. Gerodot yozib qoldirgan ko‘plab afsonalar yunon, Eron va Turon yerlarida yashagan qabila va xalqlarning orasida keng yoyilgan, bir-biriga o‘xshash qahramonlar va voqealarni ko‘rsatadi. Shuning uchun, xalq dostonlari birgina xalq tafakkuri va ilk adabiy asar namunalari bo‘libgina qolmay, balki eng uzoq chog‘larga borib taqaladigan o‘tmish voqeliklarini o‘zida saqlagan qimmatli manbadir. Xalq dostonlari, afsonalar, rivoyatu asotirlardagi bosh qahramonlar timsoli ko‘pincha butun dunyodagi xalqlarda bir-biriga o‘xshab ketadi. Bunga Midiya hukmdori Astiagning Turon hukmdori Afrosiyobga, Afrosiyob esa eftallar yoki ulardan oldingi Xiyon xunlari hukmdorlaridan biriga, Afrosiyob – Alp Er To‘nga xunnular shanyuysi Modega, Mode esa o‘z o‘rnida afsonaviy O‘g‘uzxonga qiyoslanishini o‘rnak qilib keltirsa bo‘ladi.

Eng eski chog‘lardan har bir xalq o‘zining kelib chiqishi bilan bog‘liq turli afsonaviy shajaralarga ega bo‘lishgan. Ilk kishilikning yaratilishi bilan bog‘liq afsonalar keyinroq davlatlar va imperiyalarning qonuniyligi (legitimligi)ni asoslashda qo‘l kelgan. Bunday afsonaviy shajaralar ko‘pincha yaqin o‘tmish va bugunda yuz berayotgan voqea-hodisalar bilan birlashib ketgan ko‘rinishda keyingi avlodlarga yetkazilgan.

Eron va Turonning qarshiligi ildizlarini ko‘rib chiqishda ikki tomonning-da o‘z chinliklari borligi, ikkisida ham afsonalar tarixiy voqealar bilan uyg‘unlashib ketgani kuzatiladi. Aytaylik, Erondagi Peshdodiylar sulolasi va uning qahramonlari, hukmdorlari, ilk insonning paydo bo‘lishi kabi ko‘plab motivlar Erondagi keyingi sulolalar – Qayoniylar, Arshakiylar, Sosoniylarga og‘zaki va yozma ko‘rinishda o‘tgan. Ana shu o‘tish chog‘ida bu afsonalar va tarixiy voqealar transformatsiyaga uchragan.

Shu o‘rinda uqdirib o‘tish kerakki, Eron singari Turondagi boshqaruvchi sulolalar-da o‘zlarining kelib chiqishini Afrosiyob avlodi yoki keyinroq Nuh ibn

[1] Короглы Х. Алп Эр Тонга и Афрасиаб по Юсуфу Баласагуни, Махмуду Кашгари и другим авторам // Советская тюркология. – 1970. – №4. – С. 115.

[2] Bosworth C.E. The Heritage of rulership in early Islamic Iran and the search for dynastic connections with the past. // Iran. – Vol. XI. – London, 1973. – P. 61–62.

Yofasga borib taqashlari negadir bugungi kun izlanuvchilariga g‘alati tuyuladi va buni “Erondan o‘zlashtirilgan”, “Eronlik qahramon yoki hukmdorning keyinroq turklashishi” kabi iddaolarni ilgari surishadi. Bunda har bir sulola o‘zining ulug‘ligi va qonuniyligi (legitimligi)ni asoslash uchun, qolaversa, hukmron sulola chog‘ida – shu kecha-kunduzda yuz bergan siyosiy-harbiy, diniy-mafkuraviy voqeliklarni oldingi afsonalar bilan qo‘shib talqin qilgani ko‘zdan qochiriladi.

To‘g‘risini aytganda, o‘tmishda chinakamiga yashab o‘tgan taniqli hukmdorlar, lashkarboshilaru bahodirlar o‘z ezgu ishlari, yovqurliklari bilan biror xalq esida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Ular og‘izdan-og‘izga o‘tib, keyinroq biroz o‘zgargan, unutilgan, tuzatilgan ko‘rinishda yarim afsona, yarim o‘tmishga aylanadi. Hatto, bunday afsonaviy qahramonlar bir xalqdan ikkinchisiga, bir davlatdan boshqasiga ko‘chib yurishi kuzatiladi.

Afrosiyob chinakam tarixiy shaxsmi yoki yo‘qmi, degan tortishuvlar borasida bir to‘xtamga kelinmagan bo‘lsa-da, uning kelib chiqishida Turon – Eron o‘rtasidagi azaliy kurashlar, ayniqsa, IV–V yuzyillardagi siyosiy-harbiy jarayonlar sezilarli rol o‘ynagan. Turon va Eron qarama-qarshiligi doirasida yuzaga chiqqan ko‘plab Eron hukmdorlari va qahramonlarini bugungi fan Eron yozma adabiyoti tufayli yaxshi biladi[1]. Biroq Turon hukmdorlari va qahramonlari to‘g‘risida bunday deyish qiyin, chunki Turonning eng eski chog‘lardagi yozma adabiyotlari yetib kelmagan. Shuning uchun, ularni qo‘shni boshqa xalqlar, deylik, Eron adabiyotlaridan bilishga to‘g‘ri keladi. Odatda afsonaviy yoki siyosiy tarixni kim yozgan yoki yozdirgan bo‘lsa, unda o‘sha tomonning qiziqishlari ustunlik qiladi. Tarixiy asarlar hukmdorlar yoki boy homiylar tomonidan buyurtma qilingani uchun, ushbu homiy yoki uning sulolasini ulug‘lashga moyil bo‘lgan. Gardiziyning “Zayn al-axbor” asari sulolalarning umumiy tarixi yoritilgan bo‘lsa-da, asar bag‘ishlangan G‘aznaviylar, tabiiyki, kitobda boshqa sulolalarga

[1] Sosoniylar boshqaruvi kezlarida turli chog‘larga tegishli zardushtiylik matnlarining yig‘indisi bo‘lgan “Avesto” kodifikatsiya qilingan. Bu ko‘proq mobed (kohin) Tan-sarning urinishlari tufayli III – IV yuzyilliklarda yuz bergan. Sosoniylar boshqaruvi so‘nggi kezlariga kelib, o‘rta fors tilida birgina “Avesto” va boshqa zardushtiylik matnlari – “Denkart”, “Bundahishn”, balki turli mazmun va kelib chiqishga ega chinakam dunyoviy adabiyot shakllandi. “Denkart” va “Bundahishn”ning mazmuni birgina diniy bo‘lmay, aytaylik, “Bundaxishn”ga Eronning afsonaviy shohlari (Pishdodiylar, Qayoniylar va boshqalar), dunyoning yaratilishi va boshqalar to‘g‘risidagi eng eski Eron afsonalari kiritilgan. Xuddi shu chog‘larda tarixiy asarlar yuzaga kelib, ular “Xvaday-namak” (“Hukmdorlar kitoblari”) deb atalgan. Firdavsiyda “Xvaday-namak”ning ayrim parchalarining she’riy ko‘rinishlari bor. Bu asarlar ko‘proq Sosoniy shahanshohlari o‘tmishini o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularning boshqargan yillariga tayanilib, taqdim qilingan. Yana boshqa tarixiy asarlar o‘z mazmuniga ko‘ra shahanshohlar va qahramonlarning tarjimayi holiga (Artashir I, Mazdak, Bahrom Cho‘bin kabilar) bag‘ishlangan bo‘lib, “Karnamak-ye Artashir-ye Papakan” (“Papak o‘g‘li Artashirning ishlari kitobi”, chamasi VII yuzyillik boshlari) asarida Sosoniylar sulolasi quruvchisining afsonaviy tarjimayi holi hikoya qilinadi. Qolaversa, Hindiston va boshqa o‘lkalardan kelgan asarlar Eronda qayta ishlangan. O‘rnak uchun, hind tillaridan biridan o‘rta forschaga o‘girilgan “Xazar Afsane” (“Ming bir ertak”) kitobi keyinchalik arabchaga o‘girilgan “Ming bir kecha”ga asos bo‘lgan.

qaraganda birmuncha maqtalgan. Shubhasiz, tarix yangi sulolaning qurilishini oqlash yoki shunchaki homiyga xushomad qilish vositasi o‘laroq yanada muhimroq bo‘lgan[1].

So‘nggi yillardagi izlanishlarda islomdan oldingi chog‘lardagi bugungi Markaziy Osiyo o‘tmishi yangicha ko‘z-qarashlar bilan ochiqlanmoqda. Ilgari fanga bilinmagan ko‘plab yangi bilgilar Kushonlardan Turk xoqonligigacha bo‘lgan oraliqdagi bo‘shliqni anchayin to‘ldirib, ko‘plab savollarning yechilishiga olib keldi. Bizningcha, IV–V yuzyillardagi Osiyo xunlari katta oqimining Yevrosiyo bo‘ylab ko‘chishi, birgina Turon va Eron tegralarida emas, balki Rum imperiyasigacha o‘z aks-sadosini berdi. Ana shu tarixiy ko‘chish, yangi yerlarning egallanishi, yangi siyosiy kuchlar – Yevrosiyo bo‘ylab oldingi ijtimoiy-siyosiy tuzumlarning qulashi va yangi tuzumning yuzaga kelishi bilan belgilanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, Afrosiyob – Turon jo‘g‘rofiy tegrasida kechgan tarixiy siyosiy voqeliklarni o‘zida umumlashtirgan qahramon, hukmdor timsolidir. Keyinchalik Qoraxoniylar va Saljuqiylar kabi turk sulolalari o‘zlarining kelib chiqishini Afrosiyobga borib taqashlari ana shu islomdan oldingi chinakam voqea-hodisalar bilan uzviylikni anglatadi. Tarixiy-afsonaviy tomondan Amudaryo (Oks) daryosi Turon va Eron yerlari yoki eronliklar va turonlik (turk)lar o‘rtasida chegara bo‘lgan. Shunday ekan, Afrosiyob – o‘tmishdagi Turon, bugungi kundagi Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy qahramoni bo‘lib qolishi kerak.

Qo‘llanilgan manba va adabiyotlar:

1. Bosworth C.E. The Heritage of rulership in early Islamic Iran and the search for dynastic connections with the past. // Iran. – Vol. XI. – London, 1973. – P. 51–62.

2. Canepa M.P. The Iranian Expanse Transforming Royal Identity through Architecture, Landscape, and the Built Environment, 550 BCE–642 CE. 1st ed. – California: University of California Press, 2018. – 512 p.

3. Cereti C.G. Xiiaona and Xyōn in Zoroastrian texts // Coins, Art and Chronology II: The First Millennium in the Indo-Iranian Borderlands. Eds. M. Alram et al. – Wien, 2010. – P. 59–72.

4. Ērān against Tūrān // Paradox Interactive Forums // http: paradoxplaza.com/forum/threads/eran-against-turan.1385423/post-26551614.

5. Gnoli G. The Idea of Iran: An Essay on Its Origins. Serie Orientale 62. – Rome: Istituto Italiano per il Medio e Estremo Oriente, and Leiden: Brill, 1989. – 216 p.

6. Grenet F. Les “Huns” dans les documents Sogdiens du mont Mugh (aves un Appendice par N.Sims-Williams) // Studia Iranica, 7. Études Irano-Aryennes offertes á Gilbert Lazard. – Paris, 1989. – P. 165–184.

7. Grenet F. Crise et sortie de crise en Bactriane-Sogdiane aux IVe–Ve s. de .n. è: de l’héritage antique à l’adoption de modèles sassanides // La Persia e l’Asia Centrale da

[1] History of civilizations of Central Asia. - Vol. 4: The Age of achievement, A.D. 750 to the end of the fifteenth century; Pt. II: the achievements. Eds. C.E. Bosworth, M.S. Asimov. – UNESCO Publishing, 2000. – P. 154–155.

Alessandro al X secolo. Atti dei Convegni Lincei, 127. – Rome: Accademia Nazionale dei Lincei, 1996. – P. 367–390.

8. Grenet F. Regional interaction in Central Asia and Northwest India in the Kidarite and Hephthalite periods // Indo-Iranian languages and peoples. Proceedings of the British Academy. – № 116. – Oxford, 2002. – P. 203–224.

9. History of civilizations of Central Asia. – Vol. 4: The Age of achievement, A.D. 750 to the end of the fifteenth century; Pt. II: the achievements. Eds. C.E. Bosworth, M.S. Asimov. – UNESCO Publishing, 2000.

10. Hunkan S. Türk Hakanlığı (Karahanlılar). – İstanbul, 2007.

11. Koca A. Eski Türklerde Devlet Geleneği ve Teşkilatı // TÜRKLER. – Ankara, 2002. – Cilt 2. – S. 833.

12. Kurbanov A. The Hephthalites: Archaeological and Historical Analysis. PhD thesis submitted to the Department of History and Cultural Studies of the Free Univer. – Berlin, 2010.

13. Litvinsky B.A. The Hephthalite Empire // History of Civilizations of Central Asia. Vol. III. Ed. B.A. Litvinsky. – Paris, 1996. – P. 135–162.

14. Naymark A. Sogdiana, its Christians and Byzantium: a study of artistic and cultural connections in late antiquity and early middle ages. Ph.D. Dissertation, Department of Central Eurasian Studies and Department of Art History, Indiana University. – Bloomington, 2001.

15. Nöldeke T. Das iranische Nationalepos. – Strassburg: Verlag von Karl J. Trubner, 1896.

16. Payne R. The Reinvention of Iran: The Sasanian Empire and the Huns // The Cambridge Companion to the Age of Atilla. Ed. M. Maas. Cambridge Companions to the Ancient World. – Cambridge University Press, 2014. – P. 282–300.

17. Payne R. The Making of Turan: The Fall and Transformation of the Iranian East in Late Antiquity // Journal of Late Antiquity. – 2016. – №9. – P. 4–41.

18. Rezakhani Kh. From the Kushans to the Western Turks / King of the Seven Climes. A History of the Ancient Iranian World (3000 BCE - 651 CE). Ancient Iran Series / Vol. IV. Edited by Touraj Daryaee. – Jordan Center for Persian Studies, 2017. – P. 199–219.

19. Yarshater E. Afrāsīāb // Encyclopedia Iranica. – I/6. – P. 570–576. http://www.iranicaonline.org/articles/afrasiab-turanian-king.

20. Абулғозий. Шажараи турк. – Тошкент, 1993.

21. Амбарцумян А. А. Проблема племени хйаона по данным древнеиранских и среднеиранских источников // Вестник Восточного института. – 2000. – № 2. – С. 3–24.

22. Амбарцумян А. А. Этноним «хйаона» в Авесте // Записки Восточного отделения Российского археологического общества. – 2002. – Т. 1. – С. 35–72.

23. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения в 9 томах. – Т. I. – Москва: Восточная литература, 1963. – С. 4–597.

24. Бартольд В.В. Богра-хан // Сочинения. Т. II. Ч. 2. – М.: Наука, 1964.

25. Бартольд В.В. Сочинения в 9 томах. – Т. V. – Москва: Восточная литература, 1968. – 759 с.

26. Бартольд В.В. Иран. Исторический обзор // Сочинения. – Т. VII. – М.: Наука, 1971. – С. 279–280.

27.Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – Том II. – Москва – Ленинград: Изд. АН СССР, 1950.

28.Бертельс Е.Э. Избранные труды. История персидско-таджикской литературы. – Москва: Издательство восточной литературы, 1960.

29.Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. 1. – Душанбе, 1989.

30.Жуковская Н.Л. Категории и символика традиционной культуры монголов. – М., 1988.

31.Ивочкина Н.В. Китайская медная монета как модель мира // Записки Восточного отделения Российского Археологического общества (ЗВОРАО): НС. Т. I (XXVI). – СПб., 2002.

32.Исоматов М.М. Эфталитское государство и его роль в истории Центральной Азии: Автореф. дисс. ... док. ист. наук. – Душанбе: ТГПУ им. Айний, 2009.

33.Калинина Т.М. Ал-хазар и ат-турк в произведениях средневековых арабо-персидских ученых // Хазары. Khazars. [Евреи и славяне. Т. 16]. – Иерусалим; Москва, 2005. – С. 251-258.

34.Кляшторный С.Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. – СПб.: Наука, 2006.

35.Кононов А.Н. Способы и термины определения стран света у тюркских народов // ТС 1974. – М., 1978. – С. 74.

36.Короглы Х. Алп Эр Тонга и Афрасиаб по Юсуфу Баласагуни, Махмуду Кашгари и другим авторам // Советская тюркология. – 1970. – №4. – С. 115.

37.Минерт Л.К. Монгольское градостроительство в XIII–XIV вв. // Центральная Азия и соседние территории в средние века (история и культура востока Азии). – Новосибирск, 1990.

38.Наршахи, Мухаммад. История Бухары. Перевел с персидского Н. Лыкошин. – Ташкент, 1897.

39.Наршахий, Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи. Таржимон А. Расулев. – Тошкент: Фан, 1966.

40.Оранский И.М. Введение в иранскую филологию / Под ред. чл.-корр. Акад. наук СССР проф. А.А. Фреймана. – Москва: Издательство восточной литературы, 1960.

41.Радлов В.В. К вопросу об уйгурах. – СПб., 1893.

42.Тревер К.В. Эфталитское государство (V – VI вв.) // История народов Узбекистана. Т. I. Ч.1 Гл.2. – Ташкент, 1950.

43.Улуғбек, Мирзо. Тўрт улус тарихи. – Тошкент, 1994.

“ALP ER TO‘NGA” MARSIYASINING MATNI XUSUSIDA

Zilola Sattorova
Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU

Annotatsiya: *Turkiy xalqlar qadimgi og‘zaki ijodi namunasi bo‘lmish “Alp Er To‘nga” marsiyasi “Devonu lug‘ati-t turk” asarining qo‘lyozma nusxasi orqali kunimizgacha yetib kelgan. Marsiya ilk turkiy davlatchilikka asos solgan adolatli hukmdor Alp Er To‘nganing o‘limiga bag‘ishlangan. “Devonu lug‘ati-t turk” qo‘lyozmasi yagona nusxada bo‘lib, Mahmud Koshg‘ariyning avtografi asosida XIII asrda Shomda ko‘chirilgan. Ushbu maqolada marsiya matni va o‘qilishi, talqini xususida fikr yuritiladi.*

Tayanch so‘zlar: *marsiya, Alp Er To‘nga, qo‘lyozma, nashr, faksimile.*

Аннотация: *Марсие «Алп Эр Тонга», являющееся образцом древнего устного творчества тюркских народов, дошло до наших дней благодаря рукописной версии труда «Дивану лугат-ит-турк». Марсие посвящено смерти справедливого правителя Алп Эр Тонга, который заложил основы ранней тюркской государственности. Рукопись «Дивану лугат-ит-турк» существует в единственном экземпляре и была переписана в XIII веке в Шаме (Сирия) на основе автографа Махмуда Кашгарий. В данной статье рассматриваются текст, чтение и интерпретация марсие.*

Ключевые слова: *марсие, Алп Эр Тонга, рукопись, издание, факсимиле.*

Abstract. *The elegy "Alp Er Tonga," an example of ancient oral literature of the Turkic peoples, has been preserved to this day through the manuscript version of the work Devonu Lughat-it-Turk. The elegy is dedicated to the death of the just ruler Alp Er Tonga, who laid the foundation of early Turkic statehood. The manuscript of Devonu Lughat-it-Turk exists in a single copy and was transcribed in the 13th century in Sham (Syria) based on Mahmud al-Kashgari's autograph. This article discusses the text, reading, and interpretation of the elegy.*

Keywords: *elegy, Alp Er Tonga, manuscript, publication, facsimile.*

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t turk” asari umumturkiy xalqlarning nodir yozma me’rosidir. Hisobimizga ko‘ra, Koshg‘ariy 7596 ta turkiy so‘zlar ma’nosini ochiqlagan va buning uchun 185 ta to‘rtlik, 58 ta ikkilik baytlar hamda 298 ta maqol va matallardan na’muna keltirib o‘tadi[1]. Asarning ilmiy qiymatini yuksaltirgan jihatlaridan biri Mahmud Koshg‘ariy ushbu parchalarni kitoblardan yoki boshqa manbalardan ko‘chirib yozmagan, balki uzoq yillar davomida turkiy xalqlarning o‘zi aytganidek eng chekka qabilalarigacha kirib borib, marosim va bayramlarida ishtirok etib, jonli tarzda yozib olgan va matnga kiritgan. Shulardan biri Alp Er To‘nga marsiyasidir. Ushbu marsiya turkiy

[1] Sattorova Z. “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining o‘zbek tilidagi nashrlarini qiyosiy-matniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD), -T: 2024, -B.76.

xalq ogʻzaki ijodining qadimiy namunalaridan biri boʻlib, matnning muayyan bir joyida kelmaydi, toʻrtliklar holida turli oʻrinlarida uchraydi.

Ilk marta marsiyani tizimlashtirgan oʻzbek jadidi Abdurauf Fitratdir. 1927-yilda devon asosida “Eng eski turk adabiyoti namunalari” [1] majmuasiga tartib beradi. Fitrat Alp Er Toʻnga shaxsi bilan qiziqib, shunday maʻlumot qoldiradi: “Mahmud Koshgʻariy bu ismning “Toʻngaxon”, “Toʻnga takin” shakllarini bilgani holda, marsiya egasinining “Toʻngaxon”, “Toʻnga takin” emas, “Alp Er Toʻnga” ekanligini aniq biladir. Bu Alp Er Toʻnganing fazilati, aqli, ilmi ham rahbarligi bilan u zamonlarda tanilgʻan, bilingan bir kishi ekanligiga “Qutadgʻu bilig” egasi shahodat beradi”. Shuningdek olim, “Ravzat-us safo”ga asoslanib, Chingizdan oldin Balasagʻun shahrida inqirozga yuz tutgan bir xoqonlik boʻlgani, uning boshida Alp Er Toʻnga naslidan bir kishi turgani, shuningdek, xoqonlikning halokati sababi haqida ham tarixiy ma’lumot keltirib oʻtadi. Marsiyani oʻqir ekansiz, Alp Er Toʻnganing jasorati, ilm-fan homiysi va adolatli xoqon sifatida insonlar qalbidan chuqur joy olgani va ming yildan ortiq zamon kechsa-da unutilmagani Alp Er Toʻnganing turkiy davlatchilikning asoschisi sifatidagi qarashlarni asoslaydi.

Fitratdan keyin “Devonu lugʻati-t turk” asari 1960-1963-yillarda Solih Mutallibov tomonidan toʻliq oʻzbek tiliga tarjima qilinib nashr etildi. Ushbu nashrning ilmiy qiymati yuqori baholandi, soʻnggi ellik yil mobaynida butun ittifoq davlatlari tadqiqotchilari uchun yagona manba boʻlib qoldi. Biroq nashrning bitta qusurli tomoni shunda ediki, tarjima bevosita qoʻlyozmadan qilinmay, balki turk olimi Kilisli Rifat qoʻli bilan koʻchirilgan va bosmaga tayyorlangan nusxasi asosida amalga oshirilgan edi. Chunki qoʻlyozma yagona nusxada boʻlib, hali faksimile nashrlari tayyorlanmagan edi. Fitrat va S.Mutallibov ishining umumiy tomoni ham shunda edi. Ikkala olim ham qoʻlyozmani koʻrmagan. Uning sifatli faksimilesi hali tayyorlanmagan edi.

1990-yilga kelib asarning Turkiyada birinchi rangli faksimilesi tayyorlandi. 2008-yilga kelib esa uning sifatli, rangli va asl nusxaning deyarli barcha xususiyatlarini oʻzida koʻrsata olgan nusxasi [2] tayyorlandi. Shuningdek, 2017, 2018-yillarda ham sifati yuqori baholanadigan yangi nusxalari chop qilindi. Shu bois matnning shungacha tayyorlangan koʻplab nashrlarida qoʻlyozma bilan anchagina tafovutlar borligi ma’lum boʻlib qoldi. Bu tafovutlarning ayrimlari yaqqol koʻzga tashlansa, aksariyatlari maxsus ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi. Turkologiyada erishilgan yutuqlar va tendensiyalarning oʻzgarishi yangi nashrlarga ehtiyoj tugʻdirdi. 2016 va 2017-yillarda oʻzbek turkologiyasining

[1] *Фитрат.* Энг эски турк адабиёти намуналари. — Самарқанд-Тошкент. 1927. — 124 б.


[2] *Mahmud bin al-Husayn bin Muhammad al-Kashgʻari*. Kitâbu dîvânu lugâti’-t-türk.Tipkibasim-Türkçe Sözçükler, Özel Adlar Dizini. — Istanbul: Yayina hazirlayan Şaban Kurt, 2008. — 638+ 319 s. (Tadqiqot davomida qoʻlyozmaning mazkur faksimile nashridan foydalanildi).

e’tiborli olimlari Hamidulla Boltaboyev boshchiligida[1] va Qosimjon Sodiqov[2] tomonidan tayyorlangan yangi nashrlari e’lon qilindi. Tadqiqotchilar bu safar qo‘lyozma asosida ish olib borishdi. Shuning bilan oldingi nashrda o‘tgan ayrim yanglishliklar qisman tuzatildi.

Biz yuqorida tavsif berganimiz to‘rt nashrni o‘zaro hamda qo‘lyozma bilan chog‘ishtirganimizda “Alp Er To‘nga” marsiyasi tarkibiga kirgan ayrim bandlarda ham matniy va ma’naviy tafovutlarni aniqladik. Marsiya Fitrat majmuasining tizimlashtirilgan birinchi 10 ta to‘rtligi bo‘lib, shu sarlavha ostida jamlanadi. To‘rtliklarni mazmun va qofiya asosida biriktiradi. O‘rnaklarni tabdilini qilishda ayrim so‘zlarning ma’nosini “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Muqaddimat ul-adab”, “Lug‘atoyi chig‘atoyi” kabi manbalar bilan ham qiyoslaydi. Marsiya shu to‘rtlik bilan boshlanadi:

Alp Er Tonga o‘ldimu,
Esiz ajun qaldimi,
O‘dlak o‘chin aldimu,
Emdi yurak yirtilur.

Fitratning mahorati shundaki, olim bosma nashrda Kilisli Rifat yo‘l qo‘ygan xatoliklarni ham payqagan. Qo‘lyozmani ko‘rmagan bo‘lsa-da, she’rning arab tilidagi izohlariga, talqiniga va matnni o‘zlashtirish ko‘nikmasiga binoan so‘zning originalini ko‘rsatib bera olgan. Quyidagi bandga e’tibor bering:



Rasmda marsiya 4-bandini tashkil qilgan to‘rtlikning qo‘lyozmadagi holati keltirildi. (Mahmud Koshg‘ariy she’rlarni matndan alohida ajralib turishi uchun ustidan qizil chiziq tortgan va satrlarni nuqtali doirachalar bilan ajratgan).
Qo‘lyozma asosida matnni quyidagicha o‘qiymiz:

[1] *Маҳмуд Кошғарий*. Девону луғоти-т-турк. 1-3 жилд. (Нашрга тайёрловчилар: А.Рустамов, Ҳ. Болтабоев, Б.Исабеков) — Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2016.
[2] *Маҳмуд Кошғарий*. “Девону луғати-т- турк”. — Т: Ғафур Ғулом. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов 2007. — 482 б.

Qo‘lyozma faks. (2008)
90-bet, 14-15 sahifa

اكْرَيْكى مُندَغ اُق	Ögräyükï mundağ-oq,
مُندَا اذِن **تِلدَغ** اُق	Munda aδïn **tïldağ**-oq,
اَتسَا اَژُن اُغرَبْ اُق	Atsa aƶun oğrap oq,
تَغلَر بَشِى كَرْتِلُون	Tağlar bašï kertilur.

Ma’nosi: Zamonaning odati bunday, bundan boshqa halokatli sabablari ham bor. Agar zamon tog‘lar boshiga o‘q otsa, parchalanib ketadi. Baytma bayt: [Zamonaning o‘rgangan odati shunday, bundan boshqa bahonalari ham bor, agar dunyoga mo‘ljallab o‘q otsa, tog‘lar boshi ham kertiladi].

Ikkinchi satrda kelgan تِلدَغ *tïldağ* so‘zida *lam* harfi ustida xiraroq qalamda chiziq tortilgan va *kaf* harfiga o‘xshab qolgan. Bosma nusxada xuddi shunday *kaf* olingan hamda so‘zning keyingi nashrlarda ham shunday o‘qilishiga olib kelgan. Biroq Mahmud Koshg‘ariy satr ma’nosiga to‘g‘ri keladigan *bahona, sabab* ma’nosida kelgan so‘zni matnning boshqa o‘rnida ya’ni lug‘at qismida *tïldağ* ko‘rsatgan. *Tïkdağ* so‘zi esa umuman matnda mavjud emas. Faqat bu so‘z shu shaklda matnning indeks-lug‘atlariga ham kirgazib yuborilgan. Quyida esa o‘zbek tilidagi nashrlarda va Fitratning majmuasida to‘rtlikning o‘qilishi ko‘rsatildi:

Өгрўјўгі мундағ оқ, Мунда азїн **тэндағ** оқ, Атса ажун оғраб оқ, Тағлар баши кэртїлўр	Өгräјўгі мундағ оқ, Мунда аҷїн **тэңдағ** оқ, Атса ажун оғраб оқ, Тағлар баши кэртїлўр.	Ögräyükï mundağ-oq, Munda aδïn **tïldağ**-oq, Atsa aƶun oğrap oq, Tağlar bašï kertilur.	Ökräyükï mundağ oq, Munda aδïn **tïkdağ** oq, Atsa aƶun oğrap oq, Tağlar bašï kartilur.
S.Mutallibov, I/174	H.Boltaboyev I/124	Q.Sodiqov, 78	Fitrat, 14

Fitrat bandni matniy tahlil qilar ekan, *tikdağ* so‘zining nima ekanligini anglamagani, tovush ohangi nuqtayi nazaridan *k* va *ğ* ning bir so‘zda bo‘l-masligini ko‘zda tutganimizda *tildağ* ekanligi anglashiladi [1] deb mulohaza qilgan. Aytish o‘rinliki, bosma nashrdagi bu xatolikka B.Atalay ham (*tegdağ*, I.160), S.Mutallibov (*тэңдағ*. I,174) ham e’tibor qaratmagan. Shu tariqa Fitrat asl

[1] *Фитрат.* Энг эски турк адабиёти намуналари. — Самарқанд-Тошкент. -B.14

nusxani ko‘rmagan holda so‘zni to‘g‘ri talqin qila olgan. Keyingi nashrlarda esa Q.Sodiqov ushbu so‘zni qo‘lyozma asosida tuzatgan.

Biz marsiya tarkibidagi to‘rtliklarni o‘zbek tilidagi nashrlarda berilishi va qo‘lyozmadagi holatini qiyosladik. To‘rtinchi banddan tashqari yana to‘rtta bandda shunday tafovutlar aniqlandi hamda ularni qo‘lyozmada kelishi, o‘qilishi va o‘rni bilan quyidagi jadvalga joyladik:

Solih Mutallibov 1960-1963	Hamidulla Boltaboyev, Alibek Rustamov, Baxtiyor Isabekov 2016	Qosimjon Sodiqov 2017	Mahmud bin al-Husayn bin Muhammad al-Kashg‘ari. Kitâbu dîvânu lug‘âti’-t-ürk.Tipkibasim-Türkçe Sözçükler, Özel Adlar Dizini. - Istanbul: Yayina hazirlayan Şaban Kurt. 2008. — 638.
Білга **бӧкӱ** јунчїдї Ажун атї јанчїдї Ӓрдам ӓті **тїнчїдї** **Јӓргӓ** тӓгип сӱртӱлӱр.	Білгӓ **бӧкӱ** јунчїдї Ажун атї јанчїдї Эрдам эті **тїнчїдї** **Јэргӓ** тэгип сӱртӱлӱр.	Bilga, **bögü** ünčïdï, Ažun atï (anï?) yenčidi. Erdam eti **tïnčïdï**, **Yerkä** tegip sürtülür.	577/2 بِلكَا بُكُو يُنْجِيدِى اَزُنْ اَتِى يَنْجِدِى اَرْدَمْ اَتِى تِنْجِدِى يَرْكَا تَكِبْ سُرْتُلُورْ
Ӧгрӱјӱгі мундағ оқ, Мунда азїн **тӟндағ** оқ, Атса ажун оғраб оқ, Тағлар баши кӟртїлӱр 174	**Ӧгрӓјӱгі** мундағ оқ, Мунда аʐїн **тэңдағ** оқ, Атса ажун оғраб оқ, Тағлар баши кэртїлӱр. 124	**Ögräyüki** mundağ-oq, Munda aδïn **tïldağ**-oq, Atsa aʐun oğrap oq, Tağlar bašï kertilur. 78	90/14/15 اكْرَيْكى مُندَغ اُق مُندَا اِدِن **تِلدَغْ** اُق اَتسَا اَزُن اُغرَبْ اُق تَغلَر بَشِى كَرْتِلُون Ögräyüki mundağ-oq, Munda aδïn **tïldağ**-oq, Atsa aʐun oğrap oq, Tağlar bašï kertilur.
Ӧзläк јарағ кӱзӓтті Ӧғрї тузақ **узатти** 272	**Ӧзläк** јарағ кӱзӓтті Ӧғрї тузақ **узатти**… 154	**Öδläk** yarağ küzätti Oğrï tuzaq **uzuttï**… 279	383/10 اُذلك يَرَغْ كُزَتِّى اُغرِى تُزَقْ اُزُتِّى

Өзläк күні тәwрätўр, Jалїңуқ күчін кәwрätўр, Ӛрдін ажун **cäwpітўр** Қачса тақї **артїлур**. 387	Özläк күні тәwрätўр, Jалїңуқ күчін кәwрätўр, Ӛрдін ажун **cäwpітўр** Қачса тақї **артїлур**. 223	Өδläk küni tawratur, Yaliŋuq küčin kewratür. Erdan ažun **sewrätür**, Qačsa taqï **ertilür**. 313	431/15 أُذْلكْ كُنى تَقْرَتور يَلِنكُق كُچِن كَقْرَتور اَرْدِن اَژُن سَقْرتور قجسَا تَقى اَرتلُور

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Mahmud bin al-Husayn bin Muhammad al-Kashg‘ari*. Kitâbu dîvânu lugâti’-t-türk.Tipkibasim-Türkçe Sözçükler, Özel Adlar Dizini. — Istanbul: Yayina hazirlayan Şaban Kurt, 2008. — 638+ 319 s. (Tadqiqot davomida qo‘lyozmaning mazkur faksimile nashridan foydalanildi).
2. *Маҳмуд Кошғарий*. “Девону луғати-т- турк”. — Т: Ғафур Ғулом. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов 2007. — 482 б**.**
3. Sattorova Z. “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining o‘zbek tilidagi nashrlarini qiyosiy-matniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD), -T: 2024, -B.76.
4. *Маҳмуд Кошғарий*. Девону луғоти-т-турк. 1-3 жилд. (Нашрга тайёрловчилар: А.Рустамов, Ҳ. Болтабоев, Б.Исабеков) — Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2016.
5. *Фитрат.* Энг эски турк адабиёти намуналари. — Самарқанд-Тошкент. 1927. — 124 б.

Alp Er To‘nga timsolini mangulashtirish maqsadida Buxoro shahrida unga atalgan bitigtosh o‘rnatish bo‘yicha anjuman qatnashchilari tomonidan tavsiya etilgan matn

𐰋𐰇𐰼𐰃𐱅:𐰴𐰃𐰆𐰚𐰇𐰃:𐰇𐰚𐰃𐰼:𐰇𐰚𐰃𐰆:𐰴𐰆𐰃𐰇𐰃

TANGRINING INOYATIGA ERISHGAN, EL TUZGAN ALP ER TO‘NGA ULUG‘ XOQON

Ushbu bitig ko‘hna Turonning ulug‘ xoqoni, turk dunyosining milliy va tarixiy qahramoni Alp Er To‘nga xotirasiga bag‘ishlanadi.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» (943-yili yozilgan) asarida aytilishicha, Alp Er To‘nga (arab-fors tilidagi manbalarda Afrosiyob deganlar) Buxoro va Romitan shaharlariga asos solgan va uning qabri Buxoro-dadir, xususan, Siz qadam bosib turgan ushbu Hazrati Imom qabristonidadir.

Qadimgi Turk xoqonliqlari, Qarluqlar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Xorazmshohlar, Bajanaklar, Buyuk Saljuqlar va Usmoniylar davlatlari o‘zlarining tarixini ulug‘ xoqon Alp Er To‘nga bilan bog‘laganlar.

X–XII yuzyilliklarda yurtni boshqargan qoraxoniylar Alp Er To‘nga avlodi ekanligini ko‘zda tutib, o‘zlarini «Oli Afrosiyob» («Afrosoyob oilasi») deb ataganlar. Abu Rayhon Beruniy «Osoru-l-boqiya» va «Qonuni Mas’udiy» asarlarida, Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig» masnaviysida, Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘ati-t-turk» asarida, Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da Alp Er To‘nga to‘g‘risida aniq xabarlarni yozib qoldirganlar.

Alp Er To‘nga yurtga egaligi chog‘ida el erki, tinchligi, uning yuksalishi yo‘lida ezgu ishlarni yuzaga chiqardi; u uzun yillar buyuk va qudratli davlatni tutib turdi. Yurtni qanday boshqarish kerakligi, qutlug‘ yer-suv, ona ulusni yovlar bosqinidan asrash yo‘llarini bilgalariga, alp erlarga o‘rgatdi. Uning yetakchiligida bobolarimiz shu tuproqlarda o‘zining kuchli va yeri keng davlatiga egalik qildi.

Uning ezgu ishlari, janglarda ko‘rsatgan yovqirliqlari ming yillar osha kelgusi avlodlar, u tuzgan yurtning o‘g‘il-qizlari uchun o‘rnak bo‘ldi. Turkiy ulusning yengilmas alpi va yetakchisi haqidagi yaxshi xotiralari xalq doston va qo‘shiqlarida saqlanib qolgan. Shuningdek, o‘tmishda o‘tgan ulug‘ allomalarning asarlarida Alp Er To‘nganing Turon davlatini qurish yo‘lidagi buyuk qahramonliklari, elni boshqarish bilan bog‘liq to‘ru-tuzuklari hurmat bilan tilga olingan.

Alp Er To‘nga yashab el tutgan shu qutlug‘ tuproq biz uchun ardoqlidir.

Bitigtosh 2025-yil fevral oyining (yigirma besh)inchi kuni tiklandi.

2024-YIL 27-29-NOYABR KUNLARI BUXORO SHAHRIDA XALQARO ZIYORAT TURIZMI DOIRASIDA O‘TKAZILGAN “ALP ER TO‘NGA – ULUG‘ XOQON” MAVZUIDAGI ANJUMAN ISHIDAN LAVHALAR




TABARRUK ZIYORAT


TABARRUK ZIYORAT


TABARRUK ZIYORAT
turizm haftaligi 2024
27-29.11.2024
Mir Arab oliy madrasasi






TABARRUK ZIYORAT
turizm haftaligi 2024
27-29.11.2024
Mir Arab oliy madrasasi

Bosishga ruxsat etildi 25.12.2024. Bichimi 1/16. Shartli 6 b.t.
100 nusxada, original-maket asosida bosildi.
Buyurtma №____ Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining
kichik bosmaxonasida bosildi.
Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024.